

Ergashova Gulzoda Baxtiyorovna

Maktabgacha pedagogika

Buxoro 2023

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining bakalavr va sirtqi 5111800 – Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. “Maktabgacha pedagogika” nomli o‘quv qo‘llanmada maktabgacha ta’lim tashkilotlining ishchi xodimlari ish hujjatlarini to‘ldirish, ta’lim-tarbiya berish yo‘llari, qonun qoidalari, mashg‘ulotlarni tashkil etish shakllari va o‘tkazish metodikasi bo‘yicha nazariy bilim amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish masalalari yoritilgan.

Mas’ul muharrir:

P.f.n dotsent,
.....

Taqrizchilar:

PhD dotsent,
P.f.n dotsent,
.....

Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2023-yil 10 sentabrdagi 4-yig‘ilish qaroriga asosan o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

Kirish

So‘nggi yillarda Respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilib, Maktabgacha ta’lim konsepsiysi, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi kabi qator meyoriy-huquqiy asoslar yaratildi.

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta’lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali, zamonaviy kadrlar tayyorlash hamda ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiyani tarbiyachi pedagoglar amalga oshiradi. Har bir ota-onada o‘z farzandining bilimdon, yuksak mahoratli, odobli pedagog-tarbiyachi qo‘lida ta’lim-tarbiya olishini xoxlaydi. Jamiyat talabi darajasidagi tarbiyachi-pedagoglarni yetishtirish pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarining “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi zimmasiga tushadi. Mutaxassislik fani bo‘lgan Maktabgacha pedagogika fanining nazariy asoslari, ta’lim-tarbiya berishning tartib-qoidalari O‘rta Osiyo va jahon ma’rifatparvar, mutafakkir olimlarning asarlariga suyangan holda komil insonni tarbiyalashga asoslanadi.

“Maktabgacha pedagogika” fani orqali talabalar uch yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya ishlari mazmuni, uslublari, uni tashkil etish shakllari va bolalarni muktabga tavyorlashning samarali usullarini bilib oladilar.

“Maktabgacha pedagogika” fani bo‘yicha taylorlangan ushbu qo‘llanmada ana shu nazariy-metodologik asoslarga tayaniilgan holda asosiy e’tibor-maktabgacha pedagogikaning umumiylar asoslari uning ilmiy tadqiqot metodlari, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash mazmuni, uslubi izchil va ketma-ketlikda yoritib berilgan.

1-Mavzu. Maktabgacha pedagogikaning predmeti va vazifalari

Reja:

- 1.Maktabgacha pedagogika fanining predmeti.
- 2.Maktabgacha pedagogika fanining nazariyasi
- 3.Maktabgacha pedagogika fanining vazifasi

Maktabgacha pedagogika fanining predmeti.

Insonni har tamonlarna barkamol etib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyat qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish - ularni komillikka etaklash yo‘llarini izlaganlar. Bu esa pedagogika fanini maydonga kelishiga sabab bo‘lgan. Chunki insonni ma’rifatli va ma’naviy komillikka erishishi pedagogika fanining etakchiligidagi amalga oshiriladi.

Pedagogika - grekcha so‘z bo‘lib, «bola yetaklovchi» - ma’nosini bildiradi. Insonlarni ma’rifiy va ma’naviy barkamollikka munosabatlarni o‘zgartirib borishi natijasida pedagogika fani xalq orasida o‘z mavqeiga ega bo‘ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi qatoridan alohida o‘rin egallagan. Uning bosh masalasi tarbiyadir. Bundan uch ming yillar ilgari Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ta’lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan holda, uning ibodatxonalari qoshida maktablar tashkil etilib, kohinlar tomonidan bolalarning ta’lim-tarbiya tizimi ishlab chiqilgan. Bu ta’lim-tarbiya tizimi quyidagi tartibda amalga oshirilgan: diniy va axloqiv tarbiya, jismoniy tarbiya, o‘qish vayozishga o‘rgatish.

Ota-bobolarimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga alohida e’tibor qaratganlar. Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Az-Zamaxshariy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid - Cho‘pon, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy singari ulug‘ olimu adiblar, fozilu-fuzalolar ta’lim-tarbiya borasida ko‘p asarlar bitganlar.

Sharq pedagogikasining asoschilari Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilig» asari, Alisher Navoiyning «Maxbub ul-qulub»i, Kaykovusning «Qobusnama»si kabi asarlar bunga dalildir.

Mazkur ta’limiy asarlarda inson shaxsini ma’naviy kamolga etkazish yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshirish mumkin, degan g‘oya ilgari surilgan. Haqiqiy bilimga asoslangan ta’limiy uslub shakllanadi. natijada ta’lim-tarbiya olimlar diqqat markazida bo‘ldi.

Farobiy ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida inson takomilida ta’lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya usul va uslublari haqida fikr yuritilgan. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida», «Ilmlarning kelib chiqishi» kabi maorifiy asarlarida olimning tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Abu Rayhon Beruniyning bilimlarni egallash yo‘llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O‘quvchiga bilim berishda ularni zeriktirmaslik, uzviylik, izchillik va hokazolarni e’tiborga olish kerakligini uqtiradi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta’kidlaydi. Bu hozirgi zamon pedagogikasida e’tirof etiluvchi irsiyat, muhit va tarbiyadir.

Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishining birinchi mezoni sanalgan bilim egallahsga da’vat etadi. Bilimsiz kishilar johil bo‘ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, ular etuk bo‘lмаган kishilar deydi. Ibn Sino bilim olishda boialarni engildan og‘irga borish orqali bilim berish, olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi, bilim berishda bolani qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olish, o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan olib borish kerakligini uqtiradi.

Pedagogik fikrni rivojlanishida rus pedagogi K.D.Ushinskiyning pedagogik, nazariy qarashlari «Inson tarbiya predmeti sifatida» degan mukammal asarida bayon qilib berilgan. «Ona tili», «Bolalar dunyosi» kitoblari barchaga yaxshi ma’lum bo‘lib, u ta’limning ko‘rgazmaliligi, ongli va uzviy olib borish masalalarini ishlab chiqdi.

Maktabgacha pedagogika fanining nazariyasи

Pedagogika fan sifatida rivojlanishida chex pedagogi, olimi Yan Amos Komenskiy (1592-1670)ning hissasi katta bo‘ldi. Uning «Buyuk didaktika» asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi. Undan tashqari «Onalar maktabi» degan maktabgacha tarbiya qo‘llanmasi va bir qancha kitoblari

diqqatga sazovordir. Komenskiy o‘zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg‘un bo‘lishi to‘g‘risidagi tushunchani ilgari suradi. Pedagog bolani tarbiyalaganda, bog‘bon daraxtning biologik o‘sish qonuniyatini hisobga olgani kabi, undagi tabiiy bilish xususiyatlarini hisobga olishi shart, deydi. Komenskiy o‘qishga hammaning tortilishini, hamma umumta’lim olishi kerakligini uqtiradi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yangi tarmog‘i shakllanib bormoqda. Misol tariqasida oilaviy ta’limning ko‘rinishlaridan biri «Davlat MTTlari», «Nodavlat MTT» larini keltirish mumkin. Bolalarga xoreografiya, tasviriy va musiqa san'ati, kompyuter savodxonligini o‘rgatuvchi guruqlar soni kundan-kunga ko‘payib bormoqda.

Bola tug‘ilgan kundan boshlab, uni maktabga borgunga qadar bo‘lgan davrda har tomonlarna etuk barkamol etib tarbiyalash qonuniyatlarini o‘rganish maktabgacha ta’lim pedagogikasining muvzuidir. U maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oilaning tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi birligini, maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktab ishidagi aloqadorlikni, bodalarni maktabda o‘qishga tayyorlashni ta’minlab, ijtimoiy maktabgacha tarbiya sharoitida tarbiya va ta’lim berish ishlarining vazifalarini, tamoyillarini, mazmunini, metodlarini, shakllarini va uni tashkil etishni ishlab chiqdi. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi pedagogika fanlar tizimida uning ajralmas qismi bo‘lib shakllandi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasining nazariyasi va amaliyoti maktabgacha yoshdagи bolalarga har tomonlarna tarbiya berishning maqsadi, bolaning imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha tarbiyani hayot, zamon bilan bog‘lab olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatiga asoslanadi.

Pedagogika fani tarbiyani pedagogik xodisa sifatida o‘rganib, bir qator tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Pedagogikada tarbiya, ta’lim, ma’lumot asosiv tushunchalar hisoblanadi.

Maktabgacha pedagogika fanining vazifasi.

Maktabgacha pedagogika maktabgacha ta’lim-tarbiyaning umuiniy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan. Maktabgacha pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, ularga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi.

Maktabgacha pedagogika tug‘ilgandan to yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarga har tomonlarna tarbiya berish qonuniyatlarini o‘rganadi va maktabgacha ta’lim tashkiloti sharoitida ta’lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, shakl, uslub va vositalar hamda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning har tomonlarna uvg‘un rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni ishlab chiqadi. U maktabgacha ta’lim tashkilotlari, oila va maktab ishidagi izchillikni ta’minlaydi hamda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlaydi¹.

Maktabgacha pedagogika umumiy pedagogikaning alohida sohasi bo‘lib. uning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, uslubologik asosi, tashkiliy shakl, uslub va vositalariga tayanadi. Maktabgacha pedagogikaning nazariyasi va amaliyoti maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga yaxlit tarbiya berishning maqsadi, bolaning yosh imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha ta’limni hayot, amaliyot va zamonaviylik bilan bog‘liqlikda olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga asoslaniladi.

Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihatni uni o‘qitish va tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratganligi bois didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Didaktika (ta’lim nazariyasi, yunoncha didaktikos “o‘rgatuvchi”, didasko – “o‘rganuvchi”) ta’limning nazariy jihatlari, ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari,

¹ Yusupova F. MakTabgacha tarbiya pedagogikasi. -T.: O‘qituvchi, 1993. - 11-b.29

qonuniyatlari, tarbiyachi va tarbiyachi faoliyatları, ta’limning maqsadi, mazmuni, shakl, uslub, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari kabi muammolarni tadqiq etadi. Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, uslub, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.

Maktabgacha pedagogika fanining obyekti - yaxlit maktabgacha pedagogik jarayon.

Maktabgacha pedagogika fanining predmeti - maktabgacha ta’lim tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, uslub va vositalari.

Maktabgacha pedagogikaning vazifalari Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga alohida hissa qo‘sadi. Maktabgacha pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlarna uyg‘un rivojlantirish, ularni mакtab ta’limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e’tibor qaratiladi:

- 1.Har tomonlarna uyg‘un rivojlangan bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o‘rganish.
- 2.Bola shaxsini har tomonlarna kamol toptirish qonunivatlarini aniqlash.
- 3.Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar maktabgacha ta’lim tizimi tajribasini o‘rganish asosida ta’lim tizimini takomillashtirish.
- 4.Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda ularda faoliyat olib borayotgan tarbiyaehilar faoliyati mazmunini asoslash.
- 5.Ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.

6.Tarbiyachilarni maktabgacha ta’lim pedagogikagasiga oid bilimlar hamda ta’lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.

7.Ta’lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo‘nalishlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganishdan iboratdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

- 1.Pedagogika so‘zining ma’nosi va qaysi so‘zdan olingan?
- 2.Maktabgacha pedagogika fanining maqsadi vazifasi nimalardan iborat?
- 3.Maktabgacha pedagogika fani qaysi fanlar bilan bog‘liq?
- 4.Maktabgacha pedagogikaning obyekti va predmeti nimalardan iborat?
- 5.Maktabgacha pedagogika bola tarbiyasida qaysi xususiyatlarini hisobga olib boradi?

2-Mavzu. Maktabgacha ta’limga kirish

Reja:

- 1.O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimi.
- 2.Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror.
- 3.Maktabgacha ta’lim konsepsiysi haqida.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimi.

Bugungi kunda jahonning ilg‘or mamlakatlarida ta’lim tizimini isloh etishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning pirovardida inson paydo bo‘lishidan to umrining oxirigacha davom etadigan tarbiya va o‘qitishni yaxlit ajralmas tizim deb qarashga va uni amaliyotga tatbiq etishga undalmoqda. Bunda yosh ota-onalar, ijtimoiy muhit va bolaning olamini o‘zaro bog‘langan va harakatdagi tizimini yaratish e’tiborga molikdir. Bu tizimni o‘rganadigan fanlar yangi yondashuvlar, tamoyillar, metod va qarashlar bilan yanada boyib bormoqda. Bunday zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar, ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy

yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim dasturlarini o‘zgartirib, yangilab borishni ko‘zda tutadi.

Respublikamiz mакtabgacha ta’lim tizimi sohasida ham ilg‘or xalqaro tajribalarni ommalashtirish, tizimda faoliyat ko‘rsatadigan pedagog xodimlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini taklif qilish, mакtabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablarini bajarish yo‘nalishlarini belgilab berish, mакtabgacha ta’lim dasturlarini takomillashtirishga oid takliflarni ilgari surish, sohaga oid davlat siyosatini amalga oshirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish kabi ustuvor vazifalarni belgilab olishga e’tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta’lim uyg‘un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muaassasadir. Shu bois mamlakatimizda mакtabgacha ta’limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko‘rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo hali sohada echimini kutayotgan qator kamchiliklar bor. Jumladan, joylardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida moddiy-texnik bazaning nochorligi, malakali kadrlar yetishmasligi, sifatli oziq-ovqat ta’mintoning pastligi kabilar bolalarni maktabgacha ta’lim bilan to‘liq qamrab olishni ta’minlashga imkon bermayapti.

Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror.

Aytish kerakki, bu o‘ta muhim va dolzarb vazifalarni tez va sifatli bajarish Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning doimiy e’tiborida bo‘lmoqda. 2017 yil 9 sentabr kuni qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori ushbu fikrimizning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Qarorda maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o‘quv jarayonini takomillashtirish, MTTlar infratuzilmasi va

moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalgga oshirish nazarda tutilgan.

Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rganish va faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etildi. Ushbu komissiya maktabgacha ta'lim sohasidagi qonunchilikni undagi bo'shliqlarni, korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilish, sohada davlat siyosatini amalgga oshirishga, shu jumladan, zarur infratuzilmani yaratishga, xodimlarning mehnatini moddiy rag'batlantirishga, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash va malakasini oshirishga, xususiy sektorni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o'rganish kabi bir qator dolzarb vazifalarni bajarishi nazarda tutilgan.

Ayniqsa, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishga davlat talablarini qayta ko'rib chiqish, bolalarni qabul qilishning amaldagi tartibini, vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi holatini tanqidiy o'rganish ham bevosita komissiya zimmasiga yuklandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlanib, shu asosda aniq chora-tadbirlar belgilangandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, xorij tajribasidan foydalanib, milliy tizimni yanada rivojlantirishga doir amaliy ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodning barkamol va etuk shaxs bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim konsepsiysi haqida.

E'tirof etish joizki, ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim va tarbiyada jadal

o‘zgarishlar yuz bermoqda. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim Konsepsiyasida¹ ular quyidagicha izohlanadi:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining xuquqiy-me’yoriy asosi takomillashmoqda;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining yangi turlariga o‘tmoqda;
- nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘i kengaymoqda;
- ta’limning ilg‘or texnologiyalari joriy etilmoqda;
- xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda;
- qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

Moliya institutlari ishtirokida investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion va tajriba-sinov ishlari sezilarli darajada kuchaymoqda. Biroq ushbu jarayonlarga muvofiqlashtirish, yaxlit tizim sifatida faoliyat ko‘rsatish uchun uning keng qamrovli natijalarining monitoringi asosida samaradorlik darajasini aniqlab borishning optimal mexanizmini ishlab chiqish, tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar ham maktabgacha ta’lim tashkilotlardagi ta’lim jarayoni va uning samaradorligini ta’minlash yo‘nalishidagi maxsus tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etadi. Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi tomonidan maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o‘qitish darjasini hamda sifatini o‘rganishga, sog‘lom va har tomonlarna barkamol avlodni shakllantirishga doir nazorat-tahlil tadbirlari tashkil etildi. Tahlil mamlakatimizda uzluksiz ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini tizimida sog‘lom, har tomonlarna barkamol avlodni shakllantirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilganligini ko‘rsatdi. Hozirgi zamon talablari va standartlarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirishga, ularni qayta qurish va modernizatsiya qilishga, shuningdek, Davlat

byudjetidan moliyalashtirishga tobora ko‘proq ahamiyat berilmoqda. Oxirgi yilarda ajratilgan mablag‘larning hajmi 2 baravar ortgan.

Tahlil natijalariga ko‘ra maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o‘qitish darajasi hamda sifatini o‘rganishga, sog‘lom va har tomonlarna barkamol avlodni shakllantirishga doir nazorat-tahlil tadbirlari ushbu sohada bir qator foydalanilmagan imkoniyatlar va ishga solinmagan zaxiralar mavjudligini ko‘rsatdi.

Maktabgacha ta’lim o‘zining shakl va usullaridan qat’iy nazar quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- bolalarning jismoniy va psixik sog‘ligini mustahkamlash;
- bolalarni milliy, umuminsoniy, qadimiy va madaniy qadriyatlarga jalb etish;
- bolaning aqliy, intellektual salohiyatini rivojlantirish;
- milliy an'analar va udumlar asosida yuksak axloqiy va ma’naviy sifatlarni shakllantirish;
- bolalarni tizimli va maqsadli ravishda maktabda ta’lim olishga tayyorlash, ularning individual xususiyatlari va iqtidorini rivojlantirish.

Yuqorida bayon etilganlar shunga guvohlik beradiki, O‘zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta’lim tizimi bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, davlat va jamiyat talablariga binoan har tomonlarna rivojlantirilishini ta’minlashi lozim.

Maktabgacha yoshning xususiyati shundan iboratki, ushbu davrda aynan umumiyl rivojlanish ta’milanadi, natijada keljakda har qanday ijtimoiy bilim, malaka, ko‘nikma va faoliyatning turli ko‘rinishlarini egallash uchun poydevor yaratiladi.

Ta’lim jarayoni bola shaxsiga yo‘naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagи bolalarning ta’lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta’lim-tarbiyaning usul va uslublari

tizimidan tashkil topgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanib amalga oshirilishi lozim.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

- 1.Mamlakatimizda maktabgacha ta’limni rivojlantirish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
- 2.2017-yil 9-sentabr qanday qaror qabul qilingan?
- 3.Qarorda qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan?
- 4.Maktabgacha ta’lim konsepsiyasida qanday o‘zgarishlar yoritib berilgan?
- 5.Maktabgacha ta’lim o‘zining shakl va usullaridan qat’iy nazar qanday vazifalarni bajarishi lozim?

3-Mavzu.Maktabgacha ta’lim-uzluksiz ta’limning alohida turi sifatida

Reja:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun (2020 y).
- 2.Maktabgacha ta’lim-tarbiya sohasini tartibga solish.
- 3.Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun (2020 y)

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi yagona va uzluksizdir, deyiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuning 2-bobida: Ta’lim tizimi, turlari va shakllari haqida yozilgan.

Ushbu qonunning 6-moddasida ta’lim tizimi quydagilarni o‘z ichiga oladi:

- davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlarini;
- davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarini;
- ta’lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;
- ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

- ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim tizimi yagona va uzlucksizdir.

Qonunning 7-moddasida. Uzlucksiz ta’lim turlari belgilab berilgan

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuning 2-bob 8-moddasida maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimining maqsadi asoslab berilgan.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan belgilanadi.

Ushbu qonun qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma’qullangan. Bu qonun 11-bob 58-moddadan iborat.

1-bob 1-modda.Qonunning maqsadi maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi haqida yozilgan.

2-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

3-modda. Ta’lim olish turlari berilgan:

4-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari

5-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

6-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari

Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasini tartibga solish

2-bob. Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasini tartibga solish

7-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ro‘yobga chiqarilishini amalga oshiruvchi organekanligi

8-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari

9-modda. Davlat inspeksiyasining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari

10-modda. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari

11-modda. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari

12-modda. O‘z tasarrufida maktabgacha ta’lim tashkilotlari bo‘lgan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining vakolatlari

13-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari

14-modda. Fuqarolarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi tadbirlarda ishtirok etishi

3-bob. Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turlari

15-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimi turlari

16-modda. Maktabgacha ta’lim tashkilotining maqomi

17-modda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turlari

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish

- 4-bob. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish
- 18-modda. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish
- 19-modda. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish
- 20-modda. Jismoniy shaxslar tomonidan maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim xizmatlari ko‘rsatish
- 21-modda. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash
- 22-modda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat akkreditatsiyasi
- 23-modda. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etishning majburiyligi
- 24-modda. Maktabgacha ta’lim tashkilotining huquq va majburiyatları
- 25-modda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish
- 26-modda. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’limni rivojlantirish jamg‘armasi
- 27-modda. Maktabgacha ta’limni boshqarishning axborot tizimi
- 5-bob. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish
- 28-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti
- 29-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi
- 30-modda. Ta’lim berish tili
- 31-modda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ish rejimi
- 6-bob. Maktabgacha bo‘lgan yosh davrlari. Bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish va ulardan chiqarish
- 32-modda. Maktabgacha bo‘lgan yosh va uning davrlari
- 33-modda. Bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish va ulardan chiqarish
- 34-modda. Maktabgacha ta’lim tashkiloti guruhlarini to‘ldirish
- 35-modda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni parvarishlaganlik, ovqatlantirganlik va ularga qarab turganlik uchun haq to‘lash

- 7-bob. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, ularning huquq va majburiyatlari
- 36-modda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari
- 37-modda. Maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarning huquqlari
- 38-modda. Bolaning qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari
- 39-modda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquq va majburiyatlari
- 40-modda. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlarining haftalik ish yuklarnasi
- 41-modda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash va dam olishi
- 42-modda. Pedagogning kasbiy standarti
- 43-modda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish
- 44-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirishga doir cheklar
- 8-bob. Maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarni ijtimoiy himoya qilish
- 45-modda. Maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga qarab turish va ularni ta’minlash
- 46-modda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ovqatlanishini tashkil etish
- 47-modda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning sog‘lig‘ini saqlash
- 9-bob. Maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi
- 48-modda. Maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarish
- 49-modda. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik kengashi
- 50-modda. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining kuzatuv kengashi
- 51-modda. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari
- 10-bob. Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta’minoti.
- 52-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta’minoti

vazifalari

11-bob. Yakunlovchi qoidalar

54-modda. Nizolarni hal etish

55-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

56-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash

57-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

58-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1.Uzluksiz ta’lim turlarini ayting?

2.Maktabgacha ta’lim va tarbiya qanday ta’lim turi?

3.”Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun qonunchilik palasasi tomonidan qachon qabul qilindi?

4.Nechchi yoshdan nechchi yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktabgacha ta’lim va tarbiya boshlang‘ich ta’limga majburiy tayyorlashni nazarda tutadi?

5.1-bobning nechinchi moddasida Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari berilgan?

4-Mavzu. Maktabgacha ta’lim Konsepsiysi

Reja:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

2.Maktabgacha ta’lim tizimidagi yangi islohotlar.

3.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Qaror mактабгача та’лим тизимини yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli mактабгача та’limdan teng foydalanishini ta’minlash, mактабгача та’лим xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, qabul qilingan.

Prezident qarori bilan O’zbekiston Respublikasi mактабгача та’лим тизимини 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyada quyidagilar nazarda tutilgan:

- mактабгача та’лим sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- mактабгача yoshdagi bolalarning har tomonlarna intellektual,axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatli mактабгача та’лим bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- mактабгача та’лим тизимiga innovatsiyalarini , ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- mактабгача та’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, mактабгача та’лим muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta’minlash;
- mактабгача та’лим тизимiga mактабгача та’лим тизими xodimlarini taylorlash, qayta taylorlash, malakasini oshirish , tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;
- mактабгача та’lim muassasalarida bolalarning sog‘lom va balanslashtirilgan ovqatlanish, sifatli tibbiy parvarishini ta’minlash.

Mактабгача та’лим тизимидаги yangi islohotlar.

O’tgan davr mobaynida mamlakatimizda o’sib borayotgan yosh avlodni sog‘lom va har tomonlarna yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan mактабгача та’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘larnli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko’rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo’ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini zamonaviy o’quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to’ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalg qilish masalalarini hal etish zarurligini ko’rsatmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimiga maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish zarurligi ta’kidlangan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning sog’lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta’minlash belgilab berilgan.

O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo’yicha «Yo’l xaritasi» (keyingi o’rinlarda — «Yo’l xaritasi»)

- 2019-2024 yillarda O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko’rsatkichlari berilgan;
- 2025-2030 yillarda O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko’rsatkichlari berilgan.

Kontseptsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko’rsatkichlar va tegishli davrga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlardan kelib chiqqan holda har yili tasdiqlanadigan alohida «Yo’l xaritasi» asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Sog’lom va bilimli yosh avlod tarbiyasi-davlatimiz siyosatining ustuvor yo’nalishi sifatida belgilanganligini ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, o’sib kelayotgan yosh avlodning barkamol shaxs bo‘lib yetishishlarini ta’minlovchi qonunchilik bazasining takomillashtirilayotganligida ko’rishimiz mumkin. Sog’lom va bilimli yosh avlod mamlakat boyligi, millat ravnaqini ta’minlaydigan mustahkam poydevordir. Shu bois yosh

avlod kelajagi yo‘lida alohida va doimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Mamlakatimizda yoshlarning sifatli ta’lim olishi va salomatligini mustahkamlash uchun har tomonlarna qulay shart-sharoit yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-269-sonli qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi negizida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashkil etildi.

Vazirlik O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining ta’limga doir konstitutsion huquqlariga rioya etilishini ta’minlovchi, maktabgacha, umumiy o‘rtalik va maktabdan tashqari ta’lim sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javob beradigan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Vazirlikning asosiy vazifalari:

- umumiy o‘rtalik va maktabdan tashqari ta’lim sohasida o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy rivojlanishi darajasini yanada yuksaltirishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- maktabdan tashqari ta’limga bo‘lgan umumiy o‘rtalik ta’lim davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga muvofiq umumta’lim muassasalari faoliyatini metodik boshqarishni amalga oshirish;
- o‘qituvchi kasbining maqomi va obro‘sini ko‘tarish, umumta’lim muassasalari xodimlari, shuningdek, xalq ta’limi tizimi xodimlarining moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash, ularning samarali mehnat faoliyati uchun munosib sharoitlar yaratish;
- o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllarini, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, kasbiy yo‘naltirishning samarali uslublarini, o‘quvchilarining o‘quv, psixologik va jismoniy yuklarnalari optimallashuvini inobatga olgan holda o‘qitish va tarbiyalashni joriy qilish;
- umumta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitishning samaradorligini ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob beradigan, yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda yangilangan o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avodi yaratilishi va nashr etilishini tashkil qilish;
- nodavlat ta'lism xizmatlari sektorini yanada rivojlantirish, xalq ta'limi sohasida davlat-xususiy sheriklik uchun qulay sharoitlar yaratish;
- pedagogik kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni joriy etish;
- "Mehribonlik" uylari faoliyatini takomillashtirish, ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasini va huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, ularning ijtimoiy-mehnat ko'nikmalarini hosil qilishiga va jamiyatga uyg'unlashuviga ko'maklashish;
- jismoniy rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan hamda davolanish va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarga ijtimoiy kafolatlarni ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim va tarbiya (shu jumladan, inklyuziv) olishlariga ko'maklashuvchi mos muhitni yaratish, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) faoliyatini takomillashtirish;
- o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik g'oyalarini yanada chuqr singdirish, milliy mentalitetga yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash;
- umumiyo'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tomonidan davlat ta'lim standartlari va talablarining bajarilishining tizimli monitoringini olib borish;
- umumta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasb-hunar ta'limini ta'minlash bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish;
- xalq ta'limi tizimidagi muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning bino va inshootlaridan foydalanish bo'yicha ishlar monitoringini olib borish va ushbu ishlarni muvofiqlashtirish.

Vazirlik o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga

oshiradi:

- umumiyo'rta va maktabdan tashqari ta'lim sohasida, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy rivojlanishi darajasini yanada yuksaltirish borasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlari va mактабдан ташқари та’лимга qо‘yиладиган давлат та’лим талабларига мувоғиқ умумта’лим муассасалари фаолиятини методик бoshqarish;
- o‘qituvchi kasbi mavqeyi va obro‘sini oshirish, умумта’лим муассасалари xodimlari, shuningdek, xalq ta’limi tizimi xodimlarining moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash, ularning samarali фаолияти uchun munosib sharoitlar yaratish;
- o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllarini, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, kasb-hunarga yo‘naltirishning samarali shakl va uslublarini kiritish hamda o‘quvchilarning o‘quv, psixologik va jismoniy yuklarnalarining maqbullahuvini inobatga olgan holda o‘qitish va tarbiyalashni kiritish;
- умумта’лим муассасаларida chet tillarini o‘rgatishning samaradorligini ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- yangilangan o‘quv rejalari va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan, mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob beradigan, yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda yangi avlod o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlarini tayyorlash va nashr qilinishini tashkil qilish;
- ta’lim xizmatlari nodavlat sektorini rivojlantirish, xalq ta’limi sohasida davlat-xususiy sheriklik uchun qulay sharoitlarni yaratish.
- pedagogik kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish
- “Mehribonlik” uylari фаолиятини takomillashtirish, ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasini va huquqiy himoya qilinishini ta’minlash, ularning ijtimoiy-mehnat ko‘nikmalarini hosil qilishiga va jamiyatga uyg‘unlashuviga ko‘maklashish
- rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan hamda davolanishga va sog‘lomlashtirishga muhtoj bo‘lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta’minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, ularning ta’lim-tarbiya (shu jumladan

inklyuziv) olishlari uchun moslashuv muhitini yaratish, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar (maktab-internatlar) faoliyatini takomillashtirish

- o‘quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma’naviyat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik g‘oyalarini yanada chuqur singdirish, milliy mentalitet uchun g‘oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash
- umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari tomonidan davlat ta’lim standartlari va talablari bajarilishining tizimli monitoringini olib borish
- umumta’lim maktablarining 10-11-sinf o‘quvchilariga kasb-hunarga yo‘naltirish hamda umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlariga va maktabdan tashqari ta’limga qo‘yiladigan davlat ta’lim talablariga muvofiq xalq ta’limi muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda o‘quvchilarga kasb-hunarga yo‘naltirishda metodik rahbarlik qilish
- ta’lim muassasalarida bino va inshootlardan samarali foydalanish ishlarini muvofiqlashtirish va monitoringini olib borish

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

- 1.Maktabgacha ta’lim konsepsiyasida nimalar nazarda tutiladi?
- 2.Vazirlikning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- 3.O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri kim?
- 4.Vazirlikning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
- 5.Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?

5-Mavzu. Maktabgacha ta’lim yoshdagи bolalarning tarbiyasi

Reja:

- 1.Tarbiya jarayonida maktabgacha yoshdagи bola shaxsini shakllantirish.
- 2.Bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning roli
- 3.Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari.

Tarbiya jarayonida maktabgacha yoshdagи bola shaxsini shakllantirish.

Ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga xos xususiyat hisoblanadi. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xil turlari shakllanadi. Ulardan asosiyлари: munosabatda bo'lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo'ladigan faoliyat, o'yin, oddiy mehnat va o'quv faoliyatlaridir. Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagи bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydi, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar. Bolalar hayotining birinchi yildanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrofga ma'lum bir munosabatning shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, kattalarning bolalar bilan bo'ladigan hissiy, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talab vujudga keladi, dastlabki harakat va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi. Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog'liq. Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan bo'ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan harakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni asta-sekin buyumlar olamiga olib kiradilar. Mana shu yo'l bilan bola buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatning o'ziga xos tomonlarini egallab boradi.

Agar ta'lim jarayonida 3-4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar to'g'risidagi aniq faktlarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta'lim berishda asosiy e'tibor muhim bog'liqliklar va munosabatlarga, ulardagi oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratiladi. Bular orqali bolalarda tushunarli tafakkur rivojlantiriladi. Maktab yoshidagi bolalar uchun o'qish asosiy faoliyat bo'lib qoladi va bu faoliyatni bolalar ijtimoiy ahamiyatli faoliyat deb anglay boshlaydilar. Bola o'zini mifik o'quvchisi deb tushuna boshlaydi. Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat yetakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya muassasalarida va oilada bolaning hayotini u turli-tuman faoliyatlar bilan shug'ullana oladigan qilib tashkil etish kerak.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishi uning jismoniy va ma'naviy kuchlari birligida har tomonlarna va yaxlit amalga oshiriladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ma'naviy sifatlar, his-tuyg'ular (burch, vijdon, mas'uliyat, muhabbat) madaniyati aniq tarixiy ijtimoiy sharoitda yaratiladi va shaxsning shakllanishiga ta'sir etadi.

Agar inson ijtimoiy faoliyatning turli xillarida: o'quv, ishlab chiqarish faoliyati va hokazolarda ishtirok etsa, bu faoliyat shaxsni rivojlantiradi, lekin faoliyat odamni u yoki bu ijtimoiy munosabatlardan chegaralab qo'ysa, u yo shaxsning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi yoki uning rivojlanishini buzadi. Shaxsning yetakchi xususiyatlari shaxsga, uning ichki dunyosiga tashqi ta'sir natijasida rivojlanadi. Shaxs ma'naviyati shaxsning o'z ichki ishining yakuni bo'lib, bu jarayonda tashqi ta'sirlar qayta ishlanadi va o'zlashtiriladi. Insonning rivojlanishi miqdor va sifat o'zgarishi, eskining yo'q bo'lishi va yangining vujudga kelishi jarayoni bo'lib, uning manbai va harakatlantiruvchi kuchlari shaxsning ham tabiiy, ham ijtimoiy tomonlarining ziddiyatli o'zaro aloqasida yashiringandir.

Shaxsni shakllantirish tarbiya jarayonida ro'y beradi, inson tarbiyasi xalq baxt-saodati yo'lidagi bunyodkorlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, sotsial-iqtisodiy vazifalarni hal etishda amaliy ishtirokida yuzaga keladi. Shaxsni shakllantirishga uch omil: tarbiya, ijtimoiy muhit va irsiyat ta'sir ko'rsatadi. Shaxsni shakllantirishga ijtimoiy va tabiiy muhit katta ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muhit shaxsni rivojlantirishda ustun ahamiyatga ega: ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy munosabatlar xususiyati kishilar faoliyati va dunyoqarashi xususiyatini belgilab beradi. U shaxsni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tabiiy muhit ham shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning o'rni Bola shaxsining shakllanish jarayoni tarbiya va ta'lim sharoitida insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xilma-xil faoliyat turlarida ro'y beradi. Bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Qiyinchilik shundan iboratki, bola, bir tomonidan, mazmun, hajm va umumlashtirish darajasi jihatidan murakkab bo'lgan insoniy tajribani

o‘zlashtirishi kerak bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u mazkur tajribani o‘zlashtirish usullarini hali egallarnagan bo‘ladi.

Tarbiyaning o‘zgarishi bolaning «eng yaqin rivojlanish zonalari» (L.S. Vigotskiy) bilan bog‘liq bo‘lib, ular ancha murakkab mazmundagi bilimlar, ko‘nikmalar, faoliyat turlari va hokazolarni o‘zlashtirishga ruhiy-fiziologik imkoniyatlar paydo bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Tarbiya va ta’lim eng yaqin rivojlanish zonasiga asoslanib, bugungi rivojlanish darajasidan oldinda boradi va bolaning rivojlanish uni olg‘a harakatlantiradi. Inson shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichdan o‘tadi. Har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bogliq bo‘ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriq bosqichning tuzilishiga uzviy tarzda qo‘shiladi. Ilk yosh bosqichida shakllanadigan rivojlanish odam uchun doimiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli pedagogning ham yetakchilik rolini, uning har bir bola shaxsini shakllantirish uchun mas’uliyatini qaror toptiradi. Taniqli pedagog A.S. Makarenko pedagogning roli va mas’uliyatini ta’kidlab, shunday yozgan edi: «Tarbiyaviy ta’sirning g‘oyat qudratli ta’sir ko‘rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo‘lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo‘lsa, buning uchun u o‘z bolaligida tarbiya topganidan qarzdordir».

Bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning roli

Bolaning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o‘zlashtirishga yordam beradi, buning asosida uning bilish, ko‘rgazmali o‘yin, eng oddiy mehnat va o‘quv kabi xilma-xil faoliyat turlari, shuningdek, muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o‘zlashtirib, faollik ko‘rsatadi, ayni paytda shu faoliyat bilan bog‘liq bilimlar, malaka, ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi. Shu asosda unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllanadi. Bolaning faoliyatdagi faol mavqeyi uni faqat tarbiya obyektiga emas, shu bilan birga tarbiya subyektiga ham aylantiradi. Bu bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning yetakchilik rolini belgilaydi. Bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog‘liq davrlarida faoliyatning turli

xillari yonma-yon bo‘ladi va o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo‘lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo‘ladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzuyi, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi. Ilmiy ma’lumotlarning dalolat berishicha, bola ularni darhol emas, balki asta-sekin va katta yoshdagi odamning rahbarligida egallaydi. Bola faoliyatining xilma-xilligi va boyligi, uni egallahdagagi muvaffaqiyat oiladagi, bolalar bog‘chasidagi tarbiya va ta’lim sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Bolaning dastlabki yoshlardan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Ilk yoshdagi bolaning kattalar bilan (hissiy va hissiy-predmetli) muomalasining eng oddiy turlari unda taassurotlarga bo‘lgan ehtiyojini rivojlantiradi, tasavvurlarini shakllantiradi. Yangi harakat usullarini egallab borgan sayin bolalarning faolligi oshib boradi. Biroq faollik darajasi, uning rivojlanishi irsiy jihatdan shart qilib qo‘yilgan zaminga, taqlid qilishga ham bog‘liq bo‘ladi. Hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan muomala qilishni va buyumlar bilan ish olib borishni o‘z ichiga oladigan yo‘l-yo‘riq, tadqiqot faoliyati bolalar faoliyatining asosiy turlari bo‘ladi.

Bola juda yosh bo‘lsada, ota-onada uning qulayligini, shuningdek jismoniy va hissiy salomatligini ta’minlashdan iborat. Ayni paytda kunlik rejimni kuzatish, to‘g‘ri ovqatlanish, bolaning jismoniy va aqliy qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Ota-onalar tajribali o‘qituvchilar bilan birgalikda bolalarning asosiy hissiyotlarini rivojlantiradigan, atrofdagi dunyoni idrok qilish ustida ishlaydigan, bir-biri bilan muloqot qiladigan, yangi mavzularni o‘rganadigan, umuman olganda, chaqaloqlarning ongingin turli jihatlarini ochib beradigan erta rivojlanish guruhlariga tashrif buyurish foydalidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun turli xil ta’lim usullari mavjud. Ulardan ba’zilari bolaning jismoniy rivojlanishiga asoslangan bo‘lsa, boshqalari axloqiy va axloqiy tomonga alohida e’tibor berishadi. Ammo bolani uyda tarbiyalashda ota-

onalar ikkala usulni birlashtirishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi faol turmush tarzini, sportni, to‘g‘ri ovqatlanishni, kun tartibini o‘z ichiga oladi. Bu sog‘lom odatlarning barchasi bolaga faqat oilada singdirilishi mumkin va faqat ota-onalar to‘g‘ri turmush tarzining eng yaxshi namunasi bo‘lishi mumkin. Keyinchalik, bola maktabga borganida va do‘stlari bilan ko‘proq vaqt o‘tkazganida, tengdoshlarning eng salbiy misollari ham o‘siprin ongini bolalikdan olgan sog‘lom turmush tarziga o‘zgartira olmaydi.

Bu borada tarbiyachilarining asosiy vazifasi kichkintoylarning imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanish sanaladi. Shu o‘rinda aytish kerakki, bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi alohida e’tibor talab qiladi. Tarbiyachi bolalar bilan faoliyat olib borar ekan, ularning ruhan sog‘lom, baquvvat bo‘lishiga ahamiyat qaratsi, mashg‘ulot va o‘yinlarni to‘g‘ri tashkil qilishi juda muhim. Bola faoliyatining tabiatи va mazmuni aqliy rivojlanishning obyektiv, ya’ni xolisona mezonlari hisoblanadi.

Bolalarning tarbiysiga ga to‘g‘ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir.

Shularni inobatga olgan holda Maktbagcha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonuni tasdiqlandi. Ushbu qonun 58ta modda va 11 ta bobdan iborat. Ushbu Qonunning maqsadi maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llanilib keltingan:

alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalar — nogironligi bo‘lganidan yoki bo‘lmasligidan qat’i nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alohida e’tiboriga muhtoj bo‘lgan individual ehtiyojlarga ega bolalar;

davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta’lim va tarbiya xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilot;

inklyuziv ta'lim va tarbiya — bolalarning alohida ta'lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan jarayon;

maktabgacha bo‘lgan yosh — bolalarning tug‘ilgan paytidan yetti yoshgacha, to ularga umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ta’lim berish boshlangan paytga qadar bo‘lgan yoshi;

maktabgacha ta’lim va tarbiya — bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi;

maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standarti — ta’lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish va jihozlashga, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning sog‘lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy talablar majmui;

maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi — bola tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan asosiy bilimlarning, mahorat va ko‘nikmalarining hajmini hamda mazmunini belgilovchi, shuningdek ta’lim va tarbiya mazmunining o‘ziga xosligini, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi hujjat;

maktabgacha ta’lim tashkiloti — maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim va tarbiya xizmatlari ko‘rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti;

nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti — nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim va tarbiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

pedagogning kasbiy standarti — maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko‘nikmalariga doir asosiy talablar majmui;

ta’lim va tarbiyaning muqobil shakli — maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimidagi innovatsion ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish modeli.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;
- har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi;
- maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi;
- maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg'unligi;
- bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv;
- maktabgacha va umumiyoq o'rta ta'limning izchilligi hamda uzlucksizligi;
- ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi;
- ta'lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi;
- maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog'lig'i holatiga muvofiqligi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

- 1.Faollikning qanday turlari ta'lim jarayonida shakllanadi?
- 2.Faollikning rivojlanib borishi nimaga bog'liq?
- 3.Shaxsnинг yetakchi xususiyatlari qanday rivojlanadi?
- 4.Shaxsni shakllantirish qaysi jarayonda ro'y beradi?
- 5.Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qanday ta'lim usullari mavjud?

6-Mavzu. O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari

Reja:

- 1.O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi.
2. Ijtimoiy maktabgacha ta'limning vujudga kelishi
- 3.Turkistonda bolalar bog'chasingning tashkil etilishi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi.

O'lkamizda XIX asrning 80-90 yillariga kelib maktabgacha tarbiya tizimini

vujudga keltirish g‘oyalari etila boshladi.O‘sha davrda yashab ijod etgan ma’rifatparvar mahalliy ziyolilar ayollarning og‘ir ahvoli va bolalar nazoratsizligini e’tiborga olib, bu masalaning yechimini izlay boshlaydi. Jumladan 1872 yilda Turkistonda tuzilgan “Jamiyati xayriya” tarkibiga kirgan ziyolilar vakillari tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, ilk tug‘ruqxonalar bilan bir qatorda, ota-onasi bo‘lmagan bolalar uchun yetimxonalar (dastlabki bolalar uylari) tashkil etildi. Butun Turkiston bo‘yicha 150-200 nafar bolani qamrab olgan ushbu yetimxonalarda ham yasli yoshidagi, ham maktab yoshidagi bolalar tarbiyalangan.

1891 yild “Bog‘dorchilik” jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog‘ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun “Bolalar maydonchasi” ko‘rinishida birinchi bolalar bog‘chasi ochilgan.Bolalar bog‘chasi uchun istirohat bog‘I hududidan sersoya joy ajratib berilgan bo‘lib, bu yerda arg‘imchoqlar, qayiqlar o‘rnatilgan, turli o‘yinchoqlar taylorlangan. Bundan tashqari, maydonchada kattagina gulzor tashkil etilib, bu yerda bolalar o‘simgiklarni parvarish qilish bilan mashg‘ul bo‘lgan. Ammo 1891-1903 yillar mobaynida mablag‘ taqchilligi sababli bog‘cha bir necha marta yopilgan.

1896 yilda Turkistonda vasiylar kengashi kambag‘allarning bolalari uchun “yasli”lar deb ataladigan muassasalarni tuza boshladi.Yasli ishlarini Nazoratchi-uslubchi ayol boshqargan,shuningdek, xizmat qiluvchi xodimlar ham bo‘lgan. Bu muassasalarga bolalarga o‘qish, yozish, sanash bilan bir qatorda, talay hunarlar ham o‘rgatilgan. Biroq, butun o‘lka bo‘ylab shunday yaslillardagi bolalar soni 50-60 nafar boladan oshmagan. Bundan tashqari, mahalliy ziyolilarning sayr-harakati bilan kambag‘allarning bolalari uchun Toshkent, Samarqand, Sirdaryo,Namanganda yetimxonalar (bolalar uylari) tashkil etilgan.

1903 yil fevral oyida Toshkentda “Oilaviy ta’lim-tarbiyaviy to‘garagi” tashkil qilingan.To‘garak nizomida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

- 1)bolalarga ta’lim-tarbiya berish usullarini rivojlantirish va takomillashtirishda oilalar va ota-onalarga yordam berish;
- 2)pedagoglar bilan ota-onalarni va bolalar tarbiyasi ishini boshqaradigan kishilar (oila,

məktəb və bolalar bog'chasi faoliyatining o'zaro mushtarakligini ta'minlash maqsadida) faoliyatini muvofiqlashtirish.

Bu to'garakda maktabgacha ta'lim sektiyasi ham faoliyat ko'rsatgan.Ta'lim-tarbiya to'garagi yuzaga kelgunga qadar bolalar bog'chasining tarbiyaviy ishida muayyan pedagogik tizim mavjud bo'limgani sababli bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan masalalar to'garak a'zolari o'rtasida muhokama qilingan.

Ana shu to'garak doirasidagi tarbiya muassasalarida bolalar birinchi marta 4-6 yoshgacha va 6-10 yoshgacha bo'lgan ikki xil yosh guruxlariga bo'linib, mashg'ulotlar, jumladan, harakatli o'yinlar, xor bo'lib qo'shiq kuylash, o'qish, rasm chizish, loy va plastilindan narsalar yasash, gimnastika mashqlari muayyan jadval asosida olib borilgan. E'tiborli jihat shundaki, mazkur to'garak doirasidagi ayrim bolalar bog'chalarida ota-onalar talabi bilan frantsuz va nemis tillari tekin o'rnatilgan. Ta'lim-tarbiya to'garagi bolalar bog'chasi ta'lim tarbiya saviyasini oshirishga yordam bergen bo'lsada, maxsus tayorgarlikka ega bo'lgan tarbiyachilar bo'limgani sababli tarbiyaviy jarayon ko'pincha betartib amalga oshirilgan.

1909-1910 yillar va undan keying davrlarda o'lkaning ayrim shaharlarida xususiy bog'chalar paydo bo'ldi: bu bog'chalarda 6 yoshdan boshlab asosan gimnaziyaga o'qishga tayyorlanar edi.Bunday bolalar bog'chalari xususiy uylarda ochilgan va to'liq ota-onalar ta'minotida bo'lgan.Ta'lim-tarbiya ishlariga chet tillarni biladigan o'qimishli ayollar jalg etilgan.Ammo mazkur bolalar bog'chalarida asosan badavlat ota-onalarning farzandlari tarbiyalangan.

Ijtimoiy maktabgacha ta'limning vujudga kelishi

Ijtimoiy maktabgacha ta'limning vujudga kelishi asosan 1917-1918 yillardan keying davrlarga to'g'ri keladi.Jumladan,Xalq maorifi komissarligi 1917 yil 20 noyabrdagi deklaratsiyasida mamlakatda davlat tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish, soha xodimlarini tayyorlash vazifasi kun tartibiga qo'yiladi.

1918 yilda Turkiston Xalq maorifi komissarligi qoshida maktabgacha ta'lim bo'limi tashkil etiladi.Uning zimmasiga bolalar bog'chalari uchun joy qidirish va

ularni kerakli jihozlar bilan ta'minlash, tarbiyachilar tanlash va ota-onalar o'rtasida targ'ibot-tashvoqot ishlarini amalga oshirish vazifasi yuklatiladi. Maktabgacha ta'lim xalq maorifi tizimining birinchi bo'g'ini va tarkibiy qismi bo'lib qoldi.

1919 yilda qabul qilingan davlat dasturida xalq maorifikomissarligi qoshida maktabgacha ta'lim bo'limi tashkil etiladi.Uning zimmasiga bolalar bog'chalari uchun joy qidirish va ularni kerakli jihozlar bilan ta'minlash, tarbiyachilar tanlash va ota-onalar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish vazifasi yuklatiladi. Maktabgacha ta'lim xalq maorifi tizimining birinchi bo'g'ini va tarkibiy qismi bo'lib qoldi.

1919 yilda qabul qilingan davlat dasturida xalq maorifi sohasida xotin-qizlarning ijtimoiy ahvolini yaxshilash, maktabgacha t'alim muassasalari tarmog'ini vujudga keltirish zarurligi ta'kidlangan edi.Shu asosda o'lka xalq maorifi idoralari zimmasiga maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini vujudga keltirish, o'quv-uslubiy adabiyotlar va ko'rsatmalar ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash va boshqa muhim vazifalar yuklatildi.

Turkistonda bolalar bog'chasining tashkil etilishi.

Turkistonda dastlabki davlat bolalar bog'chalari 1918 yilning ikkinchi yarmida tashkil etila boshlandi. 1918 yil 20 oktyabrda Turkiston Xalq maorifi komissarligi qoshida maktabgacha ta'lim bo'limi, viloyat xalq maorifi bo'limlarining qoshida maktabgacha ta'lim bo'linmalari tashkil etildi. "Maktabgacha ta'lim bo'limi to'g'risi" dagi nizomda mazkur bo'limlar 3 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan maktabgacha bolalar tarbiya muassasalariga rahbarlik qilishga, ularning faoliyatini nazorat etishga, yangi bolalar bog'chalari,yaslilar, bolalar uylari, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun umumiy yotoqxonalar, yozgi oromgohlarning ochishga, ushbu muassasalar uchun kadrlar tayorlash maqsadli kurslarini tashkil qilishga mas'ul ekani qayd etilgan. Ushbu bo'limlarning uch asosiy yo'nalishda faoliyat yuritishi nazarda tutilgan:

- 1)bolalar bog'chalarini ochish, ularni binolar bilan ta'minlash:
- 2)maktabgacha ta'lim xodimlari, shu jumladan, mahalliy ahvoli vakillaridan kadrlar

tayyorlash;

3)ota-onalar o‘rtasida tashviqot-targ‘ibot va tushuntirish ishlarini olib boorish.

Bu o‘rinda o‘lkada mahalliy aholi bolalarini maktabgacha ta’lim muassasalariga jalg etish uchun kurash juda murakkab va qiyin sharoitda kechganini ta’kidlash joiz. 1918 yilda Toshkentning eski shahar qismida o‘zbek bolalari uchun atigi 4 ta bog‘cha ochilgan, xolos (xususan, birinchi bog‘cha – Shayxontohur dahasida, ikkinchi bog‘cha-Xo‘ja ko‘chasida, uchinchi bog‘cha-Ko‘kcha dahasidagi Langar ko‘chasida, to‘rtinchi bog‘cha-Beshyog‘och dahasida ochilgan). Bunday muassasalar Samarqandda (2ta bolalar bog‘chasi va 3 ta bolalar uyi) va Kattaqo‘rg‘onda ham tashkil etilgan.

1920 yilda Turkiston Respublikasida 71 ta bolalar bog‘chasi, shu jumladan, mahalliy aholi bolalari uchun 16 ta bog‘cha va 12 ta bolalar maydonchalari tashkil etilib, ulardan 4 tasi o‘zbek va boshqa mahalliy millatlar bolalari tarbiyalangan. O‘sha davrda maktabgacha ta’lim muassasalariga jami 6394 bola qamrab olingan. 1921 yilga kelib bolalar bog‘chalari soni 105 taga, shu jumladan, mahalliy aholi bolalari uchun 32 taga yetgan. Bolalar bog‘chalarida tarbiyalanuvchilarining soni qariyb 8000 nafar bolani tashkil etgan, ulardan 2000 dan ziyodigina mahalliy millat farzandlari edi.

1937 yil 3 mayda qabul qilingan “Bolalar bog‘chalari to‘g‘risi”dagi qarorda “Qaramog‘ida bolalar bog‘chalari bo‘lgan xo‘jalik tashkilotlari va muassasalari zimmasiga tegishli ittifoqdosh respublikalarning Sog‘liqni saqlash va Xalq maorifi komissarliklari tomonidan bolalar bog‘chalari sanitariya-gigiyena qoidalari, binolar, jihozlar, qo‘llanmalar, ko‘rgazmali vositalari bilan ta’minalash, bolalarni ovqatlantirish va ularga tibbiy yordam xizmati ko‘rsatish yuzasidan belgilangan me’yorlarga rioya qilish vazifasi yuklansin”, deb ta’kidlangan.

Jumladan, Sog‘liqni saqlash xalq komissarining buyrug‘iga asosan:

-bolalar bog‘chalariga shifokorlarni biriktirish v akamida 100 ta bola tarbiyalanayotgan har bir bolalar bog‘chasiga bitta hamshira bilan ta’minalash, bolalar poliklinika va ambulatoriyalari hamda umumiyl poliklinika va ambulatoriyalarining bolalar bo‘limlari tashkil etib, bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatish;

- bolalar bog‘chalarini birlinchi yordam dori-darmonlar bilan ta’minlash;
- musiqa mashg‘ulotlarini olib boradigan xodimlar oylik maoshi uchun mablag‘ ajratish ko‘zda tutilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda bolalar bog‘chalari va bolalar maydonchalarining tarmog‘i deyarli ikki barobar ko‘paydi. 1944 yil 1 yanvariga kelib, maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarining umumiyligi soni 54 ming nafarni tashkil etdi. Xalq maorifi komissarlari kengashining “Maktabgacha ta’lim muassasalarini yanada rivojlantirish, bolalarni tarbiyalash va ularga tibbiy yordam ko‘rsatishni yaxshilash choralari to‘g‘risida”gi 1959 yil 21 may qarorida quyidagilar nazarda tutilgan: maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning yagona tizimini shakllantirish maqsadida, mahalliy sharoit va imkoniyatlarni e’tiborga olib, maktabgacha ta’lim muassasalarining ikki turi-yasli va bolalar bog‘chasini yagona maktabgacha ta’lim muassasasi sifatida tashkil etish va ularga xalq maorifi komissarligi rahbarlik qilishi belgilab qo‘yilgan;

-bundan buyon barcha turdagisi maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalar turar joylarini yaqinlashtirish maktabgacha ta’lim muassasalarini namunaviy loyixa asosida qurilishi;

-ittifoqdosh respublikalarda maktabgacha ta’lim muassasalarini to‘g‘risida nizom ishlab chiqish;

-pedagogika fanlari va tibbiyot akademiyalari bilan birgalikda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashning yagona dasturini ishlab chiqish;

-tabiyachilar va tibbiy yordam xodimlarini taylorlash;

-bolalarni ovqatlantirish va maktabgacha ta’lim muassasalarini jihozlar bilan t’minlash;

-bolalar bog‘chasiga qatnamaydigan bolalar uchun bolalar istirohat bog‘ va xiyobonlarida, hovlilarda maydonchalar tashkil qilish va ularni jihozlash ishlari tashkil etish

-aholi o‘rtasida ma’ruzalar o‘qish, suhbatlar o‘tkazish, ommaviy-ilmiy adabiyotlarni ko‘p nusxada nashr etish;

-bolalarni tarbiyalash va ularning sog‘lig‘ini saqlash masalalarini yorituvchi badiiy adabiyotlar nashr etish, kinofilmlar yaratish, radio, televideniye eshittirishlarini kehgaytirish kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Albatta, mustabid tuzum davrida ta’lim-tarbiyaning mazmun-mohiyati haqida so‘z borganda, uning dastlab chorizm, keyinchalik sho‘rolar mafkurasiga to‘liq bo‘ysundirilgan, milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimiz poy-mol etilgan, xalqimiz, shu jumladan, farzandlarimiz ongiga yot g‘oyalarni singdirishga harakat qilingan. Lekin prezidentimiz haqli ravishda ta’kidlanganidek: “Nohaqlik va zo‘ravonlik hukmron bolgan shunday zamonlarda ham yurtimizdan millat va xalq qayg‘usi bilan yashagan chinakkam vatanparvar insonlar yetishib chiqdi”. Bu o‘rinda jaded bobolarimizning ma’rifat ila jamiyatimizni taraqqiy ettirish, zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish borasida ezgu sa’y-harakatlarini tilga olish joizdir.Ular ayovsiz qatag‘on etilgan bo‘lsa ham, orzu-intilishlari zoye ketmadı.Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ularning orzu-armonlari ro‘yobga chiqdi.Istiqlol yillarida yurtimizda dunyo jamoatchiligi tomonidan e’tirof etilgan zamonaviy milliy ta’lim tizimi yaratildi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

- 1.Birinchi bolalar bog‘chasi qayerda ochilgan?
- 2.1896-yil Turkistonda vasiylar kengashi kambag‘allarning bolalari uchun ochilgan muassasa nomi qanday?
- 3.1903-yil fevral oyida Toshkentda qanday to‘garak ochilgan?
- 4.To‘garak nizomida qanday vazifalarni bajarish ko‘zda tutilgan?
- 5.Turkistonda dastlabki bolalar bog‘chasi nechinchi yilda tashkil etila boshlangan?

7-Mavzu. Maktabgacha pedagogikaning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari

Reja:

- 1.Pedagogika haqida buyuk allomalarimiz fikrlari.
- 2.Maktabgacha pedagogikaning obyekti, predmeti maqsad va vazifalari.
3. Maktabgacha pedagogikaning maqsad va vazifalari

Pedagogika haqida buyuk allomalarimiz fikrlari

Insonni har tomonlarna barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanining maydonga kelishiga sabab bo‘lgan. Insonni ma’rifatli va ma’naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligidagi amalga oshiriladi. Ota-bobolarimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga alohida e’tibor qaratganlar. Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Az-Zamaxshariy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy singari ulug‘ olim- u adiblar, fozilu-fuzalolar ta’lim-tarbiya borasida ko‘p asarlar bitganlar. Sharq pedagogikasining asoschilari Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari, Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub»i, Kaykovusning «Qobusnoma»si kabi asarlar bunga dalildir. Mazkur ta’limiy asarlarda inson shaxsini ma’naviy kamolga yetkazish yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshirish mumkin, degan g‘oya ilgari surilgan. Haqiqiy bilimga asoslangan ta’limiy uslub shakllanadi, natijada ta’lim- tarbiya olimlar diqqat markazida bo‘ldi. Ko‘pgina mutafakkirlarning fikrlari ham mavjud bo‘lib Farobiy ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida inson takomilida ta’lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya usul va uslublari haqida fikr yuritilgan. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida», «Ilmlarning kelib chiqishi» kabi maorifiy asarlarida olimning tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Abu Rayhon Beruniyning bilimlarni egallash yo‘llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Bolada bilim berishda ularni zeriktirmaslik, uzviylik, izchillik va hokazolarni e’tiborga olish kerakligini uqtiradi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta’kidlaydi. Bu hozirgi zamon pedagogikasida e’tirof etiluvchi irsiyat, muhit va tarbiyadir.

Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishining birinchi mezoni sanalgan bilim egallahsga da’vat etadi. Bilimsiz kishilar johil bo‘ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar,

ular yetuk bo‘lmagan kishilar deydi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni yengildan og‘irga borish orqali bilim berish, olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi, bilim berishda bolaning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olish, o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan olib borish kerakligini uqtiradi.

Pedagogik fikr rivojlanishida rus pedagogi K.D.Ushinskiyning pedagogik, nazariy qarashlari «inson tarbiya predmeti sifatida» degan mukammal asarida bayon qilib berilgan. «Ona tili», «Bolalar dunyosi» kitoblari barchaga yaxshi ma’lum bo‘lib, u ta’limning ko‘rgazmaliligi, ongli va uzviy olib borish masalalarini ishlab chiqdi. Pedagogika fan sifatida rivojlanishida chex pedagogi, olimi Yan Amos Komenskiy (1592-1670)ning hissasi katta bo‘ldi. Uning «Buyuk didaktika» asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi. Undan tashqari «Onalar maktabi» degan maktabgacha ta’lim qo‘llanmasi va bir qancha kitoblari diqqatga sazovordir. Komenskiy o‘zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg‘un bo‘lishi to‘g‘risidagi tushunchani ilgari suradi. Pedagog bolani tarbiyalaganda, bog‘bon daraxtning biologik o‘sish qonuniyatini hisobga olgani kabi, undagi tabiiy bilish xususiyatlarini hisobga olishi shart, deydi. Komenskiy o‘qishga hammaning jalb qilimshini, hamma ta’lim olishi kerakligini uqtiradi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta’lim muassasalarining yangi tarmog‘i shakllanib bormoqda. Misol tariqasida nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari, qisqa muddatli maktabgacha ta’lim muassasalari, bolalarga xoreografiya, tasviriy va musiqa san’ati, kompyuter savodxonligini o‘rgatuvchi guruuhlar soni kundan-kunga ko‘payib bormoqda. Bularning hammasi maktabgacha yoshdagi farzandlarimizni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida tarbiyalash uchun shart- sharoit yaratmoqda.

Maktabgacha pedagogikaning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari.

Maktabgacha pedagogika maktabgacha ta’lim-tarbiyaning umumiyligi qonuniyatlar, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan. Maktabgacha pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga

kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, ularga ta’lim berish muammolarini o’rganadi.

Maktabgacha pedagogika tug‘ilgandan to yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarga har tomonlarna tarbiya berish qonuniyatlarini o‘rganadi va maktabgacha ta’lim tashkiloti sharoitida ta’lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, shakl, uslub va vositalar hamda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning har tomonlarna uvg‘un rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni ishlab chiqadi. U maktabgacha ta’lim tashkilotlari, oila va maktab ishidagi izchillikni ta’minlaydi hamda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlaydi².

Maktabgacha pedagogika umumiy pedagogikaning alohida sohasi bo‘lib. uning umumiy qonuniyatları, tamoyilları, uslubologik asosi, tashkiliy shakl, uslub va vositalariga tayanadi. Maktabgacha pedagogikaning nazariyasi va amaliyoti maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga yaxlit tarbiya berishning maqsadi bolaning yosh imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha ta’limni hayot, amaliyot va zamonaviylik bilan bog‘liqlikda olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga asoslanadi.


Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihatini o‘qitish va tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratganligi bois didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Didaktika (ta’lim nazariyasi, yunoncha didaktikos - “o‘rgatuvchi”, didasko - “o‘rganuvchi”) ta’limning nazariy jihatlari, ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatları, tarbiyachi va tarbiyachi faoliyatları, ta’limning maqsadi, mazmuni, shakl, uslub, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari kabi muammolarni tadqiq etadi. Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, uslub, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.

² Yusupova F. MakTabgacha tarbiya pedagogikasi.-T.: O‘qituvchi, 1993.- 11-b.29


Maktabgacha pedagogika fanining obyekti - yaxlit maktabgacha pedagogik jarayon.

Maktabgacha pedagogika fanining predmeti - maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, uslub va vositalari.

Quyidagi sxemada maktabgacha pedagogikaning predmeti ko'rsatib o'tilgan:



Bola tug'ilgan kundan boshlab, maktabga borguniga qadar bo'lgan davrda har tomonlarna yetuk barkamol etib tarbiyalash qonuniyatlarini o'rganish maktabgacha ta'lim pedagogikasining mavzusidir. U maktabgacha ta'lim muassasalari va oilaning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi birligini, maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab ishidagi aloqadorlikni, bolalarni matabda o'qishga tayyorlashni ta'minlab, ijtimoiy Maktabgacha ta'lim sharoitida tarbiya va ta'lim berish ishlarining vazifalarini, tamoyillarini, mazmunini, metodlarini, shakllarini va uni tashkil etishni ishlab chiqdi.



Maktabgacha pedagogikaning maqsad va vazifalari

Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shami. Maktabgacha pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlarna uyg'un rivojlantirish, ularni mакtab ta'limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

- har tomonlarna uyg'un rivojlangan bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish;
- bola shaxsini har tomonlarna kamol toptirish qonunivatlarini aniqlash;
- Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar maktabgacha ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida ta'lim tizimini takomillashtirish;
- maktabgacha ta'lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar faoliyati mazmunini asoslash.
- ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyatga joriy etish.
- tarbiyachilarni maktabgacha ta'lim pedagogikagasiiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish;
- ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyani tarbiyachi pedagoglar amalga oshiradi. Har bir ota-onada o'z farzandining bilimdon, yuksak mahoratlari, odobli pedagog-tarbiyachi qo'lida ta'lim-tarbiya olishini xohlaydi.

Jamiyat talabi darajasidagi tarbiyachi-pedagoglarni yetishtirish pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi zimmasiga tushadi.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni talablari asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta’lim sog‘lom, har tomonlarna yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta’lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim bola 6-7yoshga etguncha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

- 1.Uzluksiz ta’limning boshlang‘ich bo‘limi qanday talablar asosida tashkil etiladi?
- 2.Maktabgacha pedagogikaning vazifalari nimalardan iborat?
- 3.Yaxlit maktabgacha pedagogik jarayon-bu maktabgacha pedagogikaning qanday darajasi?
- 4.Maktabgacha pedagogika fanining predmeti nimalardan iborat?

8-Mavzu. Maktabgacha pedagogikada ilmiy-tadqiqot metodlari

Reja:

- 1.Ilmiy tadqiqot metodlari.
- 2.Ilmiy tadqiqot metodining mazmuni.
- 3.Ilmiy tadqiqot metodining tavsiflanishi.

Ilmiy tadqiqot metodlari.

Maktabgacha pedagogika-maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning boshlang‘ich shakllarini modellarini o‘rganadigan fan. Maktabgacha pedagogikaning asosiy yo‘nalishi ta’lim va tarbiya jarayonini o‘rganish, ta’lim tarbiya uning maqsad va vazifalari, ta’limning mazmuni, shakllari va usullarini o‘rgatadi.

Ilmiy tadqiqot metodlari (metod-lotincha yo’l degan ma’noni anglatadi) orqali amalga oshiriladi. Ilmiy tadqiqot ishida olimlar pedagogika, maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiya fanining vakillari, maktab o’qituvchilari, bolalar bog’chalari tarbiyachilari va shuningdek, tarbiya berish amaliyoti bilan bevosita

bog'liq bo'lgan kishilar qatnashadilar. Pedagogik voqealarning qonuniyatlarini ochish har xil yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Tadqiqotning empirik darajasida har xil faktik materiallar yig'iladi, ular to'liq yoritib boriladi, shuningdek, voqealar o'rtasidagi ob'ektiv bog'liqliklar aniqdanadi, tadqiq etilayotgan voqealarning har tomonlarna puxta o'rghaniladi.

Har qanday fan o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega bo'lib, bu metodlari orqali o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Hayotda va obyektiv dunyoni bilish nazariyasida nimani o'rgatish va qanday o'rgatish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro bog'liq hisoblanadi.

Maktabgacha pedagogika o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rghanadi. Shu ma'noda maktabgacha pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari deganimizda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish metodlari, uslublari va vositalari majmuini tushunish mumkin.

Maktabgacha pedagogika o'qitish, bilim berish, tarbiyalash jarayonlarini va ularning mohiyatini quyidagicha o'rghanish-bilishni nazarda tutadi:

- ularning umumiy aloqasi, bir-birini taqozo etishi va o'zaro ta'sir jarayonida bolalarni o'qitish va tarbiyalash, fan, madaniyat, ahloq va san`at, ta'lim va tarbiyaning qayerda amalga oshirilishidan qat`iy nazar uzviy aloqada bo'lishi;
- ularning to'xtovsiz harakati, o'zgarishi va taraqqiy etish jarayonida vujudga keladigan o'qitish va tarbiyalash vazifalari, metodlarining o'zgarishi, hamma bolalarni bir xil andozada o'qitish va tarbiyalash mumkin emasligi;
- bolalarning o'sishida ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, aqliy va hulqiy faoliyat, so'z va ish birligi mezonlariga tayanish;
- bolalar kamolotiga ta'sir etuvchi an`ana, urf-odatlar, ular o'rtasidagi tafovutlarni bilish, aniqlash asosida yaxshi bilan yomon, eskilik bilan yangilik, o'rtasida yuz beradigan nizolarni hisobga olish, o'zaro tanqid va hokazo;

Maktabgacha pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to‘g‘ri tanlansa ta’lim-tarbiya mazmunni yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, maktabgacha pedagogika fani ham boyib boradi.

Hozirgacha mavjud va ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy tadqiqot metodlari bu:

- 1) kuzatish metodi;
- 2) suhbat metodi;
- 3) bolalar ijodini o‘rganish metodi;
- 4) test, so‘rovnomalalar metodi;
- 5) hujjatlarini tahlil qilish metodi;
- 6) eksperiment-tajriba sinov metodi;
- 7) statistika ma’lumotlarini tahlil qilish metodi;
- 8) matematika-kibernetika metodi;

Kuzatish metodi

Maktabgacha pedagogikaning kuzatish metodi ta’lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig‘ish imkonini tug‘diradi. Bu metodni qo‘llanish jarayoni ancha murakkab bo‘lib, nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o‘zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo‘llaniladi.

Tajribalarning ko‘rsatishicha, maqsad asosidagi kuzatuv ma’lum reja asosida yig‘ilgan dalillarni haqiqiy tahlil qilish, qiyoslash asosida tashkil etilsagina samarali bo‘ladi.

Kuzatishlar faqat oddiy hodisalarini kuzatish, ayrim dalillarni yig‘ish, hisobga olish, aniqlash uchungina emas, balki ta’lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va mukammallashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Odatda pedagogik kuzatish orqali bolalarning bilim olishlari, o‘zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o‘zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta’limiy-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini belgilash uchun qo‘llaniladi.

Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat bolalarning tabiiy faoliyatini, balki ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllanishi, fikrlash jarayoni kuchi, xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlil etadi va tegishli xulosalar chiqarishga imkoniyat tug‘diradi. Bunday kuzatishlar maktabgacha pedagogika fani mazmuninining boyishiga sabab bo‘ladi.

Suhbat metodi

Ta’lim-tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to‘g‘ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat metodidan foydalilanadi. Odatda, suhbat metodi tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar jamoasi bilan, ota-onas va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo‘llaniladi. Bunda suhbat metodini tadbiq etishdan oldin maqsadli reja tuziladi, amalga oshirish yo‘llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosa chiqariladi. Shuningdek, tadqiqotchining suhbat olib borish va uni kerakli tomonga yo‘naltira olishni bilishi, suhbatdoshining ruhiy holatiga qarab suhbat ohangini moslashtira bilishi g‘oyat muhimdir.

Bunda:

- suhbat uchun oldindan savol tuzish;
- vaqt va o‘tkazish joyini belgilash;
- suhbat ishtirokchilarining soni va kasblaridan xabardor bo‘lishi;
- suhbat uchun qulay sharoit va erkin gaplashish imkonini yaratish;
- mahmadona va bachkana bo‘lmaslik;
- suhbatdoshning kimligini, xarakter xususiyatini esdan chiqarmaslik;
- suhbat natijalarini zudlik bilan tahlil qilish, qiyoslash, tegishli xulosa chiqarish, lozim bo‘lsa qo‘shimchalar kiritish va maktab hayotiga tadbiq etish pedagogik jihatdan qimmatlidir.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi

Maktabgacha pedagogik tadqiqot metodlari ichida bolalar ijodini tabiiy holatda o‘rganish va ilmiy xulosalar chiqarish metodi mavjud. Bunda tarbiyalanuvchilarning o‘ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir ma’lumotlar tahlil qilinadi, xulosalar chiqariladi. Maqsad bolalarning tipik obrazlari va ularda ijobiy xislatlarni shakllantirishdir. Shu sababli bolalarning turli faoliatlarda bajarilgan ishlari, rivojlanish xaritalari, she`r va hikoyalari, o‘yinlari, bolalar ijodini o‘rganish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Oqibatda, tarbiyalanuvchilar orasidan yetishib chiqayotgan qobiliyatli, iste`dodli bolalarni ertaroq aniqlash, ularning iste`dodlarining namoyon bo‘lishi uchun reja va sharoitlar yaratish imkonini yaratiladi. Odatda, bolalar ijodini o‘rganish manbai ko‘p bo‘lib, ular: turli xil musobaqalar, treninglar, yosh guruxlari bo‘yicha musobaqalar, ekskursiyalar va sayllar va hokazo.

Test, so‘rovnoma metodi

Maktabgacha pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari ichida yetakchi metod so‘rovnoma va test savollardan foydalanishdir. So‘rovnoma-anketa (fransuzcha “tekshirish” ma’nosini bildiradi) metodi qo‘llanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangilagini bilish, aniqlash, tarbiyalanuvchilarni yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, keljak orzu-istikclarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o‘tkaziladi. O‘zbekiston, ta’bir joiz bo‘lsa Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib test metodini matab, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga tadbiq etdi. Test sinovlaridan ko‘zlangan maqsad oz vaqt ichida bolalarning bilimlarini yoppasiga aniqlash, baholashdir. Bunda test savollarini qanchalik aniqlik va aql bilan, fikrlash jarayoniga zarar tegmaydigan qilib tuzish ahamiyatli ekanligini nazarda tutish lozim. Test savollarining o‘rni va ularni mazmunan rang-barang qilib tuzilishi, bolalarning mustaqil fikrlarini o‘stiradi, keljakni real baholash imkonini beradi.

Hujjatlarni tahlil qilish metodi

Respublikamiz rahbariyatining Vazirlik yuzasidan qabul qilingan qaror va yo‘l-yo‘riqlari asosida MTTda bajarilgan va bajarilayotgan ta’lim-tarbiya ishlарini yuritilgan hujjatlar orqali aniqlash metodi ham mavjuddir. MTT hujjatlarini tekshirish orqali tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar jamoasi, ularning pedagogik faoliyatini haqida aniq ma’lumotlar olinadi.

Umuman, MTT hujjatlari deyilganda; tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarining soni va sifati; tarbiyalanuvchilarining shaxsiy hujjatlari, tabellari, davomat daftarlari, kundalik daftarlari, buyruq daftarlari, pedagoglar kengashining qarorlari daftari, MTTning rejadagi pul hisobi va uning sarflanishiga doir hujjatlar, turli inventarlar daftari va boshqalar tushuniladi. Ularni tahlil qilish, hisobotlarni ko‘zdan kechirish, to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash, bolalarning faolliklarining o‘sishi bilan taqqoslash, ilg‘or pedagogik tajribalarning umumlashtirilishi va joriy etilishi va nihoyat, bola-tarbiyachilarining ilmiy-pedagogik faoliyatlarini tekshirish, tegishli chora, tadbirlar belgilash maqsadida o‘tkaziladi.

Eksperiment-tajriba sinov metodi

“Eksperiment” so‘zi lotincha “sinab ko‘rish”, “tajriba qilib ko‘rish” ma’nosini anglatadi. Odatta eksperimental-tajriba ishlari ta’lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqi jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Bunda ham ilmiy farazlarning didaktik yoki amaliy ahamiyatiga e`tibor beriladi.

O‘tkaziladigan tajriba ishlari ta’lim va tarbiya o‘rtasidagi qonuniy aloqalarni aniqlash, natijalarini hisobga olish asosida yangi metodlarni tadbiq etishga, ta’lim-tarbiya samarasini oshirishga qaratiladi. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonining borishini, tuzilishi va natijalarini oldindan ko‘ra bilish imkoniyatini beradi.

Eksperiment metodi sharoitga qarab 3 xilda o‘tkaziladi:

- 1) tabiiy eksperiment;
- 2) laboratoriya eksperimenti;

3) amaliy tajriba.

Pedagogik eksperiment o‘z mazmuniga ko‘ra didaktik, tarbiyaviy muammolari yuzasidan o‘tkaziladi.

Pedagogik eksperiment tajriba ishlarini o‘tkazishda quyidagi talablar mavjud:

- ishning aniq, ilmiy jihatdan asoslangan farazini aniqlash va kutilishi lozim bo‘lgan natija uchun reja belgilash lozim.
- ilmiy ish yoki pedagogik faoliyat uchun aniq ob`ekt belgilash, amalga oshirish borasida qo‘sishimcha metodlarni aniqlash.
- tajriba ishi o‘tkazish vaqtini va muddatini belgilash.
- tajriba uchun lozim bo‘lgan asbob-uskuna va boshqa hokazolarning tayyor turishi;
- eksperiment natijalarini zudlik bilan tahlil qilish va tegishli xulosa chiqarish va tavsiyalar berish kerak.

Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish metodi

Maktabgacha pedagogik tadqiqot statistika ma’lumotlarisiz, ularning tahlilisiz o‘zligini namoyon eta olmaydi. Chunki nafaqat ilmiy izlanishlar borasidagi, balki Maktabgacha ta’lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag‘larning oshirilishi, maktabgacha ta’lim sohasida darslik va o‘quv qo‘llanmalarning chop etilishi, xo‘jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag‘larni statistika metodi orqali aniqlanadi.

Respublikamizning deyarli barcha ta’lim-tarbiya muassasalari statistika ma’lumotlari bilan qurollangan, keljak rivojlanish rejalariga ega. Respublikamizning mustaqil bo‘lguniga qadar statistika sohasidagi chalkashliklar, atayin ortirib, qo‘sib yozishlar maktabgacha ta’lim tizimida ham mavjud edi. Ularning nazorati bo‘shligi va ob`ektiv emasligi maktabgacha ta’lim sohasidagi chuqur islohot o‘tkazilishiga olib keldi. Demak, statistik ma’lumot aniq, hayotiy bo‘lsa bajarilayotgan ta’lim-tarbiya yoki ilmiy tadqiqotning qimmati yuqori bo‘ladi.

Nazorat savollari.

1.Abu Rayhon Beruniyning bolaga bilim berish haqida qanday fikrlarni aytgan?

- 2.Ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoniga nimani qo‘ydi?
- 3.Didaktika so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
- 4.Maktabgacha pedagogikaning obyekti nima?
- 5.Maktabgacha pedagogikaning vazifalarini aytинг?
- 6.Ilmiy tadqiqot metodini tasniflab bering.

9-Mavzu. Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalari.

Reja:

- 1.Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalari.
- 2.Ta’lim mazmunining komponentlari.
- 3.Tarbiyaning maqsad va vazifalari.

Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalari.

Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalari: ta’lim, bilim (bilim, bilim olish), ko‘nikma, malaka, ma’lumot, tarbiya, rivojlanish va shakllanishdir. Kategoriya - fanning mohiyatini ifoda etuvchi eng muhim asosiy tushunchadir. Ta’lim - bu ta’lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko‘nikma hamda malakalarini shakllantirish jarayoni bo‘lib, bu bolaning shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi.

Ta’limning asosiy vazifasi ta’lim oluvchini o‘qitishdan iborat. Shuningdek, u oila, ishlab chiqarish va ma’lumot berish vazifasini bajaradi.

Ta’lim berish ta’lim beruvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyat bo‘lib, u shaxsning aqliy faoliyatini rivojlantirish, o‘qish - o‘qitish jarayonini mazmun mohiyatining ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi.

Ta’lim o‘qitish jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zida ifoda etadi.

Bilim bu ijtimoiy tarixiy ong, insoniyat hayoti davomi da to‘plangan, amalda sinovdan o‘tgan va obyektiv dunyoni chuquroq anglashga, hamda o‘zgartirishga yo‘naltirilgan tabiat, jamiyat, tafakkur va faoliyat usullari qonuniyatları haqidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit va tizimlashtirilgan majmuidir. Bilim o‘z navbatida

kundalik, ilmiy, emperik, nazariy bilimlarga bo‘linadi.

Kundalik bilim bu sog‘lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga aoslanadi. Insonning atrof-muhitga moslashuvi, uning hayotiy harakatlari va oldindan ko‘ra bilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning vazifasi ta’lim tarbiya jarayonini nazorat qilishga ko‘maklashishdir. Ta’lim tarbiyani uyshtirishda nazariy, emperik va ilmiy bilimlar muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy bilim ta’lim tarbiyani takomillashtirish muammolarini, yechimlarini topishda qo‘l kelib, tizimni asosli va narsa hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bilimdir. U emperik va nazariy darajada bo‘ladi.

Nazariy bilim - emperik holatlarni tushuntirish, ya’ni narsa hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishni nazarda tutadi.

Emperik bilim - bilishni kuzatish, o‘lchash, tajriba usullarini qo‘llash natijasi. U narsa hodisalarning sifat va ko‘nikma ko‘rsatkichlarini ifodalaydi. Emperik ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘liqliklarning muntazam shakllanishi emperik qonunlar yordamida ifodalanadi, ular ko‘pincha ehtimoliy xarakterga ega bo‘ladi.

Bilim bilimni amalga oshiruvchi asosiy omil bo‘lib, dunyoni bilishning negizini tashkil etadi va u tufayli ilm, fan, texnika - texnologiyalar rivojlanishi ta’milanadi. Bilimga qo‘yiladigan talablar:

- Bilimning tushunarligi;
- Bilimni tushunishlik;
- Bilimning mukammalligi;
- Bilimning chuqurligi;
- Bilimning operativligi;
- Bilimning ixchamligi;
- Bilimning aniqligi va umumiyligi;
- Bilimning tizimiyligi.

Bilim olish idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va egallangan tajriba asosida xulq va faoliyatda yangi shakllarning yuzaga kelishi, mavjud bilimlarning o‘zgarib, takomillashib, boyib borish jarayonidir.

Ta’lim mazmunining komponentlari.

Ta’lim mazmunining navbatdagi komponenti ko‘nikma va malakadir.

Ko‘nikma bilim kabi harakatda, kishi biror natijaga erishish uchun har xil faoliyat turida izchii bajariladigan uslublar tizimidir.

U ongni faoliyat (harakatjni tez, ta’limni to‘g‘ri, ham jismoniy va aqliy kuch sarflagan holda bajarish jarayoni natijasidir. U shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Harakat turlari bo‘yicha u uch turga:

- Harakat ko‘nikmalari
- Sensor ko‘nikmalar
- Aqliy ko‘nikmalarga bo‘linadi.

Ko‘nikmalar muntazam mashq qilish (takrorlash) orqali zarur darajada saqlanadi. Ana shu bilan lining ta’lim-tarbiyadagi ahamiyati beqiyosligini ko‘rsatadi.

Ko‘nikma insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyatidir. Ko‘nikma - bu shunday aqliy va jismoniy harakatlar, usullar va yo‘l-yo‘riqlardan iborat bo‘lib, ular yordamida rejalashtirilgan maqsadga erishiladi yoki muayyan bir faoliyat amalga oshiriladi.

Ko‘nikma u yoki bu ishni bajarishning avtomatlashgan usuli bo‘lib, ongli ishning bajarilishini nazorat qilishdan ozod qiladi va uni ishda qo‘yilgan maqsadga qaratadi.

Inson faoliyatida ko‘nikmalar malaka tarzida ham namoyon bo‘ladi. Har qanday malaka ko‘nikma bo‘la oladi, lekin har qanday ko‘nikma malaka bo‘la olmaydi. Ko‘nikmalar avtomatlashgan mohiyat kasb etsagina malaka bo‘ladi.

Ko‘nikmani inson faoliyati turlariga ko‘ra quyidagi:

- Mehnat ko‘nikmalari;
- Bilishga oid ko‘nikmalar;
- Aqliy faoliyatga oid ko‘nikmalar;
- O‘quv faoliyatiga oid ko‘nikmalar;
- Nutqiy faoliyat ko‘nikmalari;
- Badiiy faoliyatga oid ko‘nikmalar.

Insonning jamiyatda muomala va o‘zini tutish ko‘nikmalarda o‘z aksini topadi, ko‘nikmalar bilimlar asosida tarkib topadi va o‘z ichiga avval orttirilgan malakalarni oladi.

Bu mashq qilish yo‘li bilan shakllantirilgan puxta harakatlar bo‘lib, ko‘nikma va murakkab harakatlar tarkibiga kiradi.

Ta’limning tarkibiy qismi sifatida shakllantirilgan malaka- lar o‘z mazmuniga ko‘ra murakkabdir. Bular jamiyatning hara- kat madaniyatini aks etgan harakat malakalari (yurish, yugurish, sakrash, mehnat va xat yozish malakalari, aqliy faoliyatiga oid malakalar (hisob, o‘qish, tashkil qilish va boshqaruv), xulq va muomala malakalari (jamiyatda o‘zini tutish, muomala madaniyati), nutqiy malakalar (gap tuzish, nutqning muayyan ohangi, sur’ati, artikulyatsiya sofligini saqlash)dir.

Ko‘nikma va malakalar maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonida shakllanadi. Ta’lim mazmunidagi asosiy jihat zarur bilim va ko‘nikmalarni mustaqil egallash, egallangan bilimlar hamda avval hosil qilingan ko‘nikma va malakalar asosida vujudga keladigan amaliy va nazariy masalalarni hal etish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

Ma’lumot ta’lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarashlar majmuidir. Turli manbalardan ma’lumotlar yig‘iladi va ular o‘z maqsad vazifalari bo‘yicha saralanadi (tizimlarga ajiratiladi) hamda ular tashkil etilib, foydalanishga tavsiya etiladi. Ma’lumot berishda nafaqat o‘qitish, balki o‘ziga mustaqil bilim olish, ommaviy axborotlar ta’sirida bo‘lishi bilan birga insonning ilmiy tizimini egallashi, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Ma’lumot kishi sezgi a’zolari, asboblar va boshqalar yordamida qayd etiladigan, tashqi olarndan olingan belgilar to‘plarnidir.

Ma’lumot maqsadi voqeа va hodisalarning ifodaianishini o‘rganish. Ma’lumotning vazifalari manba to‘g‘risida tavsifnomा olish, manba to‘g‘risida axborot tayyorlashga asosnama hosil qilish, manba to‘g‘risida tasavvur paydo qilish va ularni keyingi faoliyatga uzatish.

Tarbiyaning maqsad va vazifalari.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi. Eng oddiy harakatdan torti to keng ko'lamli davlat dasturi asosida tashkil etiluvchi tarbiya doimo muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi.

Maqsadsiz, ma'lum g'oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo'lmaydi. Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muammosi pedagogikaning dolzARB masalalaridan biri sanaladi. Tarbiya maqsadi umumiylar individual xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ilg'or pedagogika umumiylar individual maqsadlar birligi va uyg'unligini namoyon etadi. Maqsad tarbiyaning umumiylar ijtimoiy maqsadni ijobiy hal etishga yo'naltiriladi hada aniq vazifalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, tarbiya maqsadi tarbiya jarayonini tashkil etish asosida hal etiladigan vazifalar tizimidir. Tarbiya maqsadlari mohiyati va ko'lamiga ko'ra umumiylar aniq vazifalar sifatida guruhlanadi.

Tarbiya maqsadi qanday shakllanadi? Uning shakllanishida ko'plab obyektiv sabablar yetakchi rol o'ynaydi. Organizmning fiziologik yetilish qonuniyatları, insonning ruhiy rivojlanishi, falsafiy va pedagogik fikrlar yutug'i, ijtimoiy madaniyat darajasi maqsadga umumiylar yo'nalish beradi. Biroq asosiy omil doimo davlat mafkura va siyosati bo'lib qolaveradi. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlilarini tanlab, saralab olib, ularni ilmiy, madaniy-ma'naviy jihatdan kamolotga erishishlari, zamonaqiy fan-texnika asoslarini puxta o'zlashtirib olishlari uchun g'amxo'rlik qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining istiqboli nazarda tutilib, ko'pgina

yoshlarning Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AQSh, Germaniya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborilayotganliklari fikrimizning yorqin dalilidir. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» qonunini hayotga joriy etish, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash hamda umumiy tibbiyot muammolarini zamon talablari darajasida olib borish, maktablarni milliylashtirish, o‘rta maxsus hamda oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlarini test usulida o‘tkazish borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar o‘z samarasini bermoqda. Jamiyat ma’naviyati va shaxs kamolotida muhim o‘rin tutuvchi ma’naviy va axlohiy poklik,iymon,insof,diyonat,or-nomus,mehr

oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o‘z-o‘zidan shakllanmaydi.

Barchasining asosida yosh avlodga oila, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasbhunar hamda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi va samarasi yotadi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo‘lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – aqliy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy hamda jinsiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo‘llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

Tarbiya ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o‘qituvchining o‘quvchi bilan, tarbiyachining tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o‘zaro ommaviy va nazariy muloqotdir. Tarbiya keng ma’noda u yoki bu sifatlarning yoki ijtimoiy guruhlarning maqsadiga muvofiq odamlarning yangi avlodlariga, avval avlodlarning ijtimoiy-tarixiy tajribasini uzatish vositasi bilan jamiyatning rivojlanishini ta’minlovchi vazifadir.

Tarbiya maqsadi: talaba yoshlarda milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlarini qo‘llash.

Tarbiya vazifasi: ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutilgan holda tarbiyalovchi bilan tarbiyalanuvchi aniq bir

maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi, tarbiyaning qanday metoddan foydaianishga bog‘liqligidir.

Tarbiya jarayoni shaxsni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti-harakatini asta-sekin ko‘nikmaga aylantirib borishdagi asosiy jarayondir.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

- 1.Kategoriya nima?
- 2.Kundalik bilimning vazifasi nimalardan iborat?
- 3.Ko‘nikma inson faoliyati turlariga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
- 4.Har qanday malaka ko‘nikma bo‘la oladi, lekin har qanday... fikrni davom ettiring.
- 5.Tarbiyaning vazifasi nimalardan iborat?
6. Tarbiyaning maqsadi nimalardan iborat?

10-Mavzu. Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Reja:

- 1.Maktabgacha pedagogika fan sifatida.
- 2.Maktabgacha pedagogikani fan sifatida rivojlantirish manbalari.
- 3.Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, pedagogika fanlari tizimidagi o‘rni.

Maktabgacha pedagogika fan sifatida

Yosh avlod tarbiysi umumxalq ishi hisoblanadi. Respublikamizda bevosita ta’lim-tarbiya ishi bilan shugullanishga da’vat etilgan muassasalar (maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablar, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, hunar-texnika bilim yurtlari, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari va shu kabilar)dan tashqari, turli kasb egalari ham bu muhim ishda qatnashadilar. Shunday ekan, inson tarbiysi, uning qonuniyatlari haqidagi fan pedagogikani o‘rganish unga aloqador bo‘lgan kishilarning muhim vazifasidir.

Kishilik jamiyati paydo bo‘lishi bilan odamlarda mehnat faoliyati jarayonida ishlab chiqarish tajribalari, mehnat qilish malakalari va mehnat quollarini ishlata

bilish ko‘nikmalarini hosil bo‘ldi, bu qurollarni takomillashtirish natijasida nutq, va tafakkur o‘sib, kamol topa bordi. Keksa avlod mehnat qilish jarayonida orttirgan tajribasi asosida yosh avlodni ham mehnat qilishga o‘rgatdi, uni mehnat jarayonida tarbiyaladi. Shunday qilib, kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi bilan tarbiya ham vujudga keldi, u bilan birga taraqqiy etdi, jamiyatning o‘zgarishi bilan u ham o‘zgarib bordi. Tarbnyaning ijtimoiy vazifasi kishilarining bilim, malaka, ko‘nikmalarida aks etgan mehnat, bilim tajribalarini avloddan-avlodga yetkazishdir. Tarbiyani amalga oshirish jarayonini anglash va bu sohadagi tajribalarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning tug‘ilishi pedagogika fanini yuzaga keltirdi, sinflarning paydo bo‘lishi bilan tarbiya jamiyat vazifasiga aylandi, davlat tomonidan ma’lum maqsadga yo‘naltirib, nazorat qilib borildi. Buyuk olimlar ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini materialistik asosda tahlil qilib, tarbiya bilan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi o‘rtasidagi qonuniy aloqani ta’riflab berdilar. Insonlarning turmush sharoiti, ijtimoiy munosabatlari o‘zgarishi bilan ularning tasavvurlari, qarashlari va tushrnchalarini isbotlab berildi.

Yosh avlodni tarbiyalash talabi pedagogikani keltirib chiqardi. Pedagogikaning maxsus fan sifatida ajralib chiqishi bolalarni tarbiyalash sohasida to‘plangan tajribani idrok etish, undan muayyan qonuniyatlarini keltirib chiqarish, eng yaxshi tashkiliy shakllarni topish, shuningdek yosh avlodni tarbiyalash yuzasidan qoida va qo‘llanmalar yaratish zarurati paydo bo‘ldi. Tarbiya tajribasini umumlashtirish hatto ibridoiy jamiyatda ham ro‘y bergen, o‘sha paytdayoq avvalo marosim va urf-odatlar bilan bog‘liq muayyan, xulq-atvor shakllari, kattalar bilan kichiqlar o‘rtasidagi uzaro munosabatlar tarkib topa boshlagan edi.

Pedagogika ilmiy fan sifatida quldorlik jamiyatida shakllana boshladi.

Tarbiya sohasida to‘plangan tajribani umumlashtirishni aks ettiruvchi bu bilim va ko‘nikmalar nimalardan iborat bo‘lishi kerak edi? Tarbiyachi inson shaxsini shakllantirish, uni hayotga taylorlash sohasidagi ishida qanday yo‘l tutishi lozim edi? Yosh avlodga bir maqsadni ko‘zlab tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish uchun qanday

muassasalar kerak?- degan savollarga pedagogika fani javob berishi lozim edi.

Nazariy pedagogik fikr manbalarini falsafa ilmidan qidirish kerak. Falsafa qadim zamonlardanoq hayotni idrok etish, insonning yashadan maqsadi, uning jamiyatdagi roli va o‘rnii haqidagi, uning hayotdagi o‘z vazifasini bajarishga tayorgarligi haqidagi savollarga javob qidiruvchi fan sifatida ma’lum edi.

Quldorlik davrida Suqrot, Aflatun, Aristotel Demokrit muntazam falsafiy sistemani yaratdilar, ularning sistemalarida tarbiyaga muhim o‘rin ajratilgan, uni takomillashtirish haqida takliflar olg‘a surilgan edi.

Pedagogik fikr tarixiga buyuk chek pedagogi Yan Amos Komenskiy, fransuz ma’rifatchisi Jan-Jak-Russo, shveysariyalik pedagog Iogani Genrix Pestalotsi va bohsqalar yorqin sahifalar yozishgan.

Pedagogik fikrni rivojlantirishda ulug‘ rus pedagogi K.L.Ushinskiy kata rol o‘ynaydi. Uning nazariy qarashlari “Inson tarbiya predmeti sifatida” degan mukammal asarida bayon qilib berilgan. Bu qarashlar pedagog yaratgan bir qator o‘quv kitoblarida metodik jihatdan gavdalandi. Bular orasida “Ona tili”, “Bolalar dunyosi” kitoblari hammaga yaxshi ma’lum bo‘lib, bolalarning bir necha avlodи shu kitoblar vositasida ta’lim olgan.

Ulkan pedagog bolalarda vatanparvarlik, xalqchillikning eng yaxshi ifodasi sifatida ona tiliga muhabbat tuyg‘ularining tarbiyalashga, axloqiy fazilatlarni shakllantirishga, mehnatga hurmat ruhida tarbiyalashga muhim ahamiyat bergen.

Atoqli rus adibi L.N.Tolstoy pedagogik-nazariy hamda amaliy ta’lim va tarbiya berish, uni tashkil etish masalalari bilan ko‘p shug‘ullandi. U dehqonlarning bolalari uchun maktablar ochdi. “Yangi alifbo” va “Arifmetika” darsliklarini yozgan. Adib bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ular shaxsini hurmat qilishga da’vat etdi.

XX asr avvalo ko‘pchilik xalq ommasini savodxon qilish va ayni paytda yangilanayotgan zamonning munosib farzandlarini tarbiyalash masalasini kun tartibiga qo‘ydi.

Turkistonda qisqa muddatda o‘zbek ma’rifatchilarining butun bir avlod yetishib chiqdi. Faoliyati o‘tgan asrning so‘ngi yillaridan boshlanib, inqilobdan keying 20-yillariga kelib ulangan bu avlod xalqimizning umuniy ma’rifatdagina emas, ijtimoiy-siyosiy tarbiyasida ham, ma’naviy kamolotida ham buyuk xizmat ko‘rsatdilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ishoqxon Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, Saidrasul Aziziy, Muhammadsharif So‘fizoda, Abdulqodir Shakuriy, Abdulla Avloniy, Sadreddin Ayniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabilar shular jumlasidandir. Ular tomonidan ko‘p darslik va dasturlar ishlab chiqildi.

Asrimizning birinchi choragida Turkistonning eng o‘qimishli, mashhur kishilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiydir.

Behbudiyning Turkiston maktab-maorifchiligidagi xizmatlari g‘oyat katta. U maktablar uchun juda ko‘plab darslik va qo‘llanmalarni yaratdi. «Umumiyo‘g‘rofiya», «Islomning qisqacha tarixi», «Amaliyoti islom», «Rossiyaning qisqscha jo‘g‘rofiyasi», «Kitobatul aftol» kabi darsliklari shular jumlasidandir.

O‘z faoliyatini ma’rifatchi sifatida boshlagan Abdulla Avloniy mакtab ishini yaxshilashda kata fidoiylik ko‘rsatdi. Adibning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab guliston», «Maktab jo‘g‘rofiyasi», «Hisob masalalari» kabi qator darsliklari bosilib chiqdi. Uning «Turkiy guliston yoxud axloq» kitobi eng mukammal asarlardan biri sifatida shuxrat qozondi.

Muallif o‘z kitoblarida oddiydan murakkabga boorish prinsipiga qatiy amal qiladi. Darslikda keltirilgan hikoyalarni ta’lim-tarbiyaviy hikoyalardir. Har bir hikoyaning so‘ngida qissadan hissa chiqarilgan. Adib o‘z asarlari va darsliklarida bolalar tarbiyasiga katta ahamiyat beradi.

Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq, deb hisoblaydi adib. Bunday kishilarning say harakatlari natijasida Turkiston bag‘rida jonlanish, madaniy harakatchilik, milliy uyg‘onish tomon siljish yuz berdi.

Maktab maorif sistemasida keskin burilish yasaldi. O‘qitishning ko‘r qorilarcha yodlatish usuli rad etildi. Uning o‘rniga harf-tovush usuli tarkib topdi. Natijada savod chiqarish tezlashib ketdi.

Bugungi kunda mustaqil jumhuriyatimizda tobora avj olayotgan ijobiy siljishlar to‘lqini jamiyatimiz hayotining barcha jahbalarida, jumladan xalq ta’limi sohasida ham o‘zgarish yasamoqda.

Endilikda asossiz toptalgan asriy qadriyatlarimizni tiklashga urinayapmiz. Hayotga teran qaraydigan har bir kishi buni yaxshi tushunishi, kelajak rejalarini belgilashda o‘tmishdaadolat bilan baho berishi kerak.

Ta’lim-tarbiya ishlarida xalqimizning eng ilg‘or, hayotda o‘zini oqlagan g‘oyalarni bola tarbiyasida, insonni kamol toptirishda keng qo‘llash nazariy va amaliy jihatdan yangicha ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha pedagogikani fan sifatida rivojlantirish manbalari.

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berish hamda ularning shaxsiyatini shakllantirish qonuniyatları, tamoyilları, vositaları, shakl, usul va metodlarini o‘rganuvchi sohasi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi bola psixologiyasi, yosh anatomiyasi va fiziologiyasi, tibbiyat, gigiyena, shuningdek, tilshunoslik, nafosat tarbiyasi, axloq fanlari bilan uzviy bog‘liq.

IX-asrning 2-yarmida umumiyligda pedagogikadan ajralib chiqqan. Bu bir tomonidan yosh psixologiyasining rivojlanishi va ilmning alohida tarmog‘i sifatida namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomonidan ayollarning fabrika va zavodlarga jalb etilishi natijasida bolalar muassasalarining vujudga kelishi bilan izohlanadi. Ingliz utopik sotsialisti R. Ouen birinchi bo‘lib bolalarga ilk yoshdan ijtimoiy tarbiya berish g‘oyasini asoslab berdi va proletar bolalari uchun maktabgacha yoshdagi bolalar muassasasini ochdi. Xuddi shu vaqtidan boshlab Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fanning maxsus tarmog‘i sifatida shakllandi va rivojlana boshladi.

XX-asr boshlarida erkin tarbiya jarayonida bola shaxsiyatini rivojlantirish g‘oyasi keng tarqaldi. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining asosiy vazifasi maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning mazmun, shakl va metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining metodologik asosini dialektik bilish nazariyasi hamda shaxsning evolyusion tarzda taraqqiy etish qonuniyatları, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yilgi "Ta’lim to‘grisida"gi qonuni o‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy merosi hamda bola tarbiyasiga oid tarixiy tajribasi, ilg‘or mamlakatlardagi pedagogik qarashlar, pedagogika, psixologiya, falsafa, etika, estetika, tilshunoslik, tibbiyot, odam fiziologiyasi va gigiyenasi, antropologiya kabi fanlarning ilmiy asoslari, xulosalari hamda qonuniyatları tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasidan tadqiqotlar kuzatish, pedagogik tajriba, suhbat, hujjatlarni o‘rganish, bolalar faoliyati mahsulini tahlil qilish metodlari orqali amalga oshiriladi. Bu metodlar asosida tadqiqotlar mazkur soha bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchi va tarbiyachilar tomonidan olib boriladi. Har bir kuzatish jarayoni batafsil yoziladi va ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Pedagogik tajribada birinchi navbatda bola, uning rivojlanishi uchun yaratiladigan pedagogik shart-sharoitlar nazarda tutiladi. Pedagogik tajriba ehtiyyotkorlik bilan ob‘yektiv ravishla olib borilganlagina amalga oshiriladigan tadqiqot natijalarining obyektivligini ta’minalash imkoniyati tug‘iladi. Suhbat metodi u yoki bu bolani, yoki bir gurux. bolalarni yaxshiroq o‘rganish imkonini yaratadi, ta’lim tarbiya jarayonida yo‘l qo‘ylgan xatolar aniqlanadi. Bolalar bilan suhbat ularning qiziqishlarini, nutqidagi o‘ziga xoslikni, atrof muhit hamda kishilarga munosabatini aniqlashga yordam beradi. Hujjatlar, ya’ni bog‘cha va alohida tarbiyachilarining reja va hisobotlarini o‘rganish ham nazariy xulosalar chiqariishi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga mazkur hujjatlar maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi tashkiliy ishlar xaqida aniq xulosalar chiqarish imkonini yaratadi. Ushbu xulosalar o‘z navbatida tarbiya usullarini kashf etishga yordam beradi. Bolalar faoliyati mahsulini tahlil qilish

metodi Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining muhim tadqiqot metodidir. Bolalar faoliyati tahlili ularni shakllantirishda juda yaxshi natijalar beradi.

O‘zbekistonda Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi masalalari O‘zbekiston ped. fanlari instituti, Toshkent ped. unstituti va boshqa ilmiy tadqiqot muassasalarida ishlab chiqiladi. Jumlanan, 2016-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan chiqarilgan buyruqlar, qarorlar, farmoishlar maktabgacha ta’lim jarayonining mazmunini yangilashga yo‘naltirilgan bir qator tadqiqotlar, xususan, 2018 yilda chiqarilgan "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari", 2018 yilda "Ilk qadam" o‘quv dasturlarning yaratilishi diqqatga sazovor.

Maktabgacha pedagogikada amalga oshirilgan tadqiqotlarning eng muhimi sensor tarbiya tizimi nazariy asoslarining yaratilganligidir. Chunki sensor tarbiyaning asosiy maqsadi bolalar faoliyatining har xil turlarini amalga oshirish jarayonlarining sensor qobiliyatini taraqqiy ettirishdan iborat.

Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, pedagogika fanlari tizimidagi o‘rni.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi keng ilmiy sistemaning bir qismi sifatida jamiyat va insonni o‘rganuvchi fanlar bilan chambarchas bog‘langandir. Pedagogika ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyani o‘rganar ekan, falsafa bilan chambarchas bog‘liqdir, chunki falsafa tarbiyaning maqsad va vazifalarini o‘rganish metodologiyasini belgilaydi. Jamiyat to‘g‘risidagi materialistik falsafa tarbiya masalasiga ilmiy asoslangan holda yondashish imkonini beradi. Tarixiy materialism pedagogikaga tarbiyaning sinfiy mohiyatini ochib berish, uning paydo bo‘lishi va rivojlanishi ijtimoiy hodisa ekanligini,jamiyat hayotida va kishi shaxsining rivojlanishida tarbiyaning rolini baholashga yordam beradi. Didaktik masalalarni ishlab chiqishda pedagogika bilish nazariyasiga suyanadi: axloqiy tarbiya masalalarini o‘rganishda pedagogika etikaning axloq to‘g‘risidagi ta’limotiga, estetik tarbiyaning maqsadini, yo‘llarini, metodlarini belgilashda etika faniga asoslanadi. Etika axloqni nazariy

jihatdan asoslab, yosh avlodni, uning axloqiy tarbiyasi muammolarini, inson shaxsini shakllantirishda axloqiy g‘oyalar rolini tushunishni chuqurlashtiradi.

Estetika insonning voqelikka, san’atga estetik munosabatlari rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi, nafosat tarbiyasining ilmiy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogika boshqa fanlardan biologiya, psixologiya, yosh psixologiyasi bilan har xil aloqalar o‘rnatadi. Pedagogika insonni biologik evolyutsiya predmeti sifatida o‘rganuvchi fiziologiya bilan chambarchas va bevosita bog‘langandir.

Fiziologiya pedagogikaning tabiiy-ilmiy bazasi bo‘lib, u birinchi navbatda inson oliv nerv faoliyatining rivojlanishi, nerv sistemasining tipologik xususiyatlari, sezgi organlari, tayanch-harakat apparati, yurak-tomir va nafas olish sistemalari, ichki sekretsiya bezlari va shu singarilarning rivojlanishi haqidagi ma’lumotlarga tayanadi. Pedagogika ana shu ma’lumotlar negizida ta’lim tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish masalalarini mavaffaqiyatliroq hal eta oladi, psixik voqealar va jarayonlarning ayrim qonuniyatlarini chuqurroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hozirgi zamon fiziologiyasi eng muhim pedagogik muammolarni to‘g‘ri hal etishda: bolaning rivojlanishiga, uning qobiliyatlarini shakllantirishga mihit, irsiyat va tarbiyaning ta’siri va shu singarilarni belgilashda pedagogikaga yordam beradi.

O‘sib borayotgan organism tuzilishining va harakat qilish qonuniyatlarining asosiy prinsiplarini ochib beruvchi yosh fiziologiyasi ta’lim va tarbiya berish masalalarini ishlab chiqish uchun ayniqsa kata ahamiyatga ega. Bu xususiyatlarni bilmay turib, tarbiyalanuvchilarning yoshiga muvofiq tarbiya vositalari va metodlarini, u yoki bu mashg‘ulotlarni yoki tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishning tashkiliy shakllarini to‘g‘ri belgilab bo‘lmaydi. Fiziologiyaning oliv nerv faoliyati, nerv sistemasining tipologik xususiyatlari to‘g‘risidagi xulosalari pedagogikaga o‘quv-tarbiya jarayoni metodikasini ishlab chiqishda, bolalar faoliyatlarini uchun yaxshiroq shart-sharoit yaratishda yordam beradi.

Insonning voqelikni bilishini belgilovchi hamda uning xulq-atvorini boshqaruvchi psixikaning qonuniyatları va mexanizmları to‘g‘risidagi fan bo‘lgan

umumiy psixologiya insonning rivojlanishi, tarbiyalanishi va atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlari jarayonida shakllanadigan holat va xislatlarni (tafakkur, xotira, tasavvur, his-tuyg‘u, iroda va hokazo) tadqiq qiladi.U pedagogikani o‘sib borayotgan inson shaxsining turli xislat va xususiyatlari shakllanishining ichki jarayonlari qanday kechishi shart-sharoitlari va mexanizmlarini o‘rganish bilan qurollantiradi. Pedagogika ulardan foydalanib, tarbiyaning mazmuni va metodlarini ishlab chiqadi. Yosh psixologiyasi pedagogikaga turli yoshdagi bolalarning bilish imkoniyatlarini, u yoki bu tarbiyaviy ta’sirni ular qanday qabul qilishini aniqlashda yordam beradi.

Psixologiya shaxsning rivojlanish qonuniyatlari, yosh va o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi xulosalarni, tarbiyalash va ta’lim berishning ratsionalroq mazmun, metodini asoslash va shaxsning shakllanish jarayonini to‘g‘ri loyihalash imkonini yaratadi. Pedagogika jamoani tashkil etishning samaraliroq shakllarini, shaxsni jamoada va jamoa orqali tarbiyalash metodlarini ishlab chiqishad sotsial psixologiya bilan qurollanadi.

Pedagogika jismoniy rivojlanish masalasini, bola organizmining ish qobiliyatini oshhhirish, uning faoliyatini normallashtirish masalalarini o‘rganishda umumiy va sotsial gigiyena, mehnat gigiyenasi, maktab gigiyenasi, pediatriya va boshqa fanlarning erishgan yutuqlaridagi xulosalardan foydalanadi. Maktabgacha pedagogika umumiy pedagogika bilan ham bog‘liqdir, chunki umumiy pedagogika tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, jamiyatda yosh avlodni har tomonlarna tarbiyalash hamda t’limning mohiyati va qonuniyatlarini o‘rganadigan fandir. Maktabgacha pedagogika ayrim xususiy metodika (ona tili, tabiatshunoslik metodikasi, jismoniy tarbiya metodikasi, tasviriy san’at metodikasi va shu singari) fanlari bilan ham bog‘liqdir, chunki tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalai bolalarga ta’lim berish jarayonida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, boshqa fanlarning xulosalari pedagogik nazariya va tavsiyalarni ishlab chiqish uchun zarurdir.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1.Pedagogika ilmiy fan sifatida qanday jamiyatda shakllana boshlagan?

- 2.Qaysi adib dehqon bolalari uchun mактаб оғди?
- 3.Mактабгача ўюшдеги болалар педагогикаси qaysi fanlar bilan узвиј bog'liq?
- 4.Eстетика нимани о'рганади?
- 5.Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari qanday?

11-Mavzu. Jahon mamlakatlari ta'lim tizimida maktabgacha ta'limning tutgan

o'rni

Reja:

- 1.Yaponiyada ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari.
- 2.Germaniyada ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari.
3. Koreya Respublikasi ta'lim tizimi.
- 4.Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida maktabgacha ta'limga zamonaviy yondashuvlarni yoritib bering.

Yaponiyada ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari.

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv metodik majmualarniishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-sonli, «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sun qarorlari, «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoyishi shular jumlasidandir.

Xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini bir qator davlatlar misolida ko‘rib chiqamiz.

Yaponiya- juda tez rivojlanayotgan davlat bo‘lib, bu hol asosan Yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog‘liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu Yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo‘llash siyosati eng muhim o‘rin tutadi.

Maktabgacha ta’lim tizimi

Maktabgacha ta’limga Yaponiyada katta e’tibor beriladi, chunki psixologlarning ta’kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70% ni, qolgan 30% ni butun qolgan umri davomida o‘zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollar uchun onalik birinchi o‘rinda turadi. Ko‘pgina Yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi – ularning hayotlarining maqsadlaridir.

Yaponlar bolaning erta voyaga etishi taraf dordidirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg‘u beradi. Masalan, 1 yoshda-o‘ziga ishonch hissini uyg‘otish, 2 yoshda – amaliy san’at qo‘l mehnatini ko‘rsatish, 3 yoshda-burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda – yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o‘rgatish, 5 yoshda-liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o‘rgatish. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar.

O‘g‘ilga oilaning bo‘lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni engishga o‘rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar.

Yaponiya bog‘chalarida bolalarni 8 kishilik kichiq guruhrar – “xan”larga bo‘ladi. Bu bolalarga bog‘chada “o‘z ish o‘rni” ajratiladi, ular o‘z xanlariga nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichiq yoshdan jamoada ishslashni o‘rgatadilar. Bu guruhdagi har bir bola guruhda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta’lim bosqichida ham qo‘llaniladi. O‘rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko‘nikish uchun har 5 oyda o‘zgartirib turiladi. Yaponiya bog‘chalariga 3-5 yoshdagি bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog‘chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy

qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko‘nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to‘g‘ri munosabatda bo‘la olishni o‘rgatishdan iborat.

Shuningdek, og‘zaki nutq, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatishga ham katta e’tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o‘yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg‘otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlang‘ich ta’limga erta qabul qilishga o‘tish maqsadida 4-5 yoshdagi bolalarning barchasini bolalar bog‘chasiga jalb qilish ko‘zda tutilmoqda.

Bolalar bog‘chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas’uliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bolalar bog‘chasing asosiy vazifasi-bolani maktabga tayyorlashdir. Bu erda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tiladi. Individuallik, u qanchalik yaxshi bo‘lmisin, bolalarni o‘ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi. Boshlang‘ich ta’lim “syogakko” deb nomlanadi. Uzluksiz ta’lim tizimi, maktablar quyidagicha bo‘lingan:

1. Boshlang‘ich mакtab - 6 yil.
2. O‘rta mакtab - 3 yil.
3. Yuqori mакtab - 3 yil.

Maktabgacha ta’limga Yaponiyada katta e’tibor beriladi, chunki psixologlarning ta’kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70%ni, qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida o‘zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi.

Bolalar bog‘chalari. Ta’limning bu bosqichiga 3-5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda 3, 2, 1 yillik ta’lim kurslariga jalb qilinadilar. Yaponiyada maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 59,9 foizi xususiydir. 40,8 foizi esa munisipial (tuman) kengashlari tasarrufida, qolgan 0,3 foizi davlatnikidir.

Bolalar bog‘chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko‘nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to‘g‘ri munosabatda bo‘la olishni o‘rgatishdan iborat. Bolalar bog‘chasi Yaponiyada

vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi Shuningdek, og‘zaki nutq, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatishga ham katta e’tibor beriladi.

Boshlang‘ich ta’lim -“syogakko”. Boshlang‘ich maktab ta’limning ilk 6 ilini qamrab oladi va uning asosiy qismi hisoblanadi. Yaponiyada maktabga 6 yoshdan boriladi.

Yaponiyada o‘rta va yuqori maktab tizimi. Kichiq o‘rta maktab – tyugakko.

Boshlang‘ich maktabni tugatgan o‘quvchi o‘qishni kichiq o‘rta maktabda davom ettirishi lozim. Yapon tili, matematika, jamiyatshunoslik, etika, tabiiyot, musiqa, san’at, maxsus faoliyat, jismoniy tarbiya, texnik mahorat va uy xo‘jaligini yuritish kabi majburiy fanlardan tashqari o‘quvchilar chet tili, qishloq xo‘jaligi yoki matematikadan chuqurlashtirilgan kurs kabi fanlarni tanlashlari mumkin.¹¹

Yaponiyada oilaviy byudjetning katta qismi bolalarning sara maktablarda puxta bilim olishlarini ta’minlashga, universitetlarga kirib bilim olishlariga sarflanadi. Oilada bola yaxshi bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Imtihon paytlarida esa bolalar uy yumush- laridan ozod etiladilar. Ota-onalar maktab hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etadilar, o‘z farzandlariga barcha sohada o‘rnak-namunadirlar. Ular bolalari o‘qishida yordam berish uchun juda ko‘p o‘qiydilar, maktab o‘quv dasturini mukammal o‘rganib oladilar. Bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas’uliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining oqil, dono, muloyim, odil va mehnatsevar bo‘lib o‘sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o‘zlarini mas’ul deb hisoblaydi»lar. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko‘plab metodik qo‘llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televidenie orqali ko‘plab pedagogik maslahatlar berib boriladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ota-onalar oyiga o‘rtacha 2-3 kitob sotib olishadi. Shu yoshdagi bolalar uchun oyiga 40 ta jurnal nashr etiladi, ota-onalarning mutloq ko‘pchiligi bu jurnallariga obuna bo‘lishadi. Bola maktabga borgunga qadar o‘qishni, yozishni, oddiy hisoblash ko‘nikmalarini egallashi zarur. Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo‘lib parta ustida kitob javoni, yoritqich, soat, qalarn qog‘oz

mikrokalkulyator va boshqa zaruriy ashyolar, shuningdek, kerak bo‘lib qolgan taqdirda ota-onasini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o‘rnatilgan.

Turli ta’limiy ko‘nikmalarni bolalar ongiga singdirish Yapon maktablariga xos fazilatdir. Masalan, 2sinf o‘quvchisi ko‘pchilik oldida nutq so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lishi, 6-sinf o‘quvchisi kamida 2 ta cholg‘u asbobida kuy chala bilishi, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi suvda bemalol suza olishi kerak. Mana shulardan Yapon muallimi o‘z kasbiga qo‘srimcha ravishda yana nimalarni o‘rganishi lozimligini bilish qiyin emas. O‘qituvchi qo‘sniq aytishi, cholg‘u asboblarida kuy chala olishi, notiqlik san’atini bilishi, yaxshi sportchi bo‘lishi kerak.

Germaniyada ta’lim tizimining rivojlanish bosqichlari.

Germaniyada mavjud bo‘lgan asosiy qonun har bir fuqaroga o‘z shaxsini erkin kamol toptirish, qobiliyatları va qiziqishiga qarab mакtab, o‘quv yurti va kasb tanlash xuquqini beradi. Ta’lim sohasidagi siyosatning makqsadi shundan iboratki, u har bir insonni optimal darajada qo‘llab-quvvatlash, uning manfaatlariga javob beradigan malakaviy tayyorgarlikdan o‘tish imkoniyatini yaratadi. Har bir fuqaro hayoti davomida umumiy, kasbiy va siyosiy ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Ta’lim sohasidagi siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biri yosh avlodni demokratik mamlakatda mas’uliyat hissiga ega mustaqil fuqarolar etib tarbiyalashdir.

Bolalar bog‘chasi. Bolalar bog‘chasi olmonlar boshlab bergen va ko‘pgina xorijiy mamlakatlar tomonidan o‘rganib, qabul qilingan tashkilotdir. U davlat ta’lim tizimiga emas, balki yosh avlodni qo‘llab-quvvatlash tashkilotlari tizimiga kiradi. Bolalar bog‘chasi ta’sischilari cherkov, xayriya uyushmalari va jamoalar, ba’zida korxonalar va ittifoqlardir. Tarbiyaviy ishlarning eng muhim jihatni jamiyatda yashashga qobiliyatli, mustaqil insonni kamol toptirish maqsadida guruhda o‘qishdir. Bolalar bog‘chalari oiladagi tarbiya’ni qo‘llab-quvvatlashga, shuningdek boshqa keyingi hayoti va ta’lim olishi uchun eng yaxshi imkoniyatlarni yaratish uchun uning rivojlanishidagi kamchiliklarning o‘rnini to‘ldirishga qaratilgan. Odatda, bolalar bog‘chasida bolalar tushlikka qadar bo‘ladilar. Faqat ba’zi birlarida ular kun bo‘yi bo‘lishlari mumkin. 1996 yildan boshlab bolalar bog‘chasiga qatnash uchun huquqiy me’yorlar ishlab chiqildi.

Bolalar bog‘chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog‘chasiga qatnash uchun ota-onalardan ularning daromadiga qarab ma’lum miqdorda to‘lov olinadi

Germaniya Federativ Respublikasi 16 ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar)dan iborat bo‘lib, har biri shakliga ko‘ra turlicha bo‘lgan ta’lim tizimiga ega. Ta’lim tashkilotlari asosan davlat tasarrufida bo‘lib, ular uchun ta’lim dasturiga tegishli bo‘lgan davlat ko‘rsatmalari mavjud.

Ta’limni joriy qilish va boshqarish Federal yerlar (FE) hukumatining konpetensiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiylah ham bor: ta’lim vazirligi ta’lim siyosati konsepsiyasini ishlab chiqadi.

Umuman olganda Germaniya ta’lim tizimi bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi:^[2]

1. Elementar ta’lim: maktab ta’limining 1-bosqichiga tegishli bo‘lib, mактабгача ташкілттар киради. Асосан булар болалар bog‘chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo‘lib, bu yerlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xoxishiga ko‘ra ixtiyoriydir.
2. Ta’limning birinchi bosqichi. (Primastufe) boshlang‘ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O‘qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta’limning maqsadi bolalarga ta’lim uning ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta’limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.
- 3.Ta’lim uning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe I) “yo‘nalishli bosqich” deb nomlanuvchi bosqichdir, unda bolalarni ularning iqtidoriga ko‘ra o‘quv tashkilotlarining kerakli turiga yo‘naltiradi: asosiy maktablar, real maktablar, gimnaziyalar, kompleks maktablar. O‘quvchilar ta’lim xaqidagi attestatni real va asosiy maktablarni bitirgachgina olishadi

Koreya Respublikasi ta’lim tizimi.

Koreyaning zamonaviy ta’lim tizimi rasman Yaponiya mustamlakasidan ozod bo‘lgan 1945-yildan boshlangan. Ammo kengroq qaraydigan bo‘lsak koreyslarda ta’lim tizimi 1894 yilgi islohotlardan keyin yuzaga kelgan deyish mumkin. 1881 yili Koreyadagi Choson hukumati mamlakat xavfsizligini kuchaytirish maqsadida maxsus armiya tuzadi va g‘arbliklar harbiy san’atdan dars bera boshlaydilar. Bu o‘z navbatida chet tili va

boshqa fanlar ta’limini yuzaga kelishini ta’minladi. Garchi 1882 – yili maxsus qo’shin uchun darslar to’xtab qolgan bo’lsa-da, bir qancha amaliy fanlar darsi davom etaverdi. Bu davrda asta – sekinlik bilan Gvangxevon, Bejexakdan, Ivxaxakdan kabi shaxsiy ta’lim tashkilotlari ham vujudga kela boshladi va keyinchalik universitetlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

1894-yili shaxsiy bilim maskanlari birlashtirilib, mamlakat ta’lim tizimini boshqaruvhci institut tashkil etildi. Shu bilan birga 1895-yildan boshlang‘ich maktablar va maktab uchun kadrlar tayyorlaydigan pedagogika maktablari tuzildi. Bundan tashqari bir qancha xususiy maktablar ochilib, 1900-yilda ular faoliyatini tartibga solib turadigan “Xususiy maktablar to‘g‘risidagi qonun” qabul qilindi. 1910-yili Koreya va Yaponiya o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Koreya Yaponianing rasman mustamlakasiga aylantirildi. Natijada bu mamlakat ta’lim tizimiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Yapon mustamlakachilar Koreyaning ta’lim tizimini keskin o‘zgartirish yo‘lidan bordi va xususiy maktablar faoliyati cheklab qo‘yildi. Bu davrda 1911-yil 23-avgustda qabul qilingan “1-Choson ta’lim buyrug‘i” amal qildi. Unga ko‘ra, koreys va Yapon fuqarolarining farqli ta’lim siyosati olib borildi. Ya’ni mahalliy xalq faqat 4 yil mobaynida boshlang‘ich ta’lim olar, o‘rta va oliy ta’lim berilmas edi. Bu Yapon mustamlakachiligining uzoq o‘yangan rejalar qatoriga kiradi. Ammo 1919-yili boshlangan norozilik harakatlari oqibatida Yaponiya hukumati biroz yon berishga majbur bo‘ldi va buyruqqa o‘zgartirish kiritib, boshlang‘ich ta’lim 4 yildan 6 yilga uzaytirildi. 1922-yil 4-fevralda “2-Choson ta’im buyrug‘i” qabul qilindi. Bu buyruqqa ko‘ra, ta’lim muddatlari uzaytirildi. Ya’ni, oddiy maktablarda ta’lim 6 yil, ayollar maktablarida esa 5 yil etib belgilandi. Shuningdek, asta sekinlik bilan universitetlar ham paydo bo‘la boshladi. Jumladan, 1924 yili Kyongson Davlat Universiteti ochildi. Shu yili Xitoy Yaponiya urushi boshlanishi munosabati bilan mustamlaka Koreyada nazorat yanada kuchaytirildi. Oddiy maktablar va boshlang‘ich maktablar, yuqori va o‘rta maktablar birlashtirildi. Koreys tili fanlari kamaytirilib, imperiya xalq demokratiyasi fani kiritildi. 1943 yil 3 avgustda “4 Choson ta’lim buyrug‘i imzolandi va Yapon mustamlakachiligining ta’lim sohasidagi zo‘ravonligi kuchaydi. Jumladan, o‘rta va

yuqori maktablarda ta’lim 4 yilgacha kamaytirilib, koreys tili fani dasturdan olib tashlandi. Uning o‘rniga Yapon tili darslari kiritildi. Koreyani yoppasiga savodsizga aylantirish siyosati natijasi o‘laroq, 1944 yilgi Koreya Umumiy Arxiv qo‘mitasi ma’lumotlariga qaraganda o‘sha paytda Koreyaning savodxonlik darajasi bor yog‘i 13,8% ni tashkil etgan. 1945 yili Ikkinchı Jahon urushi bilan birga Koreyadagi Yaponiya mustamlakachiligi ham tugadi. Endilikda Koreyada tabiiyki boshqa sohalar qatori ta’lim tizimini o‘zgartirish vazifasi turardi. Eng avvalo “Ta’limni rivojlantirish qo‘mitasi” tashkil etildi va qo‘mita oldiga darsliklar yaratish majburiyati qo‘yildi. Ta’lim tizimi tadbiq etilishi davom ettirilib, axloq, etika, texnikaga oid fanlar kiritildi. 1963-yillardan boshlab esa ta’lim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga e’tibor kuchaydi. 1981-yili Prezident Chon Du Xvan mamlakatda shaxsiy ta’lim berish va xususiy ta’lim maskanlari faoliyatini qonunan ta’qiqlab qo‘ydi. Lekin mакtabda mustaqil shug‘ullanish uchun imkoniyatlar yaratib berdi. 1992-yilga kelib esa boshlang‘ich maktablar faoliyati yanada rivojlanishi uchun xukumat tomonidan bir qancha imtiyozlar yaratildi.

Zamonaviy Koreya ta’lim tizimida boshlang‘ich maktablarning roli muhim. Koreyada boshlang‘ich ta’lim uchun o‘quv yilida 1 martga qadar 6 yoshdan yuqori bo‘lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o‘qishga kirishga huquqli bo‘lib, buning uchun mакtab mas’ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo‘ladi. O‘quv yili esa 1-mart Koreya Respublikasida davlat bayrami munosabati bilan 2- martdan boshlandi. 6 yil davom etadigan boshlang‘ich ta’lim majburiy etib belgilangan. Boshlang‘ich ta’im 1yil ikki semestrga bo‘lingan holda olib boriladi. Boshlang‘ich ta’limdan keyihgi “zinapoya” vazifasini o‘rta ta’lim bajaradi. O‘rta ta’lim Koreya Respublikasida 3 yil davom etadi. O‘rta ta’lim ham majburiy bo‘lib, bir o‘quv yili 1-martdan keyingi yil mart oyiga qadar davom etadi. Darslar 45 daqiqadan etib belgilangan bo‘lib, bir yilda 1222 soatni tashkil etadi. O‘rta ta’lim maktablarida davlat tili, axloq, ijtimoiy fan, matematika, jismoniy tarbiya, musiqa, san’at, chet tili kabi 10 ga yaqin fanlar o‘qitiladi. Shuningdek, o‘rta mакtabda o‘quvchi uchun tanlov fanlar mavjud. Bular qatoriga axborot, chet tili (ko‘pincha nemis, fransuz, ispan, xitoy, Yapon, rus, arab tillari) kabilar kiritish mumkin. O‘rta mакtab tugatilgan yuqori maktablarda ta’lim davom

ettiriladi. Yuqori maktablar bir necha turlarga bo‘linadi: Davlat yuqori maktablari (Koreya Ta’lim va Texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi), Umumiy yuqori maktablar (Har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi), Xususiy yuqori maktablar. Shuningdek, yuqori maktablar o‘qitish fanlariga ko‘ra ham bir qancha turlarga bo‘linadi: Umumiy maktablar, ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo‘jaligi, sanoat, dengiz xo‘jaligi, axborot), maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab), texnika maktablari, chet tili maktabi, jismoniy tarbiya maktabi, san’at maktablari. Koreya Respublikasida Ta’lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo‘jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo‘ladi.

Janubiy Koreya Respublikasining ta’lim tizimi YUNISEF ekspertlari xulosasiga ko‘ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida “eng samaralisi”deb tan olingan. Ko‘pchilikning yagona fikricha, Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti va texnikadagi yutuqlari “inson resursiga investitsiyani to‘g‘ri tikkanligida” deb ta’kidlashadi. Konfutsiy davridan saqlanib qolgan ziyoli odamga jamoat xizmati xozirgi kungacha bor. Janubiy Koreyada 1980 yillardan beri ilmiy kasblar eng nufuzli hisoblanadi.

Janubiy Koreya ta’lim tizimi yana bitta butunjahon tamoyilini amalga oshiradi: bu ta’lim va fan integratsiyasidir. Dunyo amaliyotida o‘quv tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot institutlarini o‘z ichiga oluvchi akademik konglomeratlar samarali faoliyat olib borishmoqda. Bunday birlashuv ilm va ta’lim integratsiyasining aniq asosi bo‘lib xizmat qiladi va mamlakatda yagona ilmiy-texnik va ta’lim siyosatini olib borish imkoniyatini beradi. Oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarining qo‘shilishi bugungi kunda integratsiyaning eng samarali shakli hisoblanadi.

Ko‘p rivojlanayotgan davlatlarda ta’lim bugungi kunda jamiyatning faqat sarf-harajatlar sohasi emas, balki asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylandi. Ya’ni, ta’lim raqobatbardosh, jiddiy moliyaviy mablag‘larni olib keluvchi soha bo‘lishi kerakligi isbotlandi. Ta’limning deyarli 1-bosqichidayoq davlat va iqtisodiyotning rivojlanishiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Faqat bilim olish uchungina emas, balki olingen bilimlarni amaliyotda samarali qo‘llash uchun o‘qish zarur.

Lekin shuni hisobga olish joizki, ta’limni tizimli modernizatsiya qilish jarayoni o‘z-o‘zidan eski tartib elementlarni engib o‘tish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va tabiiy boshqaruvning boshqa metod va mexanizmlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Lekin bu shundoqligicha nusxa olish shaklida emas, balki yangiliklarni qabul qilish bilan birga ta’lim rivojlanish bosqichidagi eng yaxshi an’alar va qo‘lga kiritilgan yutuqlarni saqlab qolishni taqozo etadi.

Janubiy Koreya Respublikasi ko‘plab tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo-Tinch okeani regionining noyob davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo‘lgan asosiy vazifa-o‘z an’anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o‘z madaniy-siyosiy identivlik, SHarqning an’anaviy qadriyatlari va orientirlari bilan bog‘lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta’lim tizimi YUNISEF ekspertlari xulosasiga ko‘ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida “eng samaralisi” deb tan olingan.

Maktabgacha ta’lim Janubiy Koreyada bolalar bog‘chasi umumta’lim turiga kirmaydi. Ota-onalar farzandlarini xususiy maktabgacha tashkilotlarga beradilar. Bu tashkilotlarda mashg‘ulotlar koreys tilida, ingliz tilida, ba’zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog‘chasiga 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi.

Bolalar bog‘chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlarna rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog‘chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o‘tiladi. Koreys bog‘chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e’tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yilgacha bo‘lishi mumkin. Boshlang‘ich ta’lim. Janubiy Koreyada bolalar (6 yoshdan oshgan) 7 yoshdan 13 yoshgacha boshlang‘ich mакtabga boradilar. O‘qish muddati 6 yil, majburiy va bepul.

Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida maktabgacha ta’limga zamonaviy yondashuvlar.

Kanadaliklarning eng muhim yutuqlaridan biri bu ularning ta’lim tizimidir. Ilg‘or universitet va kollejlardagi ta’lim sifati juda yuqori va Kanada diplomlari butun dunyoda tan olinadi. Xalqaro reytingda Kanada ta’limi AQSHdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

Kanadaning turli provinsiyalari o‘quv rejalarida o‘ziga xosliklar ko‘rinadi. Masalan, Kvebek, Ontario, Manitobda maktabgacha tashkilotda maktabga tayyorlash 2 yil, 4 yoshdan 6 yoshgacha, Albert va Britan Kolumbiyasida 1 yil. O‘quv yili sentyabrning birinchi haftasidan boshlanadi va iyunning oxirgi haftasida tugaydi.

Kanada maktablarida ta’limning o‘rtacha davomiyligi 12 yilni tashkil qiladi. 6-7 yoshdan bolalar boshlang‘ich maktabga qatnay boshlaydi va unda 6 yil tahsil olishadi. Manitob va Ontario boshlang‘ich maktablarida o‘qish boshqa provinsiyalardan ko‘ra 2 yil ko‘p davom etadi. 12 yoshdan bolalar o‘rta maktabga o‘tishadi va 16-18 yoshgacha o‘qishadi. Kvebek provinsiyasida o‘rta ta’lim 11 sinf davom etadi, universitetda o‘qishni xohlaganlar esa yana 2 yil kollejga tayyorlov bo‘limida o‘qishadi.

Belgiya ta’lim tizimi

Belgiyada maktabgacha ta’lim (MT) 2,5 yoshdan boshlanadi. Ushbu belgilangan yoshga etganda bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotiga berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o‘zgarib boradi. Maktabgacha ta’lim guruhlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim orttirish (kognitiv), kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mashg‘ulotlar o‘yin shaklida olib boriladi. Maktabgacha ta’lim majburiy ta’lim dasturiga kiritilmagan bo‘lsada, Belgiyada taxminan 90%gacha bo‘lgan bolalar unga qatnashadi. Ko‘p hollarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari boshlang‘ich maktablarga uyg‘unlashgan bo‘ladi. Bolalar 6 yoshga etganda boshlang‘ich maktabning birinchi sinfiga o‘qishga kiradi.

Fransiya ta’lim tizimi

Fransiyada ta’limning amalga oshirilishi . Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Uning ta’lim tizimlari ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda «Ta’lim haqida»gi qonun dastlab 1955 yilda qabul qilinib, 1975 yilda unga bir qator o‘zgarishlar kiritildi. Fransiya davlatining hozirgi davrida amal qilayotgan “Ta’lim haqida”gi Qonun 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan bo‘lib, uning o‘zgartirilishiga ta’lim strategiyasida ro‘y bergen o‘zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatidagi islohotlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg‘or tajribalarning mamlakat ta’lim tizimlariga kirib

kelishi, o'quv predmetlaridagi integrastiyalar va boshqalar sabab bo'ldi. Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlarna kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir.

Mamlakatda maktablar davlat, xususiy, oralis maktablariga bo'linadi. O'qitiladigan predmetlar ichida frantsuz tili va adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo'lib, ularga ajratilgan vaqt dars tarkibining 30 foizini tashkil etadi. Umuman, tarkibdagi 45 foiz darslar gumanitar yo'nalishda, qolganlari tabiiy fanlardir. Sinflarning o'rtacha xafthalik darslari 26 soatdan iborat, darslarning davomiyligi esa 60 minut, sinflardagi bolalarning o'rtacha soni 35-40 ta, o'quv yili 5 chorakka bo'linadi. Boshlang'ich sinflardagi o'qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo'linadi. Ertalab o'quvchilar ona tilidan, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar. Fransiya maktablarida ona tili va adabiyoti hamda matematika baza predmetlari, tarix, geografiya, mehnat ta'limi, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi. Fransiya ta'lim tizimining dastlabka bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu bosqichni "Onalar maktabi" deb ham yuritiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, bolalarning maktabdagi sharoitini uy sharoiti bilan yaqinlashtirish ularga oiladagidek iliq munosabatni shakllantirishdan iborat. Ularni mustaqil holda ham, maktablarning boshlang'ich sinflari bazasida ham tashkil etilgan. Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi, 1980 yillarning oxiridagi ma'lumotlariga ko'ra, onalar maktablarida 65 ming, boshlang'ich maktablar bazasida tashkil etilgan maktabgacha tarbiya shaxobchalarida 9100 sinf mavjud.

Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqlashtirilgan: - kichiq guruh 2 yoshdan 4 yoshgacha; - o'rta guruh 4 yoshdan 5 yoshgacha; - katta guruh 5 yoshdan 6 yoshgacha. 5-6 yoshlilar maktabga tayyorlov guruhi bo'lib, ularga Fransiyada 100 foiz

shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida etakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Uning ta’lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan «Ta’lim haqidagi qonun»i 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan bo‘lib, uning o‘zgartirilishiga ta’lim strategiyasida ro‘y bergan o‘zgarishlar, mamlakatning ichki tashqi siyosatidagi islohotlar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg‘or texnologiyalarning mamlakat ta’lim tizimlariga kirib kelishi, o‘quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo‘ldi.

Fransiyada ta’limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlarna kamol topishini ta’minalash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o‘quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o‘rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu erda davlat maktablari, xususiy maktablар, oraliq maktablар mavjud. O‘qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o‘qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo‘lib hisoblanadi. O‘quv yili 5 chorakka bo‘linadi. Fransuz maktablari boshlang‘ich sinflarda o‘qish ertalab bo‘ladi, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan qo‘srimcha saboq oladilar. Matematika, ona tili va adabiyoti bazaviy fan, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya kabi fanlar esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Fransiya ta’limida bolalarning go‘daklik chog‘idanoq maktabda o‘qitish uchun tayyor holda olib kelish g‘oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqlashtirilgan: kichiq guruh (2-4 yosh), o‘rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo‘lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish 5 yil bo‘lib, uch bosqichda amalga oshiriladi:

- 1.Tayyorlov bosqichi;
- 2.Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
- 3.Chuqurlashtirilgan bosqich.

O‘quv dasturining mazmunini bevosita o‘qituvchining o‘zi belgilaydi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘qituvchi bolalar bilimiga to‘la mas’ul ekan uning uslub tanlashiga mustaqil harakat qilishiga ham to‘la erkinliklar beriladi. 1990 yildagi hukumat qaroriga muvofiq maktabgacha tarbiya va boshlang‘ich ta’limiga modullashtirish, bolalarning bilimiga u yoki bu fanga moyilligiga qarab differensiyalashtirish, ya’ni tabaqlashtirish, dars jadvalini ham shu asosda tuzish huquqi berildi

AQSH ta’lim tizimi

Amerika Qo‘shma shtatlarida ta’lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

- bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya tashkilotlari;
- 1-8-sinflargacha bo‘lgan boshlang‘ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o‘qiydilar);
- 9–12-sinflardan iborat o‘rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo‘lgan bolalar ta’lim oladilar). U quyisi va yuqori bosqichdan iborat.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida navbatdagi ta’lim bosqichi oliy ta’lim bo‘lib, u 2 yoki 4 yil o‘qitiladigan kollejlar hamda dorilfununlardir. AQSHda majburiy ta’lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o‘quv yurtlari davlat, jamoa tasarrufida, xususiy va diniy tashkilotlar ixtiyorida bo‘lishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shug‘ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. 5 yoshdan esa «Kinder garde» deb ataluvchi tayyorlov tashkilotlarida ta’lim boshlanadi. Boshlang‘ich maktab 6 yoshdan to 13- 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang‘ich maktablarda umumiy savodxonlik va kasbga yo‘naltirish vazifalari hal etiladi

Maktabgacha tarbiya. Amerika boy mamlakat. Lekin bu mamlakatda bolalar uch yoshga to‘lgunlaricha onalarga turli moddiy imtiyozlar berish ko‘zda tutilmagan. Farzandlarga qarab uyda o‘tiradimi yoki enaga yollab ishga tushadilarmi, bu onalarning ishi. O‘zbekistondagi kabi keng va shinam, ikki qavatli, o‘ynaydigan, uxlaydigan, ovqatlanadigan alohida xonalari bo‘lgan bog‘cha va yaslilar Amerikada odob tusiga kirgan emas. Enaga yollash oila uchun haftasiga 200 dollardan kamga tushmaydi. Bu mamlakatda 30-40 bolaga mo‘ljallangan xususiy va davlat tasarrufidagi bog‘chalar

mavjud. Ular enaga yollashdan bir oz arzonroqqa tushadi. Lekin har ikki holda ham, uydan olib borgan ovqatlarni edirishadi, krovatchalar, ko‘rpa, to‘shak, yostiqni ota-onalar olib borishadi. Amerikada bizdagidek taomnomalar, o‘quv dasturlari yo‘q. Bolalar yozda atrofdagi ko‘kalarnzorlarda o‘ynab dam oladilar. Bu bog‘chalarda ham bolalar yoshlariga qarab turli guruhlarda tarbiyalanadilar, ularga tarbiyachi-mutaxassis qaraydi, ular ovqatni tayyorlab beradi, turli qo‘shiqlar, she’rlar o‘rgatadi, quvnoq o‘yinlar uyushtiradi. Ammo har kim o‘z uslubiga muvofiq ishlaydi, umumiylar qoidalar, o‘quv dasturlari joriy qilinmagan. Lekin bolalar uchun haqiqiy ta’lim-tarbiya jarayoni ular 5 yoshga to‘lganlaridan keyin boshlanadi. Ana shu yoshda ular «Kinder garden» deb ataluvchi tayyorlov bog‘chalariga jalb etiladilar. Ular hukumat tasarrufida bo‘lib, bog‘chalar yoki mакtablar tarkibida tashkil etiladi. Bolalarni maxsus «maktab avtobusida» uyga olib keladilar va maktabga olib boradilar. Bunday avtobuslar yo‘l-transport hodisalaridan to‘la muhofaza etilgan: sariq rangga bo‘yagan, uning signallariga barcha transport vositalari itoat etishga majburdirlar. Maktab avtobuslarini boshqa transport vositalari quvib o‘tishi mumkin emas, tartibni buzganlar qattiq jazolanadilar. Ko‘chalarda, maktabga ketayotganda yoki qaytayotganda alangla6 yurgan, o‘ynab futbol tepib yurgan bekorchi bolani uchratish amrimahol. Bolalarni maktabda ham, uyda ham shaxsiga tegilmaydi, do‘pposlanmaydi, u erkin o‘smog‘i kerak. Agar biror bola «meni urdi» deb ota-onasidan shikoyat qilsa, ma’lum muddatga ana shu ota-onalar ayrim hollarda ota- onalik huquqidan mahrum qilinadilar. Maktabga bolalar o‘zlarini xohlagan kiyimlarda boradilar. 5 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash ota-onalarning, bog‘cha va maktabning, ommaviy axborot vositalarining ishi. AQSH televideniyasining alohida kanalida “ Sezam ko‘chasi” deb nomlanuvchi ko‘rsatuvalar dasturi mavjud, u o‘quvchilarga ingliz tili, alifbo, arifmetik amallarni bajarish, sanash, o‘qish, koinot, tabiat, jug‘rofiya, tarix bo‘yicha bilimlarni o‘ta qiziqarli tarzda singdirishga harakat qiladi. Amerika ko‘p millatli mamlakat. Lekin har bir millat o‘z farzandiga milliy urf-odatlarini, tilini o‘rgatishga jiddiy ahamiyat beradi. Ko‘pincha bu vazifalarni katta avlod amalga oshiradi.

O‘zbeklar ham o‘z ona tilini, urf-odatlarini, dinini o‘z farzandlariga singdirishga astoydil intiladilar. O‘zbek bolalari ham Markaziy Osiyoda o‘z mamlakatlari borligini biladilar, g‘oyibona intiladilar, u haqda ko‘p narsalarni ko‘rish, eshitish, o‘qishni istaydilar.

O‘zbekistonga kelish har bir amerikalik o‘zbeklarning muqaddas orzusidir.

Besh yoshli bolalar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarning asosini ularni maktabga tayyorlash tashkil etadi. Olti yoshlilar bog‘cha guruhlarida bo‘lsalarda, lekin bu guruhlardagi ta’lim boshlang‘ich sinfdagi ta’limga yaqin turib, amalda uning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarining ta’lim dasturi ko‘p jihatdan ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishga mo‘ljallangan, u pirovard natijada bolalarni boshlang‘ich maktablarga puxta tayyorlab berishga xizmat qilishi kerak. Shuningdek maktabgacha tarbiya tashkilotlari bolalarning aqliy va jismoniy, umuminsoniy hislatlarni, bolalar jamoasi ichida o‘zini tutish, samimiylilik, mehnatsevarlik, foydali xatti-harakatlarning ilk shakllanishiga erishmoqlarini, tozalik, ozodalik va pokizalikka o‘rganishlarini ta’minlab berishi lozim. Yuqorida aytganimizdek, maktabgacha tarbiya tashkilotlarining xususiyatlari ham bor. Lekin u Yaponiyadagidek rivojlangan emas. Amerikada xususiy bog‘chalar davlat dasturiga kiritilgan. Amerikada o‘quvchilarning o‘z fikrini so‘zda mukammal, aniq ifodalab bera olishiga, o‘zligini anglash, o‘zining qadr-qimmatini e’zozlash, shaxsiy qobiliyatini ro‘yobga chiqarish tuyg‘ularini tarbiyalashga katta e’tibor beriladi. Bolalarda ana shu his-tuyg‘ularini shakllantira borish ilk yoshdanoq boshlanadi.

Hindiston talim tizimi va uning qiyosiy tahlili.

Hindiston mustaqillikka erishgan paytda mamlakat aholisining 96,5 % savodsiz bo‘lgan. 1949 – yilda qabul qilingan konstitutsiya bo‘yicha 6 yoshdan 14 oshgacha to‘lgan bolalar uchun bepul majburiy ta’lim joriy etildi. 2005 – yilda savodxonlik darajasi 52% ga yetdi. Hindistonda xalq ta’limi tizimi maktabgacha ta’lim tizim, boshlang‘ich va kichiq asosiy maktab, to‘liqsiz o‘rta va to‘liq o‘rta maktabdan iborat. Oliy o‘quv urtlarida o‘qish muddati 5 – 6 yil va o‘qish pullik. Mamlakatda 219 ta

universitet va institut hamda 7 mingdan ziyod kollej bor. Oliy o‘quv yurtlari: Bombey universiteti, Kalkutta universiteti, Chennoy universiteti.

Asosiy kutubxonalar:

Kalkuttadagi milliy kutubxona, Dehlidagi ommaviy kutubxona, Chennoydagagi ommaviy markaziy kutubxonalar bor.

Xitoy Xalq Respublikasi ta’lim tizimi

Hududi: Xitoy Xalq Respublikasi - dunyoning eng katta davlatlaridan biri bo‘lib, uning hududi 9,6 mln kv.km ga teng.

Aholisi: Xitoy aholisi qariyib 1,5 mld. kishiga teng. Aholining 90% dan oshig‘ini – xitoyliklar, qolgan qismini boshqa millat vakillari tashkil etadi. Xitoy ta’lim tizimi o‘ziga maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, to‘liqsiz o‘rta ta’lim, o‘rta ta’lim, universitet, aspirantura bosqichlarini qamrab olgan. Xitoy Xalq Respublikasining “Majburiy ta’lim” to‘g‘risidagi qonuniga muvofiq, 9 – yillik ta’lim davlat tomonidan majburiydir.

Xitoy boshlang‘ich maktablarida 140 mln. ga yaqin bolalarni o‘qishi yo‘lga qo‘yilgan. Har yili boshlang‘ich maktablariga 6 yoshli bolalarning 98.8% i qabul qilinadi. O‘rta maktablarda 60 mln. o‘quvchi o‘qiydi, oliy ta’lim tashkilotlarida esa talabalar soni 3 mln. dan ortiqni tashkil etadi.

O‘quv yili 1 – sentabrdan boshlanib, iyul oyining boshlarida yakunladi. Ta’limda talabalar bilimini baholash uchun kredit tizimi amal qiladi. O‘quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari va innovatsion pedagogik texnologiyalar tatbiq qilingan.

Turkiyada ta’lim siyosatining olib borilishi.

O‘zbekiston Respublikasi istiqlolga erishgach, uning mustaqilligini birinchi bo‘lib qardosh Turkiya Respublikasi tan oldi. Mamlakatlarimiz o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar, shu jumladan, ta’lim bo‘yicha hamkorlik tez rivojlanib bordi va u bizning xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarimizda yetakchi o‘rinlardan birini egalladi. Bu hamkorlikning natijasi o‘laroq, Respublikamizda 20 dan ortiq o‘zbek-turk hamkorligidagi litseylar tashkil etildi va ular yaxshi faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Har yili yuzlab o‘zbekistonlik o‘quvchilar va talabalar ta’lim olish uchun Turkiyaga

jo‘natilmoqda. Ayni vaqtida turkiyalik yoshlar ham Respublikamiz o‘quv tashkilotlarida bilim olmoqdalar.

Shuningdek, bu mamlakat bilan keng ko‘larnda ta’lim bo‘yicha mutaxassislar almashish yo‘lga qo‘yilgan. Har ikki mamlakatdan ta’limni boshqarish tashkilotlarining, o‘quv yurtlarining hamda ta’lim bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-metodik ishlar olib boruvchi mutaxassislar, o‘qituvchilar va tarbiyachilar bir-birlariga tashriflar uyushtirib o‘zaro tajribalar almashmoqdalar. Bularning barchasi ikki mamlakat maorifchilarining umumiy maqsad yo‘lidagi ishlarni rivojlantirishga hissa bo‘lib qo‘shilyapti. Turkiya Respublikasida ta’limning qo‘yilishining o‘ziga xos tomonlari borligini hisobga olib, u haqda to‘laroq ma’lumotlar berish o‘rinli deb hisoblaymiz. Respublikada hozir amaldagi ta’lim tizimlariga turk xalqining asl farzandi Kamol Otaturk asos solgan. Turkiya ta’lim tizimlari mamlakat Konstitustiyasi, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi qonunlar, «Milliy maorif vazirligining tuzilishi va vazifalari haqidagi 179, 208, 385- sonli qonunlarda hamda hukumat dasturlarida har tomonlarna chuqur ifodalangan. Respublika Konstitustiyasining 42-moddasida “Barcha kishilar ta’lim-tarbiya olish huquqiga egadirlar” deb yozib qo‘yilgan va fuqarolarning bilim olish huquqlari kafolatlangan. Turkiya Respublikasida barcha tipdagи ta’lim to‘la davlat nazoratida bo‘lib, bunday nazoratga kirmaydigan ta’lim-tarbiya maskanlarini ochish mumkin emas. Xususiy maktablar ham davlat ta’lim standartlari talabiga mos kelishi va davlat dasturlarini to‘la bajarishga majbur. Boshlang‘ich ta’lim barcha kishilar uchun majburiy, davlat maktablarida bepul o‘qitiladi. Majburiy ta’limdan so‘ng, uning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish istagini bildirgan, kam ta’minlangan oilalardan chiqqan bolalar davlat tomonidan stipendiyalar bilan ta’minlanadilar, ularga boshqa tegishli imtiyozlar ham belgilangan. Ta’lim tashkilotlarida faqat o‘quv-tarbiya ishlari, uni takomillashtirish bilan bog‘liq vazifalarnigina bajaradilar. Undan tashqari faoliyatlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Turk millatiga mansub kishilarga ona tili sifatida boshqa biror xorijiy davlat tilini o‘rgatish mumkin emas. Turkiya milliy maorifi tizimlarining umumiy tuzilishi quyidagicha: ta’lim tizimi bu mamlakatda ikki asosiy qismga bo‘linadi.

Ulardan birinchi qismi maktab ta'limi bo'lib, uning tarkibiga maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, o'rta va oliy ta'lim kiradi. Uning tarkibi quyidagicha:

1. Maktabgacha tarbiya bosqichiga maktab yoshiga etmagan bolalarni qabul qilish ixtiyoriydir. Maktabgacha ta'lim-tarbiya'ning maqsadi bolalarni jismoniy, aqliy va ahlokiy rivojlanishini ta'minlash, ularni maktab bosqichiga puxta tayyorlab berish, kam ta'minlangan o'quvchilarga sharoit yaratish, turk tilida to'g'ri va chiroyli gapirishni o'rgatishdan iboratdir. 1992 yilda Turkiyada 131023 bolani qamrab olgan 7763 bog'cha ishladi. Bu maktabgacha tarbiya ishidagi umumiy bolalar sonining 5 foizini tashkil etadi.
2. Boshlang'ich maktabda esa bolalar 6 yoshdan 14 yoshgacha ta'lim oladilar. Bu bosqichdagi maktab quyidagi maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi; a) har bir turk farzandiga yaxshi inson bo'lib kamol topish, bilimli bo'lish, uni milliy iftixor ruhida tarbiyalash va fikrlashga o'rgatish;
- 3) har bir turk farzandiga qiziqishi, qobiliyati va iste'dodlariga ko'ra ta'lim berish, ularni hayotga, o'qishning keyingi bosqichlariga puxta tayyorlashdan iborat. Boshlang'ich ta'lim tashkilotlari maktabgacha tarbiya bosqichidan so'ng ikki qismga: 5 yillik boshlang'ich va 3 yillik o'rta maktablar bosqichiga bo'linadi. Har ikki bosqich maktabini bitirganlik haqida o'quvchilarga attestat beriladi. Bu ikki bosqich maktab sharoitiga qarab bir maktab bazasida yoki alohida-alohida ikki maktab tarkibida tashkil qilinishi mumkin. Aholi siyrak va tarqoq qishloqlarda maktab markaziy qishloqlardan birida ochiladi, guruhlashtirish imkoniyati bo'limgan tumanlarda esa bu ta'lim bosqichi internatlar tipidagi o'quv tashkilotlari shaklida amalga oshiriladi.
3. O'rta ta'lim boshlang'ich ta'limga taya'nib, kamida uch yillik ta'lim beruvchi umumiy, kasbiy va texnik ta'lim tashkilotlarini o'z ichiga oladi. Uning asosiy maqsadi barcha o'quvchilarga umumiy o'rta ta'lim va shunga muvofiq umumiy madaniyat, inson va jamiyat muammolarini o'rgatish, ularni oliy ta'lim bosqichiga, hayotga, kasb-kor sohalariga tayyorlashdir. Bu maqsadlar o'rta umumiy ta'lim, turli dasturlarda kasb-kor o'rgatuvchi texnik-qurilish qishloq xo'jaligi yo'nalishlaridagi litseylarda amalga oshiriladi. O'quvning har bir bosqichi bo'yicha alohida-alohida dasturlar mavjud.

By dasturlar quyidagilardir:

-ta'limning oliy bosqichiga tayyorlash dasturi;

-kasbga va oliy ta'limga tayyorlash dasturi;

-hayotga, ishlab chiqarishga tayyorlash dasturi va xokazolar.

-litseylar o‘z turlariga va jumhuriyat ehtiyojiga ko‘ra quyidagicha ixtisoslashtirilgan:

-umumiylitseylar-o‘quvchilarni oliy ta’limga tayyorlaydi, 3 yil;

-fan litseylari-alohida fanlardan iqtidorli va ijodkor o‘quvchilar bilimini va qobiliyatini takomillashtiradi, 5 yil;

-kichiqlitseylar-kunduzgi litseylarda o‘qish imkoniyati bo‘lmaganlar uchun, o‘qish 4 yil;

-kasb-hunar litseylari o‘quvchilarga o‘z qiziqishlari 60‘yicha turli kasb-hunar o‘rgatadi, o‘qish muddati 3 yil;

-nafis san’at litseyi ona tili va adabiyoti, rasm, musiqa kabi bo‘limlarga ega;

-o‘qituvchilar litseylari boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha o‘qituvchilar tayyorlaydi. O‘qish muddati 1 yil tayyorlov kursini hisobga olganda 4 yil;

-tijorat va turizm ta’limi litseylari maishiy xizmat ko‘rsatish, savdo, umumiyl ovqatlanish shahobchalariga va boshqa sohalarga mutaxassislar tayyorlab beradi;

-diniytalim maktablari imom-xatib hamda din darsini o‘tuvchi o‘qituvchilar tayyorlaydi;

-maxsus ta’lim maktablari ular korrekstion maktablar bo‘lib, jismoniy-aqliy jihatdan nuqsoni bor bolalar uchun mo‘ljallagan;

-texnik litseylar-o‘quvchilarga umumiyl fanlar bilan bir qatorda industrial kasb-hunar ta’limini beradi.

Bundan tashqari Turkiyada qizlar kasb litseyi, qizlar texnik litseyi, qizlar san’at o‘rta maktablari, qizlar, o‘g‘il bolalar xususiy maktablari mavjud.

4.Oliy ta’lim mamlakatda oliy malakali turli kasb mutaxassisliklarini, ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga qodir kishilarni etishtirib beradi.

Turkiyada bunday mutaxassisliklar bo‘yicha hozir 235' universitetlar va oliy tsxnologik institutlar ishlab turibdi. Bu universitetlardan 2 tasi diniy mahkamalar tasarrufidadir.

Mamlakatdan tashqarida yashovchi turk millatiga mansub kishilarning (ular 2,5 mln. dan ortiq) ta’lim-tarbiyasiga ham katta ahamiyat beriladi. Hozir shunday toifadagi kishilarni o‘qitish uchun Turkiya hukumati tomonidan 1,236 ta o‘qituvchi ajratilgan.

Ularning barchasiga davlat tomonidan haq to‘lanadi. Turkiya hukumati «Milliy maorifining asosiy Qonuni»da maktab ta’limi bilan bir qatorda maktabdan tashqari ta’limga ham katta e’tibor berilgan. Maktabdan tashqari ta’limga qo‘yilgan asosiy talab katta yoshdagilarni o‘qish va yozishga o‘rgatish; ularga umumiylar va kasb-kor bilimlarini berish; savodxonlikdagi nuqsonlarini bartaraf etish kabi vazifalarni bajaradi, shuningdek, bunday tashkilotlar fuqarolarga, birinchi galda yoshlarga ijtimoiy hayotning ilmiy, texnologik, iqtisodiy, madaniy hayotiga to‘la moslashish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Shuningdek, MTTlar turli sohalarda mehnat qilayotgan kishilarning ishdan ajralmagan holda kasb malakalarini oshirishga imkoniyat tug‘diradi. Turkiya Respublikasida maktabdan tashqari ta’lim ikki manba orqali beriladi. Ulardan biri maktab bo‘lsa, ikkinchisi ustoz-shogirdlik yo‘nalishidir.

Ularning sohalar bo‘yicha dasturlari quyidagilar:

- 1.Umumiylar bo‘yicha dasturlari;
- 2.Kasb-hunar, texnik ta’lim dasturlari;
- 3.Shogirdlik va ustalik ta’limi dasturlari;
- 4.Ochiq ta’lim dasturlari va hokazolar.

Maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari tarkibiga bulardan tashqari amaliy san’at maktablari, qizlar amaliy san’at maktablari, yetuklik institutlari na yetuklik texnik ta’lim markazlari ham kiritilgan. Shuningdek, keyingi yillarda o‘quvchilar va talabalarning bo‘sh vaqtalarini ko‘ngilli va sermazmun o‘tkazishga katta ahamiyat berilmoqda.

Shu maqsadda til o‘rgatish markazlari musiqa, xalq o‘yinlari, foto, teatr studiyalari, shaxmat-shashka klublari, turli sayohatlar uyushtirish, lag yerda dam olishni tashkil qilish hamshiralik, rassomchilik to‘garaklari yo‘lga qo‘yilayotir, ular orqali turli tanlovlari o‘tkazishni amalga oshirilmoqda. Talabalar va o‘quvchilar uchun sportning turli sohalari bo‘yicha sekstiylar tashkil etilgan, ularda sportning ommaviy turlari bo‘yicha turnirlar, musobaqalar tashkil etilmoqda. Qizlar uchun esa qo‘lda to‘qish, bichish-tikish, pazandalik yo‘nalishlaridagi to‘garaklar mavjud. Ular tomonidan to‘qilgan, tikilgan, tayyorlangan mahsulotlar har yili Anqaradagi katta ko‘rgazmada namoyish etiladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

- 1.Yaponiya bog‘chalarida 8 kishilik kichiq guruh nima deyiladi?
- 2.Koreyada o‘quv yili qachondan boshlanadi?
- 3.Janubiy Koreya bog‘chalarida qanday darslar o‘tiladi?
- 4.Belgiyada maktabgacha ta’lim guruhlarining asosiy maqsadi nima?
- 5.Fransuz maktablarida o‘qish nechta bosqichda amalga oshiriladi?

12-Mavzu.Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi

Reja:

- 1.Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi.
- 2.Shaxning rivojlanishi va unga ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlar
- 3.Muhit va biogenetik omillarning roli.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi.

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruxiy va ijtimoiy jarayon bo‘lib, u barcha tug‘ma va egallagan miqdor va sifat o‘zgarishlarini o‘z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish bo‘yning o‘sishi, vazn va muskul kuchining ortishi, sezgi a’zolarining mukammallahishi, harakatlarni to‘g‘ri boshqara bilish va shunga o‘xshashlar bilan bog‘liqdir. Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixik sifat va belgilarning shakllanishi, emotsiyal (hissiy) irodaviy, bilish jarayonida muhim o‘zgarishlar yuz beradi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda, uning xulqida, tevarak-atrofga bo‘lgan munosabatida, ayniqsa jamoa ishlarida qatnashishda namoyon bo‘ladi. Kishining rivojlanishi bu miqdor o‘zgarishlarigina bo‘lib qolmay, bu avvalo kishi organizmi va ruhiyatida tevarak atrofdagi hayot ta’sirida yuzaga keluvchi sifat o‘zgarishlaridir.

Tashqi ta’sir ichki jarayon bilan qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi, masalan, bolaning yangi talabi bilan imkoniyati o‘rtasida yuzaga kelgan qarama-qarshilik yoki nomutanosiblik uning rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Boladagi mana shunday jismoniy va ruxiy o‘zgarishlarning yuz berishida, bolaning

rivojlanishi, ya’ni shaxsning shakllanishida biologic va ijtimoiy omil yetakchi rol o‘ynaydi.

Tabiiy va ijtimoiy omilning o‘zaro ta’siri shaxsning tarixiy va ontogenetik rivojlanishi jarayonida yuzaga keladi. Bu o‘zaro ta’sirni K.Marks quyidagicha ifodalaydi: “Odam tashqi tabiatga ko‘ra ta’sir etib uni o‘zgartiradi, shu bilan bir vaqtda u o‘z tabiatini ham o‘zgartiradi”. Boshqacha qilib aytganda, kishi tabiatining o‘zi tarixning mahsulidir. Kishi ijtimoiy faoliyat jarayonida o‘zidagi biologic, tabiiy xususiyatlarni yo‘qotmaydi, balki o‘zgartiradi. Inson tabiatning oliv mahsulidir.

Ma’lumki, har bir kishi faoliyatining biror turiga boshqa yurlarga nisbatan ko‘proq qobiliyatli bo‘ladi. Inson qobiliyat va qiziqishlarini amalga oshirish uchun tevarak-atrofdagi tabiat va kishilar bilan o‘zaro ta’sir etishga kirishadi. Uning tevarak-atrofdagi borliqqa nisbattan faol munosabati uning buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Kishi o‘zining talabini qondirish uchun tevarak-atrofdagi hayot va kishilar bilan o‘zaro faol ta’sirga kirishadi. Kishining dunyoga faol munosabati uning buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Ishlab chiqarish usuli, ishlab chiqarish munosabatlari va ular asosida yuzaga keluvchi ijtimoiy muhit, kishining faol ma’naviy hayoti uning shaxsi mazmunini belgilaydi.

Pedagogika shaxs tarixiy jarayonning obyekti va subyekti sifatida rivojlanadi deb uqtiradi. Faoliyat va tarbiya ta’sirida, jamiyat tomonidan yaratilgan g‘oyalar, qoida va normalarni o‘zlashtirish natijasida kishining shaxaga xos bo‘lgan xususiyat va sifatlari shakllanadi, mehnatga, mehnat mahsulotiga, odamlarga, o‘ziga nisbatan munosabati sistemasi shakllanadi. Kishi shaxsi uning jamiyatda tutgan o‘rniga, maqsadiga, hayotdagi roliga, nimaga asoslanib harakat qlishiga qarab belgilanadi.

Shaxning rivojlanishi va unga ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlar

Inson rivojlanishi juda murakkab jarayon. U tashqi ta’sirlar hamda ichki kuchlar ta’sirida sodir bo‘ladi. Tashqi omillarga insonni o‘rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo‘yicha maqsadga

yo‘naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi. Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (o‘yin, mehnat, o‘quv, sport va b) va muloqotga kiradi (ota-on, tengdoshlar, begona kishilar va b. bilan). Bunda u o‘ziga xos bo‘lgan faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallahsga yordam beradi.

Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, yetakchisi bo‘ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi. Bola tug‘ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o‘zlashtirib olishi mumkin. Bu o‘z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bili shva o‘zlashtirishda etakchi vazifani bajaradi. Shaxs rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchlari bo‘lib bola ehtiyoji va uni qoniqtirish imkoniyati o‘rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar hisoblanadi.

Insondagi biologik va ijtimoiy omillar bu bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan ikki parallel chiziqlar emas. Har bir shaxsda ular shunday chambarchas qo‘silib ketadiki, ularning farqlari shunday turli-tumanki, tadqiqotchilar bola rivojlanishi asosida ikki o‘ta muhim bo‘lgan omilni irsiyat va muhitni ajratadi. Ular (irsiyat va muhit) inson rivojlanishi manbalari va shartlari hisoblanadi.

Biologik va ijtimoiy omillar. Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson qiladigan umumiylizni hamda insonlarni tashqi va ichki jihatdan turli qiladigan farqlanishni aniqlaydi. Irsiyat deganda bolalar genetik dasturiga kiritilgan muayyan xislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga turli xil o‘xshashlik, xususiyatlarning o‘tishi tushuniladi. Irsiyatga ko‘ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuyg‘u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch teri rangi o‘tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat bo‘yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o‘tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko‘zda tutadi. Psixologik ma’lumotlarga

ko‘ra qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo‘la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo‘lishi uning hayot, talim-tarbiya jarayonlariga bog‘liq.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo‘lib tug‘ilayogan bolalar soni ko‘paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og‘ir kechadi. Shuning uchun ularga o‘qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug‘ullanishadi. Bu bolalar o‘z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. Shuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olarn bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir. Bola rivojlanishida irsiyat ahamiyati haqida gapirganda irsiy tabiatga ega bo‘lgan bir qator kasallik va patologiyalarning mavjudligini e’tiborga olish lozim.

Masalan, psixik buzilishlar (shizofreniya), qon kasalligi (gemofiliya), endokrin buzilishlar (pakanalik). Ota-onalar alkogolizm iva giyohvandligi nasl uchun salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tashqi omillar bo‘lgan atmosferaning, suvning ifloslanishi, ekologiyaning buzilishi ham bola rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy kamchilikli (ko‘rlar, karlar, tayanch-harakatlantiruvchi apparatning buzilishi va b) bolalar tug‘ilishi ko‘paymoqda. Shunday bolalar uchun muloqotda bo‘lish jamiyatga “kirish” ancha murakkabdir. Bular bilan maxsus tayyorlangan pedagoglar shug‘ullanadi.

Ijtimoiy omillar. Inson bo‘lib etishish uchun faqatgina biologik irsiyatning o‘zi kifoya emas. Inson faqat sotsiolizatsiya jarayonida, ya’ni muloqotda, boshqa insonlar bilan o‘zaro ta’sirda shaxs bo‘lib etishadi. Inson jamiyatidan tashqarida ma’naviy, ijtimoiy, psixik rivojlanishi sodir bo‘la olmaydi. Bu fikrni barchaga ma’lum hollar, ya’ni inson bolasi hayvonlar orasida o‘sgani yanada mustahkamlaydi.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko‘p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi.

Chunki, aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi. Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola astasekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muhitlar-maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Yosh ulg'aygan sari ijtimoiy muhit "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolani shakllantirishda, uning ijtimoiy tajriba toplashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.

Muhit-inson kirishishi, o'zini qulay sezishi uchun joylashuvinigina yetarli bilishi lozim bo'lgan ko'cha, uy va boshqa narsalar emas. Balki, muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan harakterlanadigan inson jamoalari hamdir. Shuning uchun inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir qiladi hamda o'zgartiradi va o'z o'rnila muhit ham inson oldiga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning xatti-harakatlarini qabul qilishi ham, inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ladi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o'zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko'nikishi tushuniladi.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo'lga kiritishi, muomala sohasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish sodir bo'ladi. Anglash sohasida o'z "men"i obrazini shakllantirish,

o‘zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o‘rnini anglash ro‘y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi. So‘nggi yillarda pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv hamda tarbiya tushunchalarining o‘zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Ba’zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Boshqalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o‘rganishadi. Ayrim olimlar esa ijtimoiylashuv deganda fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. To‘rtinchi guruh olimlari shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. To‘g‘ri tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligi hammaga ma’lum.

Ijtimoiy omillarni insonga ta’sir ko‘rsatishining tarkibiy qismi bo‘lgan tarbiya o‘z xususiyatlarga ega. Jumladan tarbiyaning bola rivojlanishiga ta’siri vaqt o‘tgan sari o‘zgaradi. Boshqacha qilib aytganda, bola qanchalik kichiq bo‘lsa, tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko‘p ta’sir ko‘rsatadi. Vaqt o‘tgani sayin tarbiyaning hissasi kamayib boradi.

Biroq boshqa bir jarayon-o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoni rivojlana boshlaydi. Bolaning o‘z shaxsini mukammallashtirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish bo‘yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma’lumki, o‘z-o‘zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi.

Tarbiya, o‘z-o‘zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy an'analar, maktab jamoasi, do'stlar, bolalar bog'chasi va boshqalar) ijobiy ta’siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayoni yuz beradi

Hozirgi kunda inson sivilizatsiyasi tarixida qayd etilgan bir qancha dalillar bor. Rim asoschilari Romul va Rem bo‘ri onasi bilan emizilgan edi (shunday deb afsonada gap yuritiladi), maugli bo‘rilar to‘dasida tarbiyalangan edi. Inson bolalarini bo‘rilar bilan boqilganining 15 hili, ayiqlar -5 hili, maymunlar -10 hili, leopard -1 hili, qo‘y-1 hili ma’lum.

1920 yili Hindistonda doktor Sing bo‘rilar uyasida bo‘ri bolalari bilan birga ikkita qizchani (biri 2 yoshda, ikkinchisi 7-8 yoshlarda) topgan. Kichigi Amala, kattasini Kamala deb nomlashdi.

Boshida ular o‘zini yovvoyi hayvonlardek tutdi. Tunda emaklab yurishardi va yugurishardi, kunduzi uqlashardi, qo‘ldan foydalanmay chapillatib ovqatlanishardi. Kichiq qizcha tezda o‘lib qoldi, kattasi 10 yilga yaqin yashadi. Shu yillar ichida doktor Sing Kamalani kuzatish kundaligini batafsid olib bordi. Qiyinchilik bilan o‘qirdi. 2 yil uni tik turishga o‘rgatishga to‘g‘ri keldi. 6 yildan so‘ng yura boshladi, lekin ilgaridek emaklab yugurardi. Birinchi 4 yillar ichida 6 ta so‘zni o‘zlashtirdi. 7 yildan so‘ng so‘z boyligi 45 ta so‘zga, 3 yildan so‘ng esa 100 gacha etdi. Shuni o‘zida til jarayoni to‘xtadi. Bu vaqtga kelib Kamala inson jamiyatini yaxshi ko‘rdi, yorug‘likdan qo‘rqmay qoldi, qo‘l bilan ovqatlanishga va stankandan ichishga o‘rgandi. 17 yoshga etgach Kamala rivojlanishi darajasiga qaraganda 4 yoshlik boladek edi. Bu hol shuni ko‘rsatadiki, odam oxir-oqibatda insonlar jamiyatiga tushib qolganida ham odam darajasiga etmagan. Nima o‘zi odamni odam qiladi? Biologik individni ijtimoiy sub’ektga aylanishi odam sotsializatsiya jarayonida, uning jamiyatga “kirishida”, turli xil ijtimoiy gurux va tuzilmalarga qadriyatlar, ko‘rsatmalar, ijtimoiy o‘zini tutish me’yor va namunalarini o‘zlashtirish orqali “kirishida” sodir bo‘ladi.

Sotsializatsiya uzluksiz va ko‘p qirrali jarayon. Bu jarayon ayniqsa, bolalik va bolalarlikda jadal kechadi. Agar bu jarayonni obrazli qilib uy qurilishi deb tasavvur qilsa, unda aynan bolalikda butun binoga poydevor qo‘yiladi va quriladi. Keyinchalik butun umr davomida faqatgina pardozlash ishlari olib boriladi. Bola sotsializatsiyasi jarayoni, shaxs sifatida uning shakllanishi va rivojlanishi atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirda sodir bo‘ladi.

Shaxs sotsializatsiyasining makro (grekcha macros “katta”), mezo – (mesos “o‘rta”) va mikro (micros “kichiq”) omillarini farqlaydilar.

Mikroomillarinson yashaydigan mamlakat, jamiyat, davlat hamda dunyoviy planetar jarayonlar-ekologik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vab.

Mezoomillar-etnik ko'rsatmalarni shakllantirish, shaxsning milliy hayot va etnikaro munosabatlarning u yoki bu hollarini qabul qilishi, insonlarning o'z eposi (xalqi) tarixi va hozirgi hayoti haqida qarashlari va fikrlari; bola yashaydigan va rivojlanadigan mintaqaviy shart-sharoitlarning ta'siri; yashaydigan joy turi (shahar, tuman markazi, qishloq); ommaviy kommunikatsiya vositalari va b.

Mikroomillar -yaqingina makonni va ijtimoiy muhitni tashkil qiladigan oila, ta'lim muassasalari, tengdoshlar guruhi va b. mana shu yaqingina muhitni, ya'ni bola o'sadigan muhitni sotsium yoki mikrosotsium deb atashadi.

Muhit va biogenetik omillarning roli.

“Shaxs” deganda kishining ijtimoiy mohiyati tushuniladi. “Shaxs” tushunchasi o'z ichiga har xil ta'sirlar va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllangan xususiyatlar, sifatlar yig'indisini oladi.

Pedagogika fani kishi shaxsining shakllanishida kishilar bilan munosabatda bo'lishning ahamiyati kata ekanligini ko'rsatadi.

Muhitning ta'siri to'g'risida gap ketganda, avvalo ijtimoiy muhit e'tiborga olinadi, chunki ijtimoiy muhit tushunchasiga shaxs yashayotgan jamiyatdagi moddiy sharoit, uning iqtisodiyoti, ijtimoiy va davlat tuzumi, ishlab chiqarish munosabatlari sistemasi va kishilarning shular bilan belgilangan turmush tarsi kiradi.

Kishi shaxsining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy omillarga: xalq maorifining barcha bo'g'inlarini o'z ichiga oluvchi hamma o'quv-tarbiya muassalari, maktabdan tashqari, madaniy-ma'rifiy muassasalar, ijtimoiy tashkilotlar, axborotni tarqatish ommaviy vositalari va oila kiradi.

Inson ijtimoiy muhitning mahsulidir. Bu muhit o'zgarishi bilan insonda ham o'zgarishlar yuz beradi. Inson shaxsida uning o'zi yashab turgan ijtimoiy muhit, ya'ni uning hayot sharoiti, qaysi sinfga mansubligi va hokazolar aks etadi. Ijtimoiy sharoit tubdan o'zgarsa, kishining ma'naviy qiyofasi ham butunlay o'zgaradi.

Insonning ijtimoiylashishi, jamiyatga kirib kelishi oiladan boshlanadi. Kishi shaxsining shakllanishida oilaning roli benihoya kattadir. Oil a kishida dastlabki ijtimoiy va axloqiy tasavvurlarning, xarakterning shakllanishi uchun shart-sharoit

yaratadi, hissiy sohaning rivojlanishiga ta'sir etadi. Bolaning oilada tutgan o'rni shu oilada nechta bola tarbiyalanishiga ham bog'liq. Bolani qurshab turgan kattalar uning hayotini saqlash sog'ligini mustahkamlash, uni noxush ta'sirlardan himoya qilish, teverak-atrofdagilari bilan munosabatda bo'lishi haqida g'amxo'rlik qiladilar.

Bola mакtabga borishi bilan uning ijtimoiy aloqasi ancha tezlashadi. Maktabda bola sinfdagi o'rtoqlari, bolalar va yoshlar tashkilotlari, o'qituvchilar jamoasi va tarbiyachilar bilan muomalaga kirishadi. Shu bilan bir vaqtida bolaning maktabdan tashqari munosabatlari doirasi ham kehgayadi. Bu vaqtida endi teatr, muzey, kinoteatr, kutubxonalar kabi madaniyat o'choqlari bolaning ma'naviy dunyosi shakllanishida ijobjiy ta'sir ko'rsatadi va uning shaxsiy qiziqishlarini uyg'otadi. Bola maktabdoshlari, ota-onalari bilan jumhuriyatimizning turli joylarida yoki boshqa davlatlarda bo'ladi, bular bolada kata taassurot qoldiradi.

Bola mакtabga borgandan keyin ham oilaning ta'siri bola shaxsining shakllanishida muhim o'rnini egallaydi. Bola dunyoqarashining shakllanishida oiladagi umumiyl axloqiy mihit ota-onalarning g'oyaviy e'tiqodi, ijtimoiy faolligi, mehnatga munosabati kata ta'sir ko'rsatadi. Agar oilada nosog'lom axloqiy muhit hukm sursa, maktabda berilgan ta'lim bilan oilaviy ta'sir o'rtasida, bolaning dunyoqarashida qarama-qarshilik yuzaga keladi. Bu vaqtida mакtab oilaga, bolaning ongiga ta'sir e'ishda yetakchi rol o'ynashi, uning hayot yo'lini tanlab olishida unga yordam berishi lozim.

Kishi shaxsi uning butun hayoti davomida shakllanib boradi, ammo mustaqil mehnat faoliyatiga o'tgan vaqtida uning xarakteridagi asosiy xususiyatlar tarkib topgan bo'ladi. Mehnat jamoasida bir necha yil ishlagandan keyin u ishlab chiqarishda yosh kadrlarga murabbiylik qilishi, oilaviy turmush qurgandan keyin dunyoqarashida ham o'zgarishlar yuz beradi. Endi u to'plagan va idrok etilgan hayotiy tajribani yosh avlodga o'rgata boshlaydi.

Demak, inson shaxs sifatida tabiat in'om etgan hamda tarbiya va ijtimoiy shakllanish sharoitlariga qarab muayyan tarzda rivojlangan iste'dodlar hamda uning butun hayoti davomida atrofdagi voqe'lik bilan o'zaro aloqasi vositasida hosil

bo‘lgan xususiyat va xislatlarning murakkab majmuidan iboratdir. Natijada har bir kishining shaxsiyatida unga muayyan jamiyatning vakiliga, uning ijtimoiy guruhiga xos ijtimoillashtirilgan xususiyatlar hamda shaxs sifatida unga mansub bo‘lgan o‘ziga xos psixologik xususiyatlar bo‘lishi mumkin. Bu xususiyatlar esa barcha tashqi omillarning shaxsga ta’siri natijasida yuzaga keladi va uning o‘ziga xos xulq-atvoriga namoyon bo‘ladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

- 1.Shaxsga ta’sir etuvchi ichki faktorlarni sanab bering.
- 2.Shaxsga ta’sir etuvchi tashqi faktorlarni tushuntiring.
- 3.“Shaxs” atamasiga ta’rif bering.
- 4.Shaxsga ta’sir etuvchi biogenetik omillarga misollar ko‘rsating.

13-Mavzu. Hozirgi jamiyatda murabbiy tarbiyachilarga qo‘yilgan talab va vazifalari

Reja:

- 1.Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo‘yilgan talablar.
- 2.Tarbiyachi shaxsini shakllantirish.
- 3.Pedagog-tarbiyachining nutq madaniyati.

Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo‘yilgan talablar.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan ulkan islohatlarning muvaffaqiyatga eng avvalo odamlarning o‘z ishlariga mas’uliyat bilan qarashlariga, kundalik mehnat faoliyatida mamalakat taraqqiyotiga hissa bo‘lib qo‘shiladigan savobli ishlarni qila olishlariga bog‘liq. Jamiyatda pedagog (o‘qituvchi, tarbiyachi) birinchidan, o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlarna bilim berishdek savobli va ma’suliyatli vazifalarni bajaradi.

Maktabgacha pedagogika fani bu kelajak, istiqbol uchun meros qilib qoldiriladigan boylikdir. Bu boylikning qadr-qimmati shu qadar buyukki, u odamni ma’naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to‘ldiradi. Dunyoda biror

kimsa yo‘qki, uning ustozi bo‘lmasa. U hukumat rahbarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mehrini qozongan yozuvchimi yoki qo‘li gul kosibmi, qo‘yingki, barcha-barchanining o‘z ustozi va hayot yo‘lini charog‘on etib turuvchi yo‘lboshchisi bo‘ladi.

Ustozning eng buyuk burchi-uning xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli, uquvli shogirdlar tayyorlashidir.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va fahrli shu bilan birga ma’suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o‘z ma’suliyatini anglashga ta’lim-tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o‘z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o‘sishiga ko‘maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o‘zi yashab turgan o‘lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo‘lishi kerak. Respublikamiz rahbariyati pedagoglar faoliyatini yuqori baholarnoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh .M.Mirziyoev tashabbuslari bilan jumhuriyatimizda pedagog xodimlarning oylik maoshlari yildan-yilga oshirilib, turmush sharoitlari yaxshilanib kelinmoqda. Pedagog xodimlarni malakasini oshirish ilmiy-metodik markazlari kengaytirilmoqda, ularning siyosiy tayyorgarligiga talab kuchaytirilmoqda, har 4-5 yilda qayta tayyorlashdan o‘tishlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma’lum bir kasbga yo‘naltirish og‘ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta’lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga shunday ta’rif beradi: “Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo‘l, avvalo ta’lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan beba ho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo‘lgan yana bir buyuk zot-o‘qituvchi va murabbiylarning oliyjanob mehnatini hurmat bilan tilga

olarniz... Muxtasar qilib aytganda, maktab degan ulug‘ dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta’sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o‘qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydi” degan edi. Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O‘zbekistonning istiqboli, ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachi-o‘qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta’lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog‘liq. Ma’lumki, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayon bevosita o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarining dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish va kasbga yo‘naltirish o‘qituvchilar zimmasiga yuklatilgan.

Tarbiyachi shaxsini shakllantirish.

Tarbiya-o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo‘lib, tarbiyalanuvchini ma’lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta’sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlarna shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo‘naltirilgan qizg‘in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma’naviy boyligi va his-tuyg‘ulari rivojlanadi, o‘zida ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topish uchun zarur bo‘lgan, kishilar bilan o‘zaro munosabatni to‘g‘ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo‘ladi Tarbiya xususida taniqli o‘zbek adibi Abdulla Avloniyning “Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot-yo falokat, yo saodat-yo razolat masalasidur”- deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqatdir.

Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir.

O‘z faoliyatini endigina boshlayotgan o‘qituvchilar va doimiy izlanishda bo‘lgan tajribali o‘qituvchilar ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda o‘quvchining ichki va tashqi dunyosini to‘g‘ri tushunish malakasi;
- pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;
- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;
- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlarna puxta baholay olish qobiliyati;
- xilma-xil pedagogik taktlardan o‘zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati;
- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to‘g‘ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta’sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati;
- fikr va mulohazalarini so‘z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o‘quvchi ongiga aniq yetkaza olish;
- dars va darsdan tashqari faoliyatda o‘quvchilar bilan kommunikativ aloqa o‘rnata olish qobiliyati;
- o‘quvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o‘z fikr mulohazalarini qo‘rmasdan bayon qilish ko‘nikmalarini tarbiyalash;
- qiyin holatlarda o‘quvchilarga yordam bera olish;
- tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishda o‘quvchilar jamoasi bilan doimo maslahatlashish;
- o‘tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar yuzasidan o‘quvchilarning fikrlarini o‘rganish;
- o‘z-o‘zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;
- har bir o‘quvchining yashirin ijobiy fazilatlarni ko‘ra olish va takomillashtirish;
- o‘quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo‘lish.

Pedagog-tarbiyachining nutq madaniyati.

Ma'lumki, uzoq o'tmishga ega bo'lgan o'zbek xalqi ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, mehr-oqibat, birodarlik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlari ham ana shu boy merosning tub negizini tashkil etadi.

Tariximizga, madaniyatimizga yangicha nazar bilan qaray boshlasak. Shuningdek, o'z yechimini kutayotgan muammolarni ijobiy hal qilishga bel bog'ladik.

Barcha sohalar singari ona tilimiz va u bilan bog'liq muammolar ham asta - sekin yechimini topmoqda. Xususan, nutq madaniyatiga doir masalalarni hal qilishda tilshunos olimlarimizning mehnatlari, izlanishlari tahsinga loyiqidir. Taniqli tilshunos olim Nizomiddin Mahmudovning «Til», «Ma'rifat manzillari» nomli, Nusratilla Jumaxo'janing «Istiqlol va ona tilimiz» kabi risolalari ana shu sohadagi izlanishlarning yorqin misolidir. Nutq madaniyati jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohatlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizning «Davlat tili» haqidagi Qonuni, «Ta'lim to'grisida»gi Qonuni, va boshqa hujjatlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, til masalalariga alohida e'tibor berilgan. Har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining chnnakam sohibi bo'lmog'i lozim.

Nutq madaniyati hozirgi davr tilshunoslik o'anining dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammoni hal etish umummadaniyatimiz taraqqiyoti, shuningdek, oliv maktablarda, o'rta maxsus o'quv yurtlarida, o'rta maktablar va umuman dars o'tish jarayonini yaxshilash bilan ham bog'liq, Shuni qayd qilish kerakki, bugungi kunda tarbiyachi nutqi madaniyati kursini barcha o'quv yurtlarida o'rgatish quvonarlidir. Chunki notiqlik san'ati sirlarini o'rganish, o'z fikrini bayon qilayotgan, har bir til

vositasini kerakli va lozim bo‘lgan o‘rinda qo‘llash, mantiqan barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis uchun, umuman, har qanday madaniyatli kishi uchun hayotiy zarurat deb hisoblanishi kerak. O‘zbek adabiy tili va uning normalarini ilmiy o‘rganish ham o‘zbek nutqi madaniyati sohasi uchun nihoyatda muhimdir. Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarining adabiy til me’yorlarining umumiy holatini, undagi turg‘un va noturg‘un hodisalarni chuqurroq tekshirmay turib adabiy tilning nutq madaniyati haqida gapirish aslo mumkin emas. Til ham, fe’l-atvor ham odamga qon bilan kirib uning butun jismu joniga taralib ketuvchi an’analar ekan, bularga e’tibor bermaslik, hamisha katta-kichik fojalarni keltirib chiqaradi.

“Tarbiyachi nutqi madaniyati” fanining predmeti, uning maqsadi va vazifalari.

Nutq madaniyati salomlashish madaniyati, ovqatlanish madaniyati kabi muayyan jamiyatga xos bo‘lgan, ko‘pchilik tomonidan me’yor sifatida qabul qilingan madaniyatlar tizimidagi bir halqadir. Ana shu halqalarning o‘zaro zich munosabatidan shu jamiyatning madaniyati vujudga keladi. Demak, nutq madaniyati ma’lum bir jamiyatning muayyan bir davrdagi milliy madaniyatning tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham bizning ajdodlarimiz nutq madaniyatiga alohida ahamiyat bergenlar. Xususan, halifa Abdulmalik nutq madaniyatiga, notiqlik san’atiga ega bo‘lmagan, til go‘zalligini namoyish eta olmaydigan kishi hokimiyatni boshqarishi mumkin emasligini e’lon qildi. Natijada jamiyatda, hokimiyatni boshqarishda, fan sohasida katta yutuqqa erishish uchun har bir shaxs o‘z ona tilining boy imkoniyatlarini to‘la egallashi va uni amalda qo‘llay olishi shart qilib qo‘yildi.

Nutq madaniyati haqida fikr yuritishdan oldin nutqning o‘zi nima? Uning til bilan aloqasi qanday, degan savollarga javob berish kerak bo‘ladi. Hozirgi kunda til va nutq bir-biridan izchil ravishda farqlanadi. Bunday farqlanish tilshunoslik fanida mashhur Shvetsariya olimi Ferdinand de Sossyurdan boshlandi. U o‘zining "Umumiy lingvistika kursi" asarida bu ikki

tushunchani bir-biridan aniq farqlab berdi. Biz bevosita fikr almashish jarayoinida ma'lum bir xalqning uzoq davrlardan beri foydalanib kelayotgan aloqa vositasini ishga solamiz. Fikr almashish jarayoni nutqiy jarayon yoki nutqiy faoliyat hisoblanadi.

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misrda, Assuriyada, Vavilion va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lganligi notiqlik san`ati tajribasidan ma'lum. Bu davrda davlatning, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqliknini san'at darajasiga ko'tardi. Chunki u paytlarda davlat arboblarining obro-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'at sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug'langan. Bu ikki san'atni mukammal egallagan kishilargina yuqori lavozimlarga saylanganlar.

Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Farobi to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo'rliги haqida shunday deydi: «Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...»

Kaykovus tomonidan 1082-1083-yillarda yaratilgan, Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri hisoblangan «Qobusnomá»da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar aytilgan. Asar 44 bobdan iborat bo'lib, uning 6-7 boblari so'z odobi haqidadir. Muallif farzandiga qilgan nasihatlari orqali o'quvchini yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So'zlaganda o'ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko'z oldiga keltirib gapishtirish kerakligini, kishi kamtar bo'lishi, o'zini xalq orasida oddiy, kamtar tutishi lozimligini eslatib, mahmadonalik qilish, ko'p gapishtirish donolik belgisi emas... «Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo'lsang

ham, o‘zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so‘z bilimdonligi vaqtida bekor bo‘lib qolmagaysan. Ko‘p bilu, oz so‘zla, kam bilsang, ko‘p so‘zlama, chunki aqlsiz kishi ko‘p so‘zlaydi, deganlarki, jim o‘tirish salomatlik sababidir. Ko‘p so‘zlovchi aqli odam bo‘lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi...»

Ulug‘ shoir Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo‘lgan «Qutadg‘u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim») asarida so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va to‘g‘ri qo‘llash haqida:

«Bilib so‘zlasa so‘z bilig sanalur» degan edi. Qisqa so‘zlash, so‘zlarga iloji boricha ko‘proq ma’no yuklash haqida:

Ugush so‘zlama so‘z biror so‘zla oz,

Tuman so‘z tugunini bu bir so‘zla yoz.

deydi. Mazmuni;

So‘zni ko‘p so‘zlama, kamroq so‘zla. Tuman (ming) tugunini shu bir so‘z bilan yech. Gapirishdan maqsad so‘zlovchi ko‘zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to‘g‘ri, ta’sirchan yetkazishdan iborat. Shunday ekan, nutqning to‘g‘riliqi, raxonligi va mantiqiyligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir so‘zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda, hovliqmasdan, so‘zning ma’nolarini yaxshi anglab, nutqni raxon qilib tuzishga chaqiradi.

Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko‘rsatmalarda sodda va o‘rinli gapirish, qisqa va mazmundor so‘zlash, ezmalik, laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to‘g‘ri, rost va dadil gapirish, yolg‘onchilik, tilyog‘lamalikni qoralash va boshqalar haqida gap boradi

A.Navoiy to‘g‘ri, qisqa, lo‘nda, yoqimli, mantiqli, tushunarli, jo‘yali aniq va ta’sirli nutq haqida o‘ziniing «Arbain» asarida, shuninigdek, «Xamsa» asaridagi besh dostonning har birida ham ajoyib fikrlarni aytib o‘tgan.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi pedagogining nutq madaniyati uning nutq faoliyati va qismlarini to‘laqonli o‘z ichiga oladi. Nutq madaniyatining barcha

tarkibiy qismlari uchun ma'lum normalar mavjud bo'lib, ular, birinchi navbatda, muloqot normalari sifatida namoyon bo'ladi:

- kognitiv (boshqalarni idrok etish va ularni tushunish);
- affektiv (boshqasiga munosabat);
- xulq-atvor (muayyan vaziyatda xatti-harakatni tanlash);
- etik normalar;
- kommunikativ normalar.

Kommunikativ va etik normalar o'zida aniq qoidalarni namoyon qiladigan nutq kompetensiyasining normalaridir. Bola uchun eng muhim omil bu qulog'i bilan eshitadigan so'zlaridir. Bejizga bolalarga xushmuomala bo'lish nafaqat fanda, balki dinda ham buyurilgan. Chunki bolalarga atrofidagi shaxslarning nutq madaniyati va muomila layoqati ruhiy holatiga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Pedagog qaysi bosqichda pedagog bo'lishidan qat'i nazar, doimiy muloqotga kiruvchi kasb egalaridan biri hisoblanadi. Tarbiyachi-pedagoglar bolaning aynan shakllanayotgan davrining "bog'bon"lari hisoblanadi. Shuning uchun ham tarbiyachi-pedagogda ta'lim va tarbiya jarayonidagi har bir kompetensiya va elementlar katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarning asosiy tarbiya va munosabatlarni o'rgatadigan oiladan keyingi asosiy makon hisoblanadi. Tarbiyalanuvchilar tashkilotda doimiy ravishda muloqot va o'zini tutish va boshqa shu kabi muhim xislatlarni aynan shu yerda o'zlashtiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiya-lanuvchilarga ta'sir ko'rsatish uchun, eng avvalo, tarbiyachi-pedagogda eng muhim Tarbiyachi faoloyatida nutq, muloqot alohida o'ringa ega. Chunki tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasida nutqiy muloqot asosiy o'rin egallaydi. Shu bois tarbiyachi nutqiga bir qancha talablar qo'yiladi. Har bir tarbiyachi-pedagog nutqiga qo'yilgan talablarni juda yaxshi bilgan holda o'z nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etib borishi kerak.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

- 1.Tarbiya atamasiga ta'rif bering.
- 2.Nutq nima?

- 3.Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
- 4.Tarbiyachi o‘z faoliyatining mohir ustasi bo‘lishi uchun qaysi jarayonlarni mukammal o‘rganishi zarur?

14-Mavzu. Davlatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga qo‘yilgan talablar

Reja:

- 1.Davlatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga qo‘yilgan talablar.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari.
- 3.Davlat talablarining asosiy tushunchalari.

Davlatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga qo‘yilgan talablar

Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e’tiborga olib ta’lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib boorish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunga xalq og‘zaki ijodi, pedagogikasi, mutafakkir, ma’rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga axloq-odobga doir g‘oyalarini o‘rgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda.”Kelajak bugundan boshlanadi” deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko‘rsatuvchi ruhiy va ma’naviy jarayonning mezonini belgilaydi. Bu borada ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta’limni ilg‘or tajribalar asosida boyitib borish, yangi pedagogik tajribalar asosida olib boorish ayniqsa muhimdir. Xalq musiqasi og‘zaki ijodiyoti, an’analari, urf-odatlari asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni ko‘proq o‘z millatini sevishga g‘ururlanishga shorqano g‘oya va ta’limotlarni o‘rganib ularni kelajakka tadbiq etishga zamin yaratiladi.Mustaqil Respublikamizda milliy madaniyatimizni o‘ziga xosligini tiklash, umumta’lim mакtablarida o‘quvchilarni badiiy, axloqiy tarbiyalash va kamol toptirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Ma’naviy yetuk millat qadriyatlarni to‘g‘ri baholashga va uni yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Demak, jamiyat ma’naviyatining o‘sishi qadriyatlardan keng foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratib, qadriyatlarni yanada rivojlantirishga zamin

hozirlaydi. Qadriyatlar ta’rifidan kelib chiqib, umuminsoniy qadriyatlarni quyidagicha ta’riflash mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq holdagi qadriyat shaklidir. Umuminsoniy qadriyatlar millatning tarixini yashash tarzi, ma’naviyati, madaniyati orqali namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida umuminsoniy qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy hodisani ifodalaydi. Ma’naviyat milliy urf-odatlar, tarbiya an’analari, axloq-odob aqidalari, e’tiqod, madaniy-ma’rifiy jarayonlar majmuasidir. Ma’naviy qadriyatlar bu falsafiy va ijtimoiy tushunchalar bo‘lib, insonni o‘rab olgan atrof-muhitni amaliy jihatdan o‘zlashtirish natijasida vujudga keladi. Ta’lim tarbiya jarayonida ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy tarixiy hodisani ifodalaydi. Umuman aytganda bugungi yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashdan maqsad, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish bilan birga jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy salohiyatini ko‘tarishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi ta’lim va tarbiyani milliy shakllantirishga va rivojlantirishga keng yo‘l ochib berdi. Milliy tarbiya nazariyasini o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, adabiyot, etika, estetika, pedagogika, psixologiya kabi fanlardan foydalanadi. Milliy tarbiya hayotning mohiyati ichki aloqa va munosabatlarini aks ettiradi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo‘lgan yoshlar emas, ijodkor, iste’dodi bilan ajralib turuvchi o‘quvchilarni tarbiyalash zamon talabidir. Maktabda ta’lim olish davrida milliy tarbiya o‘quvchilarni turli qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tabiatga, jamiyatga qarash tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari yanada mustahkamlanadi, juga kata e’tibor bergen O‘rta Osiyolik mashhur musiqachilar orasidagi olim bolaning yoshi ulg‘aygan sari bu faoliyat tobora ko‘proq mustaqil xususiyatga ega bo‘lib boraveradi. Tabiat va jamiyat turmushda uchraydigan hodisa va sharoitlarni tushunishga ham idrok etib o‘z atrofidagilarga munosabatda bo‘lishiga ko‘nikib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy tarbiyaning mazmuni va tashkil etilishi quyidagi vazifalarda o‘z aksini topadi;

1. Tarbiyaning ma’lum maqsadga qaratilganligi.
2. Tarbiyaning insonparvarlik qoidalari.
3. Tarbiyaning hayot bilan va mehnat bilan bog‘liqligi.
4. Tarbiyada milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi.
5. O‘quvchilarni yoshi, sinfi, psixologik, fiziologik xususiyatlarini hisobga olish.

O‘zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari

O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PK-2707-son" 2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son "O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risida"gi nizomi va "Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida"gi qaroriga asosan Davlat talablari qabul qilindi³. Davlat talablari O‘zbekiston Respublikasi hududida mulkchilik shakli va idoraviy tasarrufidan qat’iy nazar, quyidagi ta’lim muassasalarida qo‘llaniladi:

- davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;
- nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari;
- maktabgacha yoshdagi guruhlari mavjud bo‘lgan "Mehribonlik" uylari.
- maktabgacha ta’lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim turlari bo‘yicha pedagogik kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshirish muassasalarida xodim va rahbarlar Davlat talablariga rioya qilishlari lozim.

Davlat talablarining maqsadi mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy

islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Davlat talablarining asosiy vazifalari:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta’lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta’lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash.

Davlat talablarining tamoyillari:

- bolaning noyobligi;
- “Men” konsepsiysi va shaxsiy ta’limini yaratishda bolaning faol roli;
- bolaning huquqlarini himoya qilish va ta’minlashning muhimligi;
- bola ta’limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;
- bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mayjudligi sababli, har bir bolaga moslashuvchan bo‘lib, individual variativlik asosida yondashuv.

Davlat talablarining asosiy tushunchalari

- Maktabgacha ta’lim maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishlari.
- Individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, ma’naviy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma’naviy me’yorlarning shakllanishi, hayotiy ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan har tomonlarna rivojlantirishga qaratil gan yaxlit jarayon:
- rivojlanish inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof-muhit ta’sirida ro‘y beradigan o‘zgarishlar:
- rivojlanish sohasi bola rivojlanishidagi aniq bir yo‘nalishlar: kichiq soha sohaning kichiq guruhlari. Asosiy sohalarni kichiq sohasi rivojlanishning ma’lum bir

tomonlarini o‘z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo‘nalishini ko‘rsatib beradi; -kutilayotgan natija bolalardagi bilim, ko‘nikma va malakalar ko‘rsatkichi; -bola kompetensisi ma’lum bir yosh davriga xos bolgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo‘lgan bolaning bilimi, ko‘nikmasi va malakalari hamda qadriyatları: -integratsiya bola ta’limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlik:

-inklyuziv ta’lim bolalarning alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta’lim va tarbiya olinishini teng ta’minlovchi jarayon;

-"Men" konsepsiysi bolaning o‘zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uni refleksiv faoliyatining bir qismi;

-refleksiv faoliyat bolada o‘z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni.

Davlat talablari tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo‘lingan. Har bir rivojlanish sohasi o‘z o‘rnida kichiq sohalarga bo‘lingan bo‘lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan va kutilayotgan rivojlanish ko‘rsatkichlaridan iborat.

-jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;

-ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

-nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;

-bilish jarayonining rivojlanishi;

-ijodiy rivojlanish.

1."Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi quyidagi kichiq sohachalarga bo‘linadi:

-yirik motorikani rivojlantirish;

-mayda motorikani rivojlantirish;

-sensomotorikani rivojlantirish;

-sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik.

-yirik motorikani rivojlantirish bunda bola yurish (tez va sekin), yugurish (tez, sekin va ilon bo‘lib), sakrash (uzunlikka va balandlikka), zina bo‘ylab yuqoriga yurish

(yurish, yugurish, sakrash) vaqtida o‘zining tana a’zolarini boshqarishni o‘rganadi.
-mayda motorikani rivojlantirish bunda bola biror bir faoliyatni yanada aniqroq bajarish (ushlash, olish, yopish, qirqish, bo‘lish) uchun o‘z qo‘llari va barmoqlarini ishlatish va ulardan foydalanish malakasiga ega bo‘ladi.

Sensomotorikani rivojlantirish bunda bola o‘z harakatlarini boshqarish uchun sezgi organlaridan (ko‘rish, eshitish, qo‘l bilan his qilish, hid bilish) foydalanadi.

-madaniy gigiyenik ko‘nikmalarni rivojlantirish bunda bola o‘z sog‘lig‘ining muhofazasiga ta’sir etuvchi shaxsiy gigiyenik malakalarini egallaydi.

-bola hayoti xavfsizligini ta’minlash o‘zini himoya qilish, shikastlanishni oldini olish (daraxtlarga chiqmaslik, zinaning panjarasini ushlab tushish, qaychi va boshqa predmetlardan extiyotkorlik bilan foydalanish) kabi vazifalar yoritilgan.

Bolalarning jismoniy rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va uning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash, doimiy ravishda bolalarning jismoniy rivojlanishini tahlil qilib borish, bolalarning jismoniy rivojlanishi bo‘yicha ota-onalar bilan hamkorlik qilish, sog‘lom turmush tarzining muhimligini tushuntirish va uni ta’lim-tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish. "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi quyidagi kichiq sohalari”

-“Men” konsepsiysi:

-hissiyotlar va ularni boshqarish;

-ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

1.“Nutq. Muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasi quyidagi kichiq sohalarga bo‘linadi:

-nutq va til;

-o‘qish malakalari;

-qo‘l barmoqlari mayda motorikasi.

2.“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi qo‘yiladi kichiq sohalarga bo‘linadi:

-intellektual-anglash malakalari:

-elementar matematik malakalar:

-tarkibiy va samarali refleksiv faoliyat.

3.Elementar matematik bilim va ko‘nikmalar bunda bolaning matematik, jumladan son-sanoq malakalarini rivojlantirish orqali matematik bilimlarini orttirish, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini, son-sanoq, miqdor, shakl, kattaliklar va o‘lchov birliklaridan foydalanish malakalarini rivojlantirishga erishiladi, bola son-sanoq va hisoblashga oid bilimlarini namoyon qilishi, predmetlarni toifalash, guruhlash va tartib bo‘yicha joylashtirish qobiliyatini namoyon qilishi lozim.

4.Atrof-muhit to‘g‘risidagi bilimlar bunda bola kuzatish va amaliyot orqali atrof-muhit to‘g‘risida axborot oladi, jonli va jonsiz tabiatni kuzatishi va ta’riflay olishi, inson tana a’zolarini bilishi lozim.

1.Ijod bunda bola milliy madaniy meros va madaniyatni hurmat qilishga va o‘z hissiyotlarini musiqa, teatr va tasviriy faoliyat orqali ifodalashga o‘rganadi. Bola turli tovush va ovozlarni, tovushlarning balandligi va tembiga ko‘ra farqlay olish, jamoa bo‘lib musiqiy faoliyatlarda ishtirok etishga qiziqish bildirishi, cholg‘u asboblarida chalish malakalarini namoyon etishi, amaliy faoliyatda ishtirok etishga qiziqish bildirishi lozim.

2.O‘yin faoliyati - boladagi ijodkorlik layoqatini, o‘yinlar uchun g‘oyalar o‘ylab topishini, yangi o‘yinlar tashkil etish istagini rag‘batlantirish. Bolani tengdoshlari bilan ahil o‘ynashga, o‘yinchoqlari bilan o‘rtoqlashishga odatlantirish. Bolaga o‘yinlarda o‘z imkoniyatini haqqoniy baholashga va achchiqlanmasdan mag‘lubiyatni tan olishni o‘rgatib borish.

Mazkur Davlat talablari maktabgacha yoshdagagi bolalarning psixologik xususiyatlari turli yosh bosqichlari orqali yoritib berilgan. Bunda asosiy psixologik xususiyatlar:

- fikrlash;
- nutq;
- ijtimoiy bilish jarayoni;
- fiziologik sezgilar;
- bilish obyektlari;

- bilish usullari;
- muvaffaqiyatli o‘zlashtirish shartlari;
- muloqot yuritish shakli;
- tengdoshlari bilan munosabatlari;
- katta yoshdagilar bilan munosabatlari;
- nizolar mavjudligi;
- his-hayajonlar;
- o‘yin faoliyati bo‘lib hisoblanadi.

4."Ijodiy rivojlanish" soha quyidagi kichiq sohalarga bo‘linadi:

- dunyoni badiiy tasavvur etish;
- badiy-ijodiy qobiliyatlar.

Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- go‘daklik (tug‘ilgandan 1 yoshgacha);
- erta yoshdagи bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);
- kichiq maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);
- o‘rta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha);
- katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);
- maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha).

Davlat talablari Vazirlar Mahkamasi qoshidagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi va "Oila" Respublika ilmiy-amaliy markazi bilan kelishilgan holda ishlab chiqilgan.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

- 1.Davlat talablari asosida yosh davrlari qaysi bosqichlarga bo‘linadi?
- 2.Bolalarning ijodiy rivojlanish sohasi necha bosqichga bo‘linadi?
- 3.Bilish faoliyati rivojlanishi qaysi sohalarga bo‘linadi?
- 4.“Ilk qadam” dasturi qachon qabul qilingan?
- 5.“O‘zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” nechinchi yildagi bilan faoliyat yuritilayapti?

15-Mavzu. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yosh guruhlari.

Reja:

- 1.3-4 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari
- 2.4-5 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari
- 3.5-6 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari
- 4.6-7 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari

3-4 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari

Bola 3 yoshga qadam qo‘yganda jismoniy o‘sishi bir qadar sekinlashadi. Bu davrda uning og‘irligi 14-15 kg., bo‘yi 90-95 sm. ga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. 3 yoshli bolalar qisqa muddat davomida o‘z xatti-harakatlarini idora qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Ulardagi mustaqillik ortib boradi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo‘lib o‘ynash ko‘nikmalari shakllanadi. O‘yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda qurish-yasash faoliyatining dastlabki ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o‘yin faoliyati yetakchi rol o‘ynaydi. Mazkur dastur xuddi mana shu faoliyatni kengaytirishga va rivojlantirishga keng yo‘l ochadigan ta’limiy mashg‘ulotlar tizimini belgilab berishga yo‘naltirilgan.

4-5 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari

Bola to‘rt yoshga yetgach, uning jismoniy o‘sishi bir muncha jadallahadi, bu davr mobaynida bo‘yi 105-108 sm gacha o‘sadi, og‘irligi esa 18-19 kg bo‘ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po‘stlog‘ining faoliyati takomillashib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash

ko‘nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo‘ladi. Barcha harakat va faoliyatlarni o‘zi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nihoyatda serharakat, o‘yinqaroq, o‘ta qiziquvchan bo‘ladi. U har qanday tadbiriga bajonidil qatnashadi. Shuning uchun ham ularni to‘g‘ri ovqatlantirish, o‘z vaqtida uxlatish, salomatligini muhofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo‘lishini ta’minlash muhim ahamiyat- ga ega.

5-6 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari

Bu davrda bolaning bo‘yi 7-8 sm ga o‘sadi. Uning oyoqlari avdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og‘irligi 20-22 kg.ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli, qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to‘g‘ri o‘sishini ta’minlashga alohida e’tibor berish ke- rak. Uning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo‘ladi. Olti yoshga yetganda miya po‘stlog‘ining asab katakchalari rivojlanib, og‘irligi va tashqi ko‘rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo‘lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo‘lishini ta’minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo‘lgan taqdirda uning oldini olish choralarini ko‘rish lozim. Bu yoshdagi bolalarning so‘z boyligining rivojlanishiga alohida e’tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so‘zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojlarini to‘la qondirishi kerak. Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko‘nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

6-7 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari

Bola hayotining yettinchi yilida undagi harakatlar ko‘larni kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o‘zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o‘zini idora qilish va o‘z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘la boshlaydi. Bu yoshdagi o‘g‘il bolalarda mustaqil faoliyat ko‘rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo‘yi 120

sm ga yetadi, og‘irligi 22-24 kg bo‘ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo‘ladi, o‘z salomatligini nazorat qila oladi. Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigiyenik malakalar shakllana boradi.

Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo‘lgan ta’lim olishga o‘qishga ishtiyooq uyg‘otish lozim. Bu o‘rinda bolalarni ruhan ta’lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o‘quv elementlarini o‘rgatish lozim. Har qanday olti yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta’lim olishga tayyor bo‘lishi kerak. Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda tashxis markazlarining xulosalariga tayanish lozim. Shu bilan bir qatorda maktabning moddiy-texnikbazasi olti yoshli bolalarga ta’lim berish imkoniyatiga ega bo‘lishi shart. O‘qituvchining pedagogik-psixologik bilim darajasi, axloq-odobi va shaxsiy sifatlari olti yoshli bolalarga ta’lim va tarbiya berish uchun loyiq bo‘lganda, u olti yoshli bolalarni o‘qitish huquqiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham 7 yoshli bolalar, ularni qabul qiladigan mакtablar hamda bu bolalarni o‘qitadigan o‘qituvilar pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan alohida-alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina ta’lim jarayoniga kiritilishi kerak.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

- 1.Bolalar 6-7 yoshga yetganda qanday fiziologik o‘zgarishlarga duch keladilar?
- 2.6-7 yoshli bolalar mакtab yoshiga yetganida qanday psixologik o‘zgarishlar paydo bo‘ladi?
3. 3 yoshli va 6-7 yoshli bolalarda psixik krizis davrining o‘tishi bir-biridan qay tariqa farq qiladi?
4. 3- 4, 5, yoshli bolalarning yosh xususiyatlariga qarab rivojlanish xususiyatlarini ayting.

16-Mavzu. Zamonaviy tarbiyachilar kasbiy kompetentligining uch aspekti

Reja:

- 1.Kasbiy kompetentlik” tushunchasi va uning pedagogik faoliyatni
- 2.Zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirish
- 3.Zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning yo‘llari

Kasbiy kompetentlik” tushunchasi va uning pedagogik faoliyatni

“Kasbiy kompetentlik” tushunchasi va uning pedagogik faoliyatni rivojlantirishdagi ahamiyati. Xalqimizning kelajagi, O‘zbekistonning istiqboli ko‘p jihatdan tarbiyachiga uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq.

“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘s, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi. Inglizcha “competence” tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita“qobiliyat” ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorini namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi. “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshrish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan

alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

-kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

-kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:

- murakkab jarayonlarda;

- noaniq vazifalarni bajarishda;

- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;

- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;

- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi

- davr talablarini chuqur anglaydi

- yangi bilimlarni izlab topadi;

ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

Sifatlar

Ijtimoiy kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, maxsus kompetentlik

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar.

-ektremal

-psixologik

-kompetentlik,

-metodik,

-kreativ,

-innovatsion,

-kommunikativ

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

1)psixologik kompetentlik-pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2)metodik kompetentlik-pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

3)informatsion kompetentlik-axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli,samarali foydalanish;

4)kreativ kompetentlik-pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5)innovatsion kompetentlik-pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

6)kommunikativ kompetentlik-ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

7)Shaxsiy kompetentlik-izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

8)Texnologik kompetentlik kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

9)Ektremal kompetentlik-favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish,to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik. Pedagog olimlarning ishlarida kompetentlikni pedagogik nuqtai nazardan yanada kengroq va sinchiqlab o'rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o'rganib chiqilgan. S.E. Shishov tomonidan kompetentlikning quyidagi ta'riflari keltirilgan:
-o'qish o'rganish tufayli egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiy layoqatlilik;

bilim va vaziyatlar o'rtasidagi aloqani o'rnata bilish qobiliyati, muammoga mos keladigan hal etish yo'lini topish (kompetentlik deb aytish uchun birorbir vaziyatda namoyon etiladigan taqdirdagina joiz bo'ladi, namoyon etilmagan kompetentlik kompetentlik emas, yashirin imkoniyatlar bo'lib qolsa ham katta gap).

L.M. Dolgova, P.V. Simonov va boshqalarning fikricha, kompetentlik olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qila olishlik demakdir. Namunalarga o'xhash harakatlarni ko'zda tutadigan "bilim, ko'nikma va malakalardan" farqli o'laroq, kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. "Kompetentlik – ijtimoiy amaliyot ko'rinishidagi bilim va ko'nikmalarning mavjudligi bo'lib, u ta'lim jarayoni natijalariga ijtimoiymadaniy talablar va jamiyat tomonidan talablar qo'yiladigan hollarda namoyon bo'ladi", -deb ta'kidlaydi L.M. Dolgova. V.V. Bashevning ta'kidlashicha, kompetentliklar insonning individual qobiliyati bo'lib, ular shartsharoitlar o'zgargan paytda ushbu qobiliyatning boshqa shart-sharoitlarga ko'cha olishida namoyon bo'ladi.

Qo‘llash sohalari ularning maxsusligi va aniqligini belgilaydi (matematik, tillar bo‘yicha, siyosiy va boshqa kompetentliklar). Jamiyatni o‘rganish sohasida samarali faoliyat ko‘rsatuvchi odam quyidagilarga qodir bo‘lishi kerak, ya’ni kompetentli odam:

- 1) o‘zi tushib qolgan vaziyatni tadqiq eta olishi;
- 2) boshqa odamlar bilan muloqot o‘rnata olishi;
- 3) qarorlar qabul qila olishi;
- 4) qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bo‘yicha individual va jamoaviy harakatlarni tashkillashtira olishi;
- 5) faoliyatning yangi usullarini egallay olishi.

Shunday qilib, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma’lim bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik faoliyatga doir kategoriya bo‘lib, sub’ektning qo‘yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi. Kompetentlik – individning umuman jamiyatda va xususan kasbiy sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘lgan, atrofidagi ob’ektlar va sub’ektlar bilan o‘zaro hamkorligi bo‘yicha ma’lum bir malakalari va kasbiy tajribalari shakllanganligining muayyan darajasi demakdir. N.G. Vigotkovskiyning ta’riflashicha, kompetentlik qo‘yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko‘nikma va malakalari, ma’naviy sifatlari, psixologik xususiyatlari) va tashqi (moddiytexnik, ijtimoiy) imkoniyatlarini safarbar qila olishga qodirligidir. Psixologik nuqtainazardan, A.K. Markovaning fikricha, kompetentlik muayyan insonning xarakteristikasi, ya’ni kasbiy talablarga munosibligi darajasi bo‘yicha insonning individual xarakteristikasi demakdir.

N.A.Muslimov o‘zining tadqiqot ishlarida o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanganlik asosini oltita sifatlar, ya’ni motivatsion xislatlar (insonning butun hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boruvchi tanlagan kasbiga bo‘lgan ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi), intellektual salohiyat (barcha rasmiy hujjatlar asosida o‘qituvchi axborot va ma’lumotlarni uzatishga, bilim,

ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga intiladi), irodaviy sifatlar (maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to‘sislarni, jismoniy va aqliy zo‘riqishlarni enga olishlik, o‘zini tuta bilishlik va tashabbuskorlik xislatlari), amaliy ko‘nikmalar (psixologik, pedagogik, metodik va texnik-texnologik qobiliyatlar, amallar, individning faoliyat va muloqotning turli sohalaridagi ko‘nikmalari), hissiy sifatlar (o‘z hissiyotlarini boshqarishning zaruriy malakalarini shakllantirishi, o‘zining aniq hislari (qahr, g‘azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag‘rurlik, qo‘rqish, ko‘ngilchanlik, muhabbat va boshqalar)ni boshqarishi hamda o‘z hissiy holatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishi) hamda o‘z—o‘zini boshqara olish (maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashdagi erkinlik, vijdonlilik, o‘z faoliyatiga tanqidiy yondoshuv, harakatlarning keng qamrovliligi va anglanganligi, o‘z xulqini boshqalarniki bilan qiyoslab borishi, kelajakka ishonchi, o‘z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turishi va boshqara olishi) sifatlari tashkil etishini ta’kidlab o‘tadi.

Zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirish

Bo‘lajak tarbiyachining kasbiy shakllanishi uning jamiyatdagi o‘rni, talabaning pedagogika oliy o‘quv yurtidagi majburiyati va vazifalariga xamda o‘ziga xos individual qobiliyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Talabaning individualligi aqliy, predmetli amaliy va mativatsion omillar bilan bog‘liq bo‘lib, amaliy faoliyat jarayonida ifodalanadi. Talabaning ijodiy fikrlash, olingan natijalar bilan o‘rtoqlashish, qiziqishlarini muvofiqlashtirish, muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirig va ulardan amaliyot jarayonida foydalana bilish kasbiy motivlarning vujudga kelishiga olib keladi. Xar bir talabada kasbiy va shaxsiy rivojlanish o‘ziga xos ravishda ko‘zga tashlanadi.

Bo‘lajak tarbiyachining kasbiy mahorati shunday bir idealki, unga intilish kerak bo‘ladi. Kasbiy shakllanish bu uzoq davom etuvchi jarayon bo‘lib, bir nechta bosqichlarga ajraladi. Har bir talaba uchun bosqichlarning davomiyligi hamda miqdori alohida belgilanadi. Bo‘lajak tarbiyachining ijodiy individualligi o‘z ifodasini pedagogik amaliyotda ifodalanish usullarida, o‘z ishini rasmiylashtirishdagi

o‘ziga xosliklarda pedagogik vaziyatlarni hal qilishda mustaqil yechimlarni topa bilishda izlanuvchan faoliyatga layoqatning mavjud bo‘lishida faoliyat topshiriqlari hamda usullarini tanlashga erkin yondoshishdan, tashabbuskorlikda o‘z taklif va g‘oyalarini erkin ifodalashda namoyon bo‘ladi.

Jahon pedagogik leksikoni qatoridan allaqachonlar «innovatsiya» tushunchasi keng o‘rin olgan. Bu tushuncha «yangilik», «isloh» tushunchalarini anglatadi. Keng ma’noda qaraganda ta’lim tizimidagi har qanday o‘zgarish bu pedagogic innovatsiyadir. Dastlab bu tushunchalar ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlarga nisbatan qo‘llanar edi, so‘ngra ta’lim tizimidagi har qanday yangiliklarga nisbatan ishlatiladigan bo‘ldi. Pedagogik yangiliklarning texnologiya deb atalishi boisi ham shunda. Hozirgi davrga kelib pedagogik innovatsiya fani shakllandi. Pedagogik innovatsiya pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o‘zlashtirish, nihoyat, uni amaliyotda qo‘llash haqidagi ta’limot sifatida qaraladi. Har qanday pedagogik yangilik zamirida biron-bir g‘oya yotadi, g‘oya asosida esa o‘qituvchining bolalar bilan o‘zaro harakati yotadi, ya’ni:

- guruxda psixologik birlik vaziyatini yaratish;
- har bir o‘quvchi o‘z shaxsini o‘zi namoyon etishini ta’minlash;
- har bir metodik yondashuv uchun o‘ziga xos muloqot yo‘lini tanlash; o‘quvchilar tashabbusini zimdan boshqarib borish va boshqalar.

Bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchi qalbiga kirib borish uchun o‘zining didaktik usullari, tashkiliy shakllari orqali yo‘l topadi. Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zini-o‘zi safarbar qilishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish bo‘lib, u talabalarning o‘quv ishlarini faollashtirish va kasbiy ixtisoslashivuning faollashuviga olib keladi. Har bir tarbiyachi quyidagi pedagogik-psixologik bilim, ko‘nikma va malakalarni mukammal egallashi zarur. Real voqelik elementlarini sub’ekt ongida aks etishiga bilim deyiladi. Fanning metodologik asoslari, milliy g‘oya, milliy mafkura

va milliy qadriyatlar asosida barkamol shaxsning ma’naviy-axloqiy hamda kasbiy kamoloti qonuniyatlari, ilmiy-tadqiqot metodlari, ta’lim printsiplari, qonuniyatlari, metodlari hamda ta’limning mazmuni, uni amalga oshirish shakllarini bilish.

Shaxsning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, anatomik-fiziologik, gigienik va psixologik shakllanish qonuniyatlari, individual-ruhiy rivojlanish asoslarini bilish. Milliy hamda umuminsoniy tarbiyaning printsiplari, qonuniyatlari hamda amalga oshirishning yo‘l-yo‘riqlari, yoshlarni ongli va asosli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish, ularni kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash printsiplarini va kasbiy istiqbolini ko‘ra bilish.

Umuman olganda yangicha yondoshuvda ta’lim tizimida o‘quv ma’lumotlari ko‘rinishida ifodalangan ilgarigi tajribalrni o‘zlashtirishga qaratilgan ta’limdan bo‘lajak kasbiy faoliyatda duch kelinadigan vaziyatlarga tayyor bo‘lishga qaratilgan, umuman olganda kelajakka yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish ko‘zda tutiladi. Ta’lim oluvchi faoliyatining maqsadi axborot ko‘rinishiga ega bo‘lgan ijtimoiy tajribaning ma’lum bir qismini o‘zlashtirish emas, avvalombor bilimlardan foydalangan holda bo‘lajak kasbiy faoliyatini amalga oshira bilish hamda butun umri davomida yangi bilimlarni egallab bora olish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, bunday ta’lim insonga o‘z o‘zini takomillashtirish mexanizmini “o‘rnatish”dan iborat bo‘ladi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni muammoli o‘qitish jarayonida amalga oshirish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi, buning mohiyati kasbiy faoliyatni yaxlit tizim sifatida ko‘rish, unda tizimli faoliyat ko‘rsata bilish, yangi muammo va masalalarini hal eta bilish tajribalarini shakllantirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladigan kasbiy faoliyat elementlarini ta’lim jarayoniga kiritishdan iborat.

Pedagog “boshqaruvchi”, “hamkor” sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni, hamkorlik qilish, demokratik ravishda ta’sir o‘tkazish, yordam berish, ruhlantirish, talabaning shaxsiy tashabbuslariga e’tiborli bo‘lish, uning shaxsini rivojlantirishga intilish pozitsiyasini egallaydi;

-talaba pedagoglar va boshqa talabalar bilan faol hamkorlik qilishga, birbirini qo‘llab-

quvvatlash va uzaro ma'suliyatlilik muhitini yaratishga yunaltirilgan; -ta'lim oluvchilar uchun ta'lim va tarbiyani tashkil etishning guruhli shakllari orqali shaxslararo munosabatlar va muloqatning xilma-xil shakllarini amaliy ravishda o'zlashtirishlari, hamkorlikda ishslash va ijod qilish quvonchini his etishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi; -harakat va xulq-atvorlarning oldindan belgilab quyilgan namunasiga mosligini baholashdan voz kechish.

Zamonaviy tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning yo'llari

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy mahorati shunday bir idealki, unga intilish kerak bo'ladi. Kasbiy shakllanish bu uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, bir nechta bosqichlarga ajraladi. har bir talaba uchun bosqichlarning davomiyligi hamda miqdori alohida belgilanadi. Bo'lajak tarbiyachining ijodiy individualligi o'z ifodasini pedagogik amaliyatda ifodalanish usullarida, o'z ishini rasmiy lashtirishdagi o'ziga xosliklarda pedagogik vaziyatlarni hal qilishda mustaqil yechimlarni topa bilishda izlanuvchan faoliyatga layoqatning mavjud bo'lishida faoliyat topshiriqlari hamda usullarini tanlashga erkin yondoshishdan, tashabbuskorlikda o'z taklif va g'oyalarini erkin ifodalashda namoyon bo'ladi.

Bugungi kun zamonaviy tarbiyachining shaxsiga va ularga qo'yilgan talablar:

- bilimdonligi,
- izlanuvchan,
- chet tillarini bilishi,
- texnika vositalari bilan ishlay olishi,
- ta'lim texnologiyalari va tarbiya texnologiyalarini qo'llay olishi va hakozlar.

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy mahorati shunday bir idealki, unga intilish kerak bo'ladi. Kasbiy shakllanish bu uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, bir nechta bosqichlarga ajraladi. Har bir talaba uchun bosqichlarning davomiyligi hamda miqdori alohida belgilanadi. Bo'lajak tarbiyachining ijodiy individualligi o'z ifodasini pedagogik amaliyatda ifodalanish usullarida, o'z ishini rasmiy lashtirishdagi o'ziga xosliklarda pedagogik vaziyatlarni hal qilishda mustaqil yechimlarni topa

bilishda izlanuvchan faoliyatga layoqatning mavjud bo‘lishida faoliyat topshiriqlari hamda usullarini tanlashga erkin yondoshishdan, tashabbuskorlikda o‘z taklif va g‘oyalarini erkin ifodalashda namoyon bo‘ladi. Tarbiyachining ijodiy induvidualligi uning induvidual xususiyatlari yahni ilmiy fikrlashning tarkib topganligi, ishga ijodiy yondoshishi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilishi va boshqalarning rivojlanganlik darjasini bilan belgilanadi. Bunday tarbiyachining kasbiy faoliyati uning hamkasblarga nisbatan yangicha yondoshuvi hamda vositalarini topish borasida tinmay izlanish olib borishida ifodalanadi. Ijodiy induviduallik mohir ijodkor tarbiyachilar faoliyatida aniq ko‘rinadi. Bo‘lajak tarbiyachining ijodiy induvidualligini rivojlantirish va takomillashtirishning psixologik pedagogik sharoitlari qarama-qarshilikni his qilish, ularning yechimini topishdagi o‘ziga xoslik va maqsadga muvofiqlikda, kasbiy xislatlarning tarkib topishida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy ijodkor tarbiyachi pedagogik faoliyatining usuli yoki ijodkorlikdan birini tanlashda nafaqat o‘zligi hamda hayotiy maqsadlarini ro‘yobga chiqaradi. Bu bilan tarbiyachi o‘zini sifat jihatidan ham o‘zgartiradi. Psixologik to‘sqliarni yengib o‘tadi va kasbiy ahamiyatli sifatlarni rivojlantirish imkoniyatlarini qidiradi. Umuman olganda tarbiyachining faoliyati birinchidan innovatsion yo‘naltirilganlik, ikkinchidan ijodkorlik faoliyati jarayonidagi induviduallik sifatida ifodalanadi. Bo‘lajak tarbiyachi o‘z-o‘zini takomillashtirmasdan turib, induviduallikni rivojlantirmay turib, taraqqiy etishi, kasbiy faoliyatda yuqori maqega erishish mumkin emasligini anglab yetishi lozim. Chunki kasbiy zaruriyatga oid sifatlarni hayotiy maqsad sifatida rivojlantirmasdan turib, yangi texnologiyalarni egallah, o‘z texnologiyalarini qadriyatlar yo‘nalishi sifatida ishlab chiqish mumkin emas. Aynan ushbu ikki yo‘nalishni pedagogning jodiy induvidualligini ko‘rsatkichi sifatida qabul qilish mumkin. Har qanday ijodkor tarbiyachining induvidulligi umuman olganda, nazariya va amaliyotda mahlum bo‘lgan usullardan tarkib topuvchi o‘ziga xos faoliyat uslubini namoyon qiladi.

Tarbiyachining pedagogik uslubi bu shaxs tomonidan o‘z induvidualligini hayotiy faoliyat sharoitlariga uyg‘unlashtirish tizimi shaxs kasbiy faoliyatidagi

ijodkorlikning manbai va ijodiy faoliyat natijasi ko‘rinishida o‘zligini namoyon qilish vositasidir. Tarbiyachining individualligi ikkita: psixologik xamda shaxsiy jixatni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular pedagogik amaliyotda umumiy va kasbiy qobilyatlarni, shuningdek, kasbiy mativatsiyaning namoyon bo‘lish darajasi bilan belgilanadi. Yetarli darajada rivojlangan qobilyat, maqsad va ehtiyojlar doirasi qanchalik keng bo‘lsa, tarbiyachining darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Bo‘lajak tarbiyachining kasbiy faoliyatida rivojlanishni tahminlovchi asosiy ziddiyat inson qobilyatlari hamda pedagogik faoliyat talablari o‘rtasidagi tafovut bilan o‘lchanadi. Pedagogik amaliyot jarayonida yuzaga keluvchi ziddiyatlarni har bir tarbiyachi o‘z imkoniyatlari va qobilyatlari darajasida xal qiladi. Bu faoliyat tarbiyachining individual uslubini belgilab beradi.

Bo‘lajak tarbiyachida o‘z-o‘zini boshqarish, qathiylilik, jur’atlilik, qo‘rmaslik, atrofdagi insonlarga hurmat va e’tiborni kamchiliklarni his qilgan holda o‘z imkoniyatlariga ishonish, o‘z-o‘zining faoliyatini baholashda haqqoniylilik, kuchli iroda, o‘z kuch quvvatini yo‘naltira olish faoliyat va maqsadni amalga oshirish yo‘lida imkoniyatlarni jamlay olish, belgilangan maqsadni amalga oshirishda o‘z faoliyatini boshqarib borish, aqliy faollik va o‘zgaruvchan sharoitlarda o‘z axloqini qayta ko‘ra olish, shaxsni harakatga keltiruvchi kuch va ijtimoiy olarn bilan o‘z imkoniyatlarini qiyoslay olish omili sifatida o‘z-o‘zini hurmat qilish sifatlari rivojlangan bo‘lsa, u kasbiy mahorat darajasiga erisha olishi mumkinligi aniqlangan. Bundan tashqari kasbiy mahoratli tarbiyachi qo‘srimcha kuch-quvvat beruvchi aniq yuqori g‘oyalarni ko‘zda tutuvchi maqsadning mavjudligi, faoliyatning tashkillashtirilganligi va aniqligi intiluvchanlik bu yo‘lda butun kuch-quvvatini sarflay olish kabi xislatlarga ega bo‘ladi. Bu esa bo‘lajak tarbiyachining kasbiy mahorati boshqa mutaxassislarining individualligidan yuqorida qayd etilgan sifatlarning mavjudligi bilan farqlanishi bilan ko‘rsatadi. Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir. Pedagogik bilimdonlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me’yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan

belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnomasi tushuniladi. Pedagogik bilimdonlik ya’ni kompetentlik pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta’lim va tarbiya ishida insoniyat to‘plagan barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini ko‘zda tutar ekan, demak, u etarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim bo‘ladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

- 1.Kompetensiya so‘zining ma’nosini tushuntiring?
- 2.Zamonaviy tarbiyachi qanday kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak?
- 3.Ilk qadam dasturida bolalarning qaysi kompetensiyalarini rivojlantirish ko‘rsatilgan?

17-Mavzu. Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir yondashuvlar

Reja:

- 1.Shaxs shakllanishi va taraqqiyoti.
- 2.Psixik tarqqiyot va ta’lim A.S .Vigotskiy ta’limoti.
- 3.Ta’lim-tarbiya tabiiy qobiliyatlarni rivojlantirishning, bolalarni komil inson qilib tarbiyalashning muhim omili.

Shaxs shakllanishi va taraqqiyoti.

Odamning insonlik jinsiga mansubligi individ tushunchasi bilan ifodalanadi. Katta yoshdagi kishilar, chaqaloqlar, tilni va oddiy malakalarni o‘zlashtira olmaydigan ruhiy kasallar (telbalar) ham individdir. Individ tushunchasida kishining biologik turga mansubligi aks ettirilgan. Barcha kishilar odamlar individdir.

«Individ» tushunchalar kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. Yangi tug‘ilgan chaqaloqning ham, katta yoshning ham, tafakkurni ham, akli zaif ovsarni ham, yovvoyilik bosqichidagi qabilaning vaqilini ham, madaniyatli mamlakatda yashayotgan yuksak bilimli kishini ham individ deb hisoblash mumkin. Individ sifatida kishi alohida sotsial fazilat kashf etadi, shaxs bo‘lib yetishadi. Individ sifatida dunyoga kelgan odam keyinchalik, jamiyatdagina shaxs ga aylanadi. Ijtimoiy

munosabatlarga kirishuvchi, ijtimoiy taraqqiyotda ishtirok etuvchi odamgina shaxs deyiladi. Shaxsning eng asosiy belgisi-uning ongli faoliyat egasi ekanligidir. Ma'lumki kishi ongi faqat jamiyatda, boshqalar bilan o'zaro munosabatda til yordamida ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda shakllanadi. Binobarin shaxs ham faqat jamiyatdagina shaxsga aylanishi mumkin. Shaxs tushunchasida odamning ijtimoiy xarakteri aks ettirilgan. Lekin shaxsning ijtimoiy muhitning passiv mahsuloti deb qarab bo'lmaydi. Shaxs ijtimoiy tajribani faol ravishda tahlil qiladi, o'zlashtiradi, o'zi uchun o'zgartiradi-bu jarayon davomida o'zi ham shaxs sifatida shakllanadi. Shaxsning faolligi o'zi hayot uchun yo'l tanlashida, bu yo'lni egallashida. Hayotda o'z mavqeい va o'rnini anglashida ifodalanadi. Shaxs shakllanib borgan sayin tashqi ta'sirlar, shu jumladan ijtimoiy ta'sirlar ham uning ichki dunyosi psixologiyasiga qarab turli odamlarga turlicha ta'sir qiladilar. Masalan, bir xil baho turli o'quvchilarga turlicha ta'sir qiladi.

Shaxsning faqat psixologiya emas, balki sotsiologiya, tarix, san'atshunoslik, estetika, etika, pedagogika, meditsina, yuridik va boshqa fanlar ham o'rganadi.

Odamning shaxs sifatidagi asosiy belgisi: sotsiolligi, ongi va tilidir. Inson shaxsning xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir.

Individuallik-shaxs psixologik, ijtimoiy, fiziologiya xususiyatlarining birikmalarining qaytarilmasligidir. Shaxs individualligi uning xarakteri, temperamenti, psixik jarayonlarning dinamikasi hissiyotlari, faoliyatining motivlari, qobiliyatlari va shunga o'xshashlarning yigindisiga bog'liq. Bularning hammasini birga qo'shib, mujassamlashtirsak ikita bir xil odam bo'lmagan va bo'lmaydi.

Har bir odam o'ziga mansub bo'lgan sinf millatiga xos. Ko'pgina umumiyligida sifatlarga ega bo'lish bilan bir qatorda o'zining shaxsiy fazilatlariga egaki, bu sifatlar uni takrorlanmas individuallikga aylantiradi. Olarnda bir xil kishi yo'q. Individullaik kishining o'ziga xosligini uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik temperament va xarakter xususiyatlaridan odatlarda, ustun darajadagi qiziqishlarda, bilish jarayonlarga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur)da Qobiliyatlarda faoliyatning shaxsga xos uslubida va

hokazolarda namoyon bo‘ladi. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o‘zida mujassamlashtirigan odam yo‘q inson shaxsi o‘z individualligi jihatidan betakrordir.

Shunday qilib, individuallik inson shaxsiga xos fazilatlarning faqat bitta jihatni bo‘lib hisobalanadi, xolos.

Ma’lumki odam jamiyatda turli guruhlarda (oilada, o‘qishda, ishda, davrada) bo‘ladi. Har bir guruhda o‘ziga xos ba’zan butunlay bir-biriga o‘xshamaydigan rollarni o‘ynaydi. Lekin shunga qaramay, ko‘pincha odam turli vaziyatlarda o‘xhash sifatlarni namoyon qiladi. Bir qarashda qarama-qarshi ko‘ringan xususiyatlarning namoyon bo‘lishida umumiylilik bor. Ana shu shaxs sifatlarning bir-biriga mosligi shaxsning yaxlitligini ko‘rsatadi.

Shaxsning psixologik ko‘rinishi, psixologik xususiyatlarining birikmalari har bir odamda nisbatan doimiylikka ega. Odamning psixik holatlari, o‘zini tutishi o‘zgarib tursa ham shaxsning psixologik qiyofasi ma’lum darajada barqaror bo‘lib qolaveradi. Shaxs xususiyatlarining bunday nisbatan barqarorligi unga shaxs sifatida xarakteristika berish, uning ma’lum vaziyatlarda o‘zini qanday tutishini oldindan belgilashning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Psixik tarqqiyot va ta’lim. A.S Vigotskiy ta’limoti.

Psixik rivojlanish va bu o‘zgarishlarga sabab bo‘ladigan kuchlar o‘rtasidagi munosabat qonunlarini o‘rganish yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir.

Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o‘quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta’sir ko‘rsatishning zarur shartidir. Turli yo‘nalishga ega bo‘lgan psixologlar, bir tomonidan ta’lim va tarbiya, ikkinchi tomonidan esa rivojlaning o‘rtasidagi o‘zaro munosabati muammoсинi keng doirada muhokama qilmoqdalar. Rivojlanish deganda, odatda hodisalarining har ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir; 1) miyaning biologik, organik etilishi, uning anatomik-fiziologik tuzilishi jishatidan etilishi; 2)

psixik (aqliy) rivojlanishning ma'lum o'sish darajalari sifatidagi, o'ziga xos aqliy etilish sifatidagi psixik rivojlanishni o'z-o'zidan mla'lumki, aqliy rivojlanish miya tuzilitsining biologik echilishi bilan bogliqdir va bu xususiyat ta'lim-tarbiya ishlarida, albatga, hisobga olinishi lozim, chunki ta'lim miyaning organik jihatdan etilishini inkor eta olmaydi. Biroq miya tuzilishining organik jihatdan etilishini muhitga, ta'lim-tarbiyaga mutlaqo bog'lanmagan holda o'zining qat'iy biologik qonunlari asosida sodir bo'ladi, deb bo'lmaydi. Muhit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishining organik jihatdan etishiga yordam beradi.

Bu borada nemis psixologi V.Shtern: ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg'a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning etakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi va uni: ta'lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab, beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta'lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan etilish jarayoniga aralashmaslik, unga , xalaqit bermaslik, balki ta'lim uchun imkoniyat etilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak.

Ta'kidlash joizki, ta'lim yetakchi rolni bajaradi, ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir-biriga bog'liqdir; ular alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmay, balki bir butun jarayondir. Ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga turtki bo'ladi, rivojlanishni o'z ortidan ergashtirib boradi. Zarur haroit tugilganda ta'lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo'ladi. Lekin, ta'lim rivojlanishga turtki bo'lish bilan bir vaqtda o'zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xisusiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalari, albatta, inobatga oladi. Ta'limning imkoniyatlari juda keng bo'lsada, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlaydi. U olg'a surgan psixik funktsiyalar

taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko‘ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning «*tabiiy*» shaklini bevosita qayta qurgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so‘ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, «madaniy» shaklini egallash tushuniladi. Shu munosabat bilan L.S.Vigotskiyning psixologiyaga kiritgan psixik taraqqiyotning eng yaqip zonasil tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning asl mohiyati, bolaning mustaqil faoliyati kattalar bilan hamkorlikda, uning rahbarligida amalga oshiriladi. L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan «psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi» tushunchasi «ta’lim taraqqiyotdan oldinda boradi» degan umumiy qoidaning yaqqol mazmunini tushunishi uchun imkoniyat yaratadi.

E.Torndayk va J.Piajening ta’lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: «Bala taraqqiyotini hech mahal mifikta’limidan tashiaridagi soya deb hisoblash mumkin emas», deb ta’kidlaydi. Bundan tashqari, ta’lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo‘lmagan jarayonlardir, degan yunalishdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi. P.P Blonskiy ta’limning bola taraqqiyotidagi o‘rniga alohida ahamiyat beradi. Shuning uchun o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mifik dasturi mazmuniga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ta’lim jarayonida bolalar ma’lum qoida asosida faoliyat qilishga odatlanadilar. Ta’lim ta’siri natijasida o‘quvchilarda o‘z-o‘zini va o‘zining aqliy faoliyatini nazorat qilish yuzaga keladi. Psixolog-olimlardan V.V.Davidov, P.YA Gal’perin, D.B El’konin, N.A Menchinskaya, A.A Lyublinskaya, e././ozievlar o‘z tadqiqotlarida ta’limning taraqiyotdagi yetakchi rolini ta’kidlashadi.

Psixik taraqqiyotning omillari va haroitlari aniqlab olingan taqdirda ham, psixikada yuzaga keladigan o‘zgarishlarning manbalari, psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat, degan savolning tuzilishi, tabiiydir. Bolaning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlar murakkab va turlitumandir. Rivojlanishning mohiyatini qarama-qarshiliklar kurashidan, ichki ziddiyatlar bolaning, psixik rivojlanishini bevosita harakatga keltiruvchi kuchlar, ta’lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan hamda bartaraf qilinadigan eskilik va yangilik o‘rtasidagi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Bunday ziddiyatlarga, masalan,

faoliyat tomonidan yuzaga keladigan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlar; bolaning o‘sib borayotgan jismoniy va ruhiy imkoniyatlari bilan eski, tarkib topgan o‘zaro munosabat shakllari va faoliyat turlari o‘rtasidagi ziddiyatlar; jamiyat, jamoa, katta odamlar tomonidan kundan-kunga ortib borayotgan talablar bilan psixik taraqqiyotning mazkur darajasi o‘rtasidagi ziddiyatlar kiradi.

Masalan, kichiq mакtab yoshidagi o‘quvchida mustaqil irodaviy faoliyatga nisbatan bo‘lgan tayyorlik bilan hatti-harakatlarning mavjid vaziyatga yoki bevosita ichki kechinmalarga bog‘liqligi o‘rtasida ziddiyat mavjuddir o‘smirlarda esa eng kuchli ziddiyatlar bir tomondan, uning o‘ziga o‘zi baho berishi va o‘z talablari darajasi va ikkinchi tomondan, atrofdagilarning unga nisbatan bo‘lgan munosabatlari haqidagi ichki kechinmasi o‘rtasida, shuningdek, o‘zining jamoadagi real mavqeい to‘g‘risidagi ichki kechinmasi o‘rtasida; katta odamlar hayotida tula huquqli a’zo sifatida qatnashishi ehtiyoji bilan bunga o‘z imkoniyatlarining mos kelmasdigi o‘rtasida paydo bo‘ladi. Ko‘rsatilgan barcha ziddiyatlar birmuncha yuqori darajadagi psixik faoliyatlarni tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Natijada bola psixik rivojlanishning yanada yuksakroq bosqichiga ko‘tariladi. Ehtiyoj qondiriladi-ziddiyat yoqoladi. Biroq qondirilgan ehtiyoj, yangi ehtiyojni tugdiradi. Bu ziddiyat boshqa bir ziddiyat bilan almashinadi, taraqqiyot davom etadi.

Bolaning ayrim yosh davrlarida psixikaning u yoki bu yo‘nalishlarida rivojlanish uchun nihoyatda qulay haroitlar paydo bo‘ladi va bu sharoitlarning ba’zilari vaqtinchalik, o‘tkinchi xarakterda bo‘ladi. U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo‘lgan ana shunday yosh davrlari senzitiv davrlar deb ataladi. (L.S.Vigotskiy, A.N.Leont’ev). Bunday senzitivlik davrining mavjudligiga miyaning organik jihatdan yetilish qonuniyati ham, ayrim psixik jarayonlar va xususiyatlar ham, hayotiy tajriba ham sabab bo‘ladi.

Rus psixologiyasidagi yosh davrlarini tabaqalash muammosi dastlab L.S.Vigotskiy, P.P.Blokskiy, B.G.Anan’ev singari yirik psixologlarning asarlarida o‘z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug‘ullanuvchilar safi

ortib bordi, shu bois yosh davrlarini tasniflash muammosi o‘zining kelib chiqishi, ilmiy manbai, rivojlanish jarayonlariga yondashishi nuqtai nazaridan bir-biridan keskin farq qiladi. Hozirgi vaqtda yosh davrlarini tabaqlash yuzasidan mulohaza yuritishda olimlarning ilmiy qarashlarini muaayan guruhlarga ajratish va ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiqdir.

L.S.Vigotskiy psixologlarning yosh davrlarini tabaqlash nazariyalarini tanqidiy tahlil qilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib, yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi;

1. Chaqaloqlik davri inqirozi.
2. Go‘daklik davri - 2 oylikdan 1 yoshgacha. Bir yoshdagи inqiroz.
3. Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - 3 yoshdagи inqiroz.
4. Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - 7 yoshdagи inqiroz.
5. Maktab yoshi davri - 8 yoshdan 12 yoshgacha - 13 yoshdagи inqiroz.
6. Pubertat (jinsiy etilish) davri - 14 yoshdan 18 yoshgacha, 17 yoshdagи inqiroz.

L.S.Vigotskiy o‘zining yosh davrlarini tabaqlash nazariyasini ilmiy asoslab, ta’riflab bera olgan. Olim eng muhim psixik yangilanishlar haqida ilmiy va amaliy ahamiyatga molik mulohazalar bildirgan. Biroq, bu mulohazalarda ancha munozarali, bahsli o‘rinlar ham mavjud. Umuman LS.Vigotskiyning yosh davrlarini tabaqlash nazariyasi ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar to‘g‘risidagi mulohazali va olga surgan goyalari hozirgi kunning talablariga mosdir.

Ta’lim-tarbiya tabiiy qobiliyatlarni rivojlantirishning, bolalarni komil inson qilib tarbiyalashning muhim omili.

Bugungi kunda ilmiy texnik taraqqiyotning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi axborot hajmining keskin ko‘payishi, shuningdek fanlar integrasiyasi natijasida yangi fanlarning yuzaga kelishi, jamiyatda raqobat muhitini yuzaga keltirdi. Ushbu vazifalar asosida jamiyatning ta’lim tizimiga qo‘ygan asosiy vazifalaridan biri yuksak ma’naviy axloqli, jamiyat taraqqiyoti uchun munosib hissaqo‘shadigan, rivojlangan davlatlar darajasidagi yuqori malakali, raqobatbardo

sh

kadrlar tayyorlash masalasi deb belgilandi.

Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda buyuk mutafakkirlarining ilmiy va h ayot faoliyatini o‘rganish, ularning hayot yo‘llaridan saboq olish muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, O‘rta asr ijtimoiy falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning inson kamoloti haqidagi ta’limoti ta’lim tarbiya sohasida kata ahamiyatga ega. Mashhur Yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o‘z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni yirik mutafakkir – «Muallim iy soniy» - «Ikkinch muallim» deb ataydilar.

Abu Nasr Forobiy (to‘liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uz aliq ibn Tarxon alForobiy) hijriy 260 yil (milodiy 873 yil) da Shosh yaqin Forob (O‘tror) degan joyda harbiy hizmatchi oilasida tug‘ilgan. Forobda boshlang‘ich ta’limni olgach, Buxoroda, Samarcanda ta’lim olganligi haqida ma’lumotlar bor. Lekin arab xalifaligining yirik madaniy markazi Bog‘dodga xalifalikning turli tomonlaridan kelgan olimlar yig‘ilganligi, uningyি rik ilmiy markazga aylanganligi tuyfayli Forobiy ham ilm olish istagida Bog‘dodga jo‘naydi.

Bag‘dorra Forobiy o‘rta asr fanini, turli fan sohalarini o‘rganadi. Forobiy ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Abu nasr Forobiy yana aytadi: «Ta’lim- degan so‘z xalqlar va sha-harliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir.

Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish - harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir», - deydi.

Forobiy nazariy bilimlarni egallahsga kirishgan har bir kishi xulq-odobda ham qay darajada pok bo‘lishi kerakligini «Falsafani o‘rganishdan oldin niman i bilish kerakligi to‘g‘risida»gi risolasida shunday ta’riflaydi: «Falsafani o‘rganishdan avval o‘zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi notug‘ri tuyg‘ularga emas, balki kamolotga bo‘lganhirshavas qolsin.Bunga xulq axloqni faqat so‘zdagina emas, balki haqiq atda (amalda) tozalashorqali erishish mumkin. Shunday so‘ng xato va adas hishdan saqlovchi, haqiqatyo‘lini tushunib olishga boshlovchi (notiq – so‘zlo vchi, fikrlash ma’nosida)nafsi, jonini, ruhini tozalash zarur».

Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonllik, donolik va mulohazali bo‘lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko‘pchilik manfaatini yuqori qo‘yish, haqiqat, ma’naviy yuksaklikka intil, adolatliylik kabi hislatlarni tushunadi. Ammo bu hislatlarning eng muhumi har bir insonning bilimli, ma’rifatli bo‘lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog‘liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me’yorlari i fodasi sifatidagini emas, balki kishilarning aqliy faoliyatining natijasi sifatida hamta lqin etganligini ko‘ramiz. Forobiy «Aql ma’nolari haqida» risolasida aql masalasini tahlil qilib, aql bilish haqidagi ta’limotida mantiq (logika) ilmi muhim o‘rin tutadi deydi. U mantiq ilmi bilan grammatika o‘rtasidagi mushtarakligini qayd etib, mantiqning aqlga munosabati, grammatikaning tilga munosabati kabidir.

Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta’lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta’lim – tarbiya ishlarini ikki yo‘l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

«Amaliy fazilatlar va amaliy san’at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasi»ga kelganda, bu odat ikki yo‘l bilan hosil qilinadi:bulardan birinchisi qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilxomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagи g‘ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.

Keyingi yo‘l (yoki usul) majbur etish yo‘li. Bu usul gapga ko‘nmovchi, qaysar s haharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki ularso‘z istaklaricha so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy b ilimlarni o‘rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb hunarlarni va juz’i y san’atlarni egallashga intilish bo‘lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik ker ak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilib va san’at ahllariga aylantirishdir

Demak, Forobiy ta’lim – tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlarna kamolga etkazish maqsadini ko‘zlaydi.

Xulosa qilib aytganda Forobiy pedagogik ta’limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o‘z mohiyati bilan ijtimoiy, ya’ni faqat jamiyatda, o‘zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

- 1.Al-Farobiy hayoti va ijodi haqida gapirib bering
- 2.Al- Farobiy asarlarining asosiy g‘oyasi nimaga qaratilgan?
- 3.“Aql ma’nolari haqida” gi risolasining mazmun mohiyatini ochib bering
- 4.Farobiyning yirik asarlarini sanab bering.

18-Mavzu. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar qobiliyatlarini rivojlantirish.

Reja:

- 1.Bolalarda tashabbusni namoyon etish va o‘zaro muloqot jarayoni.
- 2.Ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etish mazmuni.
- 3.Ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etishda tarbiyachining roli.

Bolalarda tashabbusni namoyon etish va o‘zaro muloqot jarayoni.

Muloqot-yunoncha so‘z, so‘zlashuv, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr olishuv, ogzaki nutq shakli ikki yoki undan ortiq shaxslarning so‘zlashuvidir.

Muloqot faqat insonlarga xos bo‘lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlariga nimanidir aytish istagi tug‘iladi. Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o‘rnatish malakalari vaqobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir. Har bir kishining o‘z “Meni” atrofdagilar bilan bo‘ladigan muloqot jarayonida shakllanadi, Shaxsning hayot yo‘llari avval oilada, bog‘cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya’ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak ma’naviy ehtiyojlarimizdan biri-bu muloqotga bo‘lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo‘lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo‘lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo‘lgan muloqotdan qoniqish hosil qilarniz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilarniz. Pedagogik muloqot-bu muloqot turlaridan biri bo‘lib, pedagogik faoliyatda muhim o‘rin tutadi. Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko‘rinishidirki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o‘zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o‘zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta’sir o‘tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, bir-birlarini tushunadilar.

L. S. Vigotskiy, A. N. Leont`ev, A.R. Luriya, D.B.El`konin, A. Zaporojets, M. I.Lisina tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporojets va M. I. Lisinalar tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

- 1) e’tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo‘ladi;
- 2) kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tug‘iladi;
- 3) avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug‘iladi;
- 4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o‘zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Xullas, inson o‘zini idora qilish, turli vaziyatlarda o‘zini tutish fazilatlari o‘zlashtirilayotgan davrda ba’zi bir qoidalarga rioya qilsa, hamqorlik fazilatida ma’lum yantuqlarga erishadi:

Pedagogning tarbiyalanuvchilar bilan o‘zaro muloqot jarayoni.

Bolalar bilan muomala qilish pedagogning o‘z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun pedagog so‘zlashishni, muloqot olib borishni doimo o‘rganib borishi lozim. U bolalar bilan faoliyatni samarali olib borishni, so‘zlashishni bilishi, suhbat, hikoya kilish kabi usullaridan foydalanishi, umuman butun ta’lim-tarbiya jarayonida bolalar bilan muloqotni yo‘lga qo‘ya olishi lozim.

Pedagogik muloqot-pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o‘rtasida amalga oshiriladigan murakkab bo‘lgan o‘zaro tarbiya jarayoni. Bu muloqot jarayonida ishtirokchilarni hamkorlikda ishlashi, bir-birlariga yordam berishi, harakatlarni o‘zaro muvofiqligiga erishish kabilar samarali natijalar beradi. Pedagogik muloqotning unumli o‘tishi pedagogik-psixologik mahoratga bog‘liqdir. Pedagog bilan bolalar o‘rtasidagi muloqot samarali bo‘lishi uchun unda yetarli darajada qobiliyat bo‘lishi kerak hamda o‘z - o‘ziga doimo quyidagi savollarni berishi va unga javob berishga harakat qilishi kerak:

- a) ilm – fandagi yangiliklarni anglash, yangi fan terminlarini tushunish, o‘quv predmetini to‘liq o‘zlashtirish;
- b) malaka, ko‘nikma va qobiliyatni shakllantirish;
- v) O‘yin mashg‘ulotlarda integratsiya, bog‘liklikni amalga oshirish;
- g) o‘quv mazmunini tushunarli tizim asosida qurish.

Kimni o‘rgatish:

- a) bolalarni ba’zi psixik xususiyatlarini (eslab qolish, nutqi, fikrlash...) hamda ularni qay darajada o‘qimishli, tarbiyali ekanliklarini aniqlash;
- b) bolalarning bir darajadan ikkinchisiga o‘tishdagi qiyinchiliklarini oldindan aniqlash;
- v) o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalarnilarning dalillar keltirishini, fikrlarini xisobga olish;
- g) bolalarlardagi turli psixik o‘zgarishlar va rivojlanishni xisobga olib, o‘z pedagogik mehnatini tashkil etish;

d) iqtidorli bolalar bilan ham ishlash, yakka holdagi ishni tashkil etish.

Qanday o'rgatish:

a) ish jarayonida ishlatiladigan kuch va ketadigan vaqtni hisobga olgan xolda o'qitish va tarbiyalashning turli usullari majmuini ishlatish.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari, bu talab, rag'batlantirish jamoatchilik fikri. Rag'batlantirish va jazolash-bolalarni xulq-atvoriga kuzatish kiritishni, ya'ni foydali xatti-harakatlarni qo'shimcha rag'batlantirishni va tarbiyanuvchilarning noma'qul xatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi. Jamoatchilik fikri – tarbiyanuvchilarning ijtimoiy-foydali faoliyatini g'oyat har tomonlarna va muntazam rag'batlantirib borishni ta'minlaydi. Talab-pedagogik ta'sir ko'rsatishning boshlang'ich usuli bo'lib, tarbiyanuvchilarda o'ziga nisbatan mas'uliyat va talabchanlikni rag'batlantirishda alohida vazifani bajaradi. O'zaro fikr almashish bilan ta'sir ko'rsatish vositalari: ishontirish, ta'sir qilish, o'zaro fikr almashish bilan ta'sir ko'rsatish. Ishontirish pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli sifatida o'yin masshg'ulotlarda ijodiy suhbatlar, munozaralar shaklida qo'llaniladi. Tarbiyaviy ishda guruhiy va yakka suhbatlar, munozaralar shaklida qo'llaniladi. Ta'sir qildirish kishi psixikasiga nazoratsiz kirib, uning faoliyatida xatti-harakatlar, sabablar, intilishlar bilan amalga oshiriladi. Ta'sir qilish-shunday bir psixik ta'sir ko'rsatishki, kishi uni ongining etarli nazoratsiz idrok etadi.

a) Pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va umumlashtirish, usullarni qo'yish;

b) Bolalarga yakka individual xolda munosabatda bo'lish, ularni ijodiy ishlarini tashkil etish.

Maktabgacha ta'lism tarbiya jarayonini tashkil etish mazmuni

Uzliksiz ta'larning barcha bo'g'inalari bilan mustahkam aloqa va uzviy bog'liqlikni olib boruvchi boshlang'ich bo'g'in bu maktabgacha ta'lism va tarbiya tizimidir. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lism tizimi 2030-yilgacha rivojlanish bo'yicha 2019 yil 8 may PQ-4312-son konsepsiyasiga muvofiq. Maktabgacha ta'lism bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lism-tarbiyasiga qo'llanadigan davlat talablariga muvofiq, jismoniy, ma'naviy va intelluktual jihatdan

maktabda o‘qishga tayyorlashni nazarda tutadi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlari bilan mustahkam aloqa va uzviy bog‘liqlikda olib boriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 30 sentyabrdagi PQ-3955-son qaroriga muvofiq, shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sog‘lom, faol, to‘laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o‘sishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarni, shuningdek reabilitatsiya qilish va sog‘lomlashtirishga muhtoj bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida umumiyligi tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risidagi nizom, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruuhlar to‘g‘risidagi nizom, ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari va qo‘shma tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risidagi nizom hamda bolalarni ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlariga va qo‘shma tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga yo‘llash bo‘yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. Quyidagilar maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsadlari hisoblanadi:

- bolaning ta’lim olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirishni ta’minlash;
- bolaning jismoniy, aqliy va ma’naviy kamolotini saqlash va mustahkamlash;
- umumta’lim tashkilotlarida bolaning jamiyatga moslashishini va ta’lim olishni davom ettirishga tayyorligini ta’minlashdir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti maktabgacha ta’limiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq bolalarni tarbiyalashni, o‘qitishni, ularga qarab turishni, ularni parvarishlashni va sog‘lomlashtirishni ta’minlaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’limning mazmun-mohiyati O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan Maktabgacha ta’lim davlat o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan ta’lim dasturida belgilab berilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’lim-tarbiya jarayoni mashg‘ulotlarning yillik, kalendar-mavzuli rejalarini va jadvali bilan tartibga solinadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti

«Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga, Ilk va mактабгача yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va boshqa qonun hujjalari muvofiq ta’lim berish va tarbiyalash shakllari, vositalari va usullarini tanlaydi.

Mактабгача ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli o‘yin hisoblanadi. Har bir yosh guruhidagi mashg‘ulotlar, o‘yinlarning har kungi soni, davom etadigan davri va izchilligi mактабгача ta’lim tashkilotining o‘quv rejasida belgilab beriladi. Mактабгача ta’lim tashkilotining ishslash tartibi va bolalarning unda bo‘lish vaqtini uning ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi. Mактабгача ta’lim tashkilotidagi o‘quv yili joriy yilning 2 sentyabridan keyingi yilning 31 mayigacha bo‘lgan davrni, yozgi sog‘lomlashtirish davri joriy yilning 1 iyunidan 31 avgustigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Mактабгача ta’lim tashkilotida bolalarga ta’lim berish va tarbiyalash «Davlat tili to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat tilida va boshqa tillarda olib boriladi.

Ko‘rib turganimizdek mактабгача ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonlari ikki xil ko‘rinishda olib boriladi. Ushbu jarayonda uslubchi, o‘qituvchilar, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar ishtirok etadi. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish mazmun-mohiyatiga ko‘ra keng qamrovli bo‘lib, mактабгача ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan barcha shakllardagi ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, tarbiyalanuvchilar shaxsiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi jarayonlarni tashkil etish va uni boshqarish yo‘nalishida barcha subyektlarga tegishli funksional vazifalarni amalga oshirish jarayonlarini ham qamrab oladi. Ya’ni mактабгача ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish deganda tarbiyalanuvchilar uchun maxsus tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonlari bilan bir qatorda, tarbiyalanuvchilarda shaxsiy sifatlar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari, pedagogik tajriba-sinov, pedagogik amaliyot, tarbiyachilar uchun tashkil etiladigan uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish ham tushuniladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tushunchasi ham keng qamrovli bo‘lib, mazkur tushuncha o‘z ichiga maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlari va tarbiyachilar tomonidan bajariladigan funksional vazifalarning bajarilishini, ya’ni pedagogik jarayon ishtirokchilariga zaruriy va yetarli shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va obyektiv baholash, shuningdek, mazkur jarayonning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi vositalarni tanlash, o‘quv-metodik manbalar tayyorlash, yangi pedagogik va xborot texnologiyalari bilan ta’minlash kabi bir qator vazifalarni ham amalga oshirilishini qamrab oladi.

Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tushunchasining mazmun mohiyatini kengroq tushunib olishimiz uchun tashkil etish va boshqarish tushunchalarining mazmun-mohiyatini kengroq tahlil qilishimiz zarur hisoblanadi. Menejment va ta’lim menejmenti nomli qo‘llanma va adabiyotlarda rejalahtirish, tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish kabi tushunchalar funksiyalar sifatida, ya’ni boshqaruv funksiyalarining asosiy turlari sifatida talqin qilinadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori tomonidan ta’lim-tarbiyaviy (rivojlantirish markazlari va umumiy guruh bo‘lib ishslash), pedagogik jarayonlar (faoliyatlar)ni kuzatishning oylik taqsimoti”ga ko‘ra oylik rejada ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarni kuzatish rejasini tuzadi. Mazkur bo‘limda tashkilotda bolalarning kun davomidagi barcha faoliyat turlari (ertalabki qabul, ertalabki soat, markazlardagi ta’limiy va mustaqil jarayonlar, sayrlar, ovqatlantirish, uyqu va kunning ikkinchi yarmida tashkil etiladigan faoliyatlar)ni kuzatish tahlili olib boriladi. Bunda tashrif mazmuni oldindan belgilangan aniq maqsad asosida olib boriladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori kuzatuv jarayonida guruhda bolalaring ta’lim-tarbiyaviy, o‘yin, mehnat faoliyatlarini tashkil etishdagi tarbiyachilar ishining sifatini; dasturning turli bo‘limlari bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kuzatishi, tahlil qilishi, tarbiyalanuvchilarning xulq-atvor madaniyati, madaniy-irodaviy sifati, jamoada o‘zini tutish ko‘nikmalarini egallaganliklari kabilarni aks ettirishlari nazarda tutiladi. Tahlilga ko‘ra pedagogning

ishidagi ijobiy va kamchiliklarni qayd etish, kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalarni beradi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori tomonidan beriladigan xulosa va tavsiyalar tarbiyachiga tanishtirilib, tarbiyachining tanishganligi haqidagi imzosi bilan yakunlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining metodisti yillik ish rejasiga ko‘ra, guruhlarda o‘tkaziladigan nazorat ishlarini tashkil etish va tashkilotning pedagogik kengashlarida muhokama qilish vazifasini amalga oshiradi. Tashkilotning yillik ish rejasiga ko‘ra nazorat qilishning frontal yalpti, mavzuli va qiyosiy turlaridan foydalaniladi. Nazorat ishlari tashkilot direktorining buyrug‘i asosida nazorat o‘tkazish bo‘yicha aniq muddati ko‘rsatilgan holda ishchi guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Ishchi guruh tarkibiga metodist, hamshira, xo‘jalik mudiri, psixolog hamda shaxsiy va kasbiy kompetentligi yuqori bo‘lgan pedagoglar kiritiladi. Ular soni umumiy hisoblaganda toq bolishi kerak. Nazorat qilishning frontal yalpi, mavzuli va qiyosiy turlaridan foydalaniladi. Frontal-yalpi nazoratda guruhlar; faoliyatining barcha yo‘nalishlari atroflicha tekshiriladi. Bunday tekshiruvda tarbiyachining ish faoliyati, guruhlarda ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy yondashgan holda tashkil etilishi, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash uchun yaratilgan shart-sharoitlar, bolalarning rivojlanishi va maktab ta’limiga tayyorgarlik darajasi (kuzatish asosida), guruhning sanitар-gigiyenik hamda moddiy-texnik bazasi, ota-onalar hamda kuzatuv kengashi bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlarning holati o‘rganiladi. Mavzuli nazorat-tarbiyachining rejada belgilangan mavzu asosida ta’lim tarbiya jarayoniga yondoshuvini o‘rganishni nazarda tutadi. Ishchi guruh ma’lum bir yo‘nalish bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish sifatini bajarilishini nazorat qiladi. Qiyosiy nazorat-guruhsalar aro qiyosiy-tahlil o‘tkaziladi.

Demak, xulosa o‘rnida shuni aytish joizki bugungi kunda olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlarda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish g‘oyalarini har tomonlarna, turli nuqtai nazardan o‘rganish va tahlil qilish yo‘nalishlarida turlicha yondashuvlar mavjud. Shuningdek, olib borilgan tadqiqotlarda pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta’minlash yo‘nalishlarida

ham turlicha yondashuvlarni ilmiy asoslashga bir qator harakatlar bo‘lgan. Bizning fikrimizcha, maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiladigan barcha shakllardagi faoliyatlar va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini oshirish uchun avvalarnbor personalni to‘g‘ri tanlay olish va joy-joyiga to‘g‘ri taxsimlash boshqarilayotgan tashkilotning boshqarilish samaradorligini oshiradi va pedagogik jarayonlarning sifatli olib borilishini taminlaydi.

Ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etishda tarbiyachining roli.

Hozirgi zamon innovatsion rivojlanishning global vazifalaridan biri bu insonlarning kreativ fikrlashini shakllantirishdir. Kreativlik deganda insonning yangi g‘oyalar ishlab chiqarishi, murakkab ko‘rinib turgan, yechimi ochiq turgan muammolarga yechim topa bilishi, tavakkalchilik qobilyati, o‘zining kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuvi hamda kasbiy yetukligi kabi harakatlari nazarda tutiladi. Jahondagi globallashuv fan va ta’limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbga tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

Zamonaviy jamiyat ta’lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma’naviy va jismoniy sog‘lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo‘ymoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish" vazifasi belgilangan. Sifatli ta’lim xizmatlarini imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining imkoniyatlariga mos keluvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, oliy ta’lim muassasalari ta’lim sifati va samaradorligini oshirish kabi yo‘nalishlar belgilanib, bu borada oliy ta’lim muassasasi pedagoglarini hamda bo‘lajak mutaxassislarni kreativligini rivojlantirish, doimiy yangilanib turuvchi jamiyat hayotiga yangicha fikr va qarashlar bilan yondashuvchi yosh avlodni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash oliy ta’lim muassasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi bo‘lajak mutaxassislarda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish bo‘lajak mutaxassislarning har qanaqa jarayonda o‘zining ijodiy va kreativ qobilyatlarini namoyon qilishida foydali va kerakli jihatlarini ko‘rsatadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni yangi zamon talablariga to‘laqonli javob bera oladigan, har qanaqa vaziyatga kreativ yondasha oladigan, dunyoni yangicha qarashlar bilan anglaydigan kreativ qobilyatlarini rivojlantirish, ularda kreativ fiklash va tafakkurni shakllantirish eng avvalo maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi pedagog, mutaxassislardan kasbiy faoliyatlarida kreativ kompetentlikni talab etmoqda. Barkamol shaxsni voyaga yetkazishda roli beqiyos sanaladigan maktabgacha ta’lim tashkiloti bo‘lajak tarbiyachilari hamda mutaxassislarini kreativ kompetentligini rivojlantirish eng avvalo oliy ta’lim muassasasi pedagoglarining zimmasidadir. Ma’lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko‘ra) olti yoshgacha bo‘lgan bolalar 40% iste’dod potentsialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichiq yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda moyil bo‘lar ekanlar. Shunday ekan, ayni shu davr bolalarda kreativ qobilyatlarini shakllantirishning ayni vaqtidir. Buning uchun albatta maktabgacha ta’lim tashkilotidagi mutaxassislarning o‘zida kreativ sifat va kreativ kompetentlik shakllangan bo‘lishi kerak. Hozirgi zamon ta’lim jarayoniga Oliy ta’lim muassasasida tahsil oluvchi bo‘lajak tarbiyachilarni o‘qitishda “Pedagogika asoslari” fanining kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida zarur bo‘lguvchi kompetentligini rivojlantirilishi ta’lim jarayonini samarali va sifatli tashkil etishda xizmat qiluvchi omil bo‘lishini bilishi kerak.

Tarbiyachi maktabgacha talim tashkilotida asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darjasи tarbiyachining g‘oyaviy-siyosiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo‘lgan ijodiy munosabatiga bog‘liq.

Bolaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati ko‘proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi. Tarbiyachining o‘ziga xos xususiyati uning yuksak kasb

mahoratidir. Eng muhimi-bolaning ruhiyatini, yosh va o‘ziga xos ruhiy fiziologik xususiyatlarini bilishdir.

Bolalar bog‘chasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtda va qanday namoyon bo‘lishini oldindan ko‘ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi. Tarbiyachi o‘z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliv nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi. Tarbiyachi har bir boladagi o‘ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o‘ziga xos xususiyatlarni (zararli bo‘lsa) yo‘qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo‘yadi. Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo‘lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta’iri juda katta bo‘ladi. Chunki bu davrdagi har bir ta’surot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi. Bolani tushuna bilish va uning ma’naviy dunyosiga kira olish tarbiyachidan zo‘r kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda bo‘lish-fikrlar manbai, pedagogik yangiliklar, quvonch va tashvishlardirki, busiz tarbiyachining ijodiy mehnatini tasavvur etib bo‘lmaydi. Tarbiyachi bolalarga ta’lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigienik, xulq madaniyati, nutqi, sanoq-hisob, harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko‘nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta’lim berishda bosh rolni mashg‘ulot egallaydi. Mashg‘ulotlar bolalar bog‘chasida ta’limni tashkil etish shaklidir. U maktabgacha tarbiya yoshidagi hamda bolalar uchun majburiydir, unda dastur mazmuni belgilab berilgan. Kun tartibida unga ma’lum o‘rin va vaqt ajratilgan. Mashg‘ulot tarbiyachi rahbarligida o‘tkaziladi, tarbiyachi mashg‘ulotlarda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarini esa aniqlab mustahkamlaydi. Bolalarning amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etadi. O‘quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Demak, mashg‘ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg‘ulotda bolalarda

barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalg etish kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Ayniqsa, bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga bирgalikdagи faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topag'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar ishiga zo'r berishni talab etuvchi vazifa qo'yilganda bирgalikda qayg'urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi Har bir yosh guruhidagi bolalar, o'z tarbiyachilari bilan maishiy-xo'jalik, mehnat, o'yin faoliyatida muloqotda bo'ladilar. Tarbiyachi bolalar o'yinini tashkil etadi, badiiy asarlarni o'qib beradi yoki hikoya qiladi. Mana shu jarayonda tarbiyachi nutqining yaxshi tomonlari ham, nuqsonlari ham yaqqol namoyon bo'ladi va bu xususiyatlardan tarbiyalanuvchilar nutqida o'z aksini topadi. Demak, bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilarining nutq xususiyatlari to'laligicha tarbiyachi nutqiga bog'liq. Doimo bolalarning diqqat markazida bo'lgan tarbiyachining nutqi bolalar uchun madaniy nutq namunasi hisoblanadi. Tarbiyachi har doim o'z nutqiga tanqidiy nuqtayi nazardan qarashi, agar nutqida biror kamchilikni sezsa, uni darhol bartaraft etishga harakat qilishi lozim.

Nazorat savollar:

- 1.Bolalarda tashabbusni namoyon etish qanday amalga oshiriladi?
- 2.Bola o'zidan kichiq o'zidan katta va tengdoshlari bilan va o'zaro muloqot jarayoni qanday olib boriladi?
- 2.Ta'lim tarbiya jarayoni qanday tashkil etiladi?
- 3.Ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etishda tarbiyachining roli qanday?

19-Mavzu-Bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktab va oilaning hamkorligi.

Reja:

- 1.Bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktab va oilaning hamkorligi.
- 2.Sotsial tarbiya jarayonining mazmun mohiyati.Tarbiya qonuniyatlari.
- 3.Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktab va oilaning hamkorligi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev
**“Zamonaviy maktabgacha ta’lim sog‘lom va barkamol
avlodni voyaga yetkazishda muhim o‘rin tutadi”**
deya ta’kidlaydi.

Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida oila qadriyatlarining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari, har bir oilaning iqtisodiy, madaniy, kasb-kor jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila muammolari hamisha davlatning diqqat e’tibori va himoyasida bo‘lib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila masalasiga ham alohida urg‘u berilgan. Konstitutsiyamizda: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidur hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”, deb yozilgan.

Oila-Muqaddas dargoh. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviyat qo‘rg‘oni bu oiladir”. Bugungi kunda barchamizning asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz barkamol avlodni tarbiyalashdir. Shu bois ham mamlakatimizda barcha xayrli ishlar avvalo oilalarni mustahkamlash va yosh avlodning yorug‘ kelajagini ta’minalash maqsadida amalga oshirilmoqda. Zero, oila sog‘lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir. Bolalar tarbiyasiga nafaqat oila, ta’lim-tarbiya muassasalari balki mahalla ham ma’suldir. Chunki, farzand tarbiyasi ko‘p

omillarga, avvalo, axloqiy-ma'naviy muhitga ham bog'liq. Ta'lim-tarbiya muassasalari bilan oila hamkorligi bunda muhim ahamiyatga ega. Ona yurtiga muhabbatni shakllantirish, ma'rifatli va ma'naviyatli shaxs sifatida voyaga yetishlarini ta'minlash, bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bugungi kunda barkamol inson tarbiyasi, bola tarbiyasida ota-onada mas'uliyatini oshirish, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish eng dolzarb masalasi hisoblanadi.

O'zbek, milliy madaniyati, bola tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi pedagogik bilimlarni takomillashtirish bo'yicha yaxlit tarbiya tizimi ham oila, ham mакtabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Bola tarbiyasida bu ikki yo'naliш biri ikkinchisining o'rnini bosa olmaydi, balki biri ikkinchisini to'ldiradi. Sog'lom muhitda sog'lom bola o'sib ulg'ayadi. Sog'lom muhitni yaratish oilada oila a'zolarining maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik xodimlarning nechog'lik bilimdonligiga, zukkoligiga bog'liqdir. Ko'p hollarda bir xil yoshdag'i bolalarning taraqqiyotida notejislikni ko'rish mumkin. Bolani jismonan, ma'nan, ruhan yetuk inson qilib tarbiyalashda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorligi muhim ahamiyati kasb etadi. Shuning uchun har bir oiladagi pedagogik madaniyatni takomillashtirish zarur. Maktabgacha ta'lim tashkiloti murabbiylari tarbiya borasida ota-onalarga ham ta'sir o'tkaza olishlari, oila pedagogikasining nozik jihatlarini chuqr bilishlari kerak. Har bir guruh xonalarida ota-onalar sizlar uchun burchak tashkil qilinib, doimiy ravishda har bir oyda guruh bolalari taraqqiyotidagi o'zgarishlar aniq tahlil qilib ko'rsatilishi va shu asosda ota-onalar uchun tegishli maslahatlar, tavsiyalar berish maqsadga muvofiqdir. Ayrim bolalarning ota-onalari bilan alohida suhbatlar o'tkazib, tegishli yo'l-yo'riqlar beriladi.

Masalan: nutqida, jismoniy o'sishida, xulqida kamchiligi bo'lgan bolalarni faqat tarbiyachining harakati bilan bartaraf qilish qiyin. Bolaning oiladagi faoliyati ham, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi faoliyati ham yagona maqsadga bo'ysundirilgan bo'lishi kerak. Ta'lim tizimining demokratlashuvi, innovatsion

dasturlar mактабгача та’лим ташкilotining ham oila bilan o‘заро hamkorligi muammosini hal etish, Barkamol farzandni tarbiyalayotgan ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish sharoitlarini yuzaga keltirish yo‘llarini tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqotchilarning fikricha maktabgacha ta’lim va oila o‘rtasidagi hamkorik faoliyati jarayonida ota-onalarning farzand tarbiyasiga oid bo‘lgan ba’zi bir kamchiliklari ko‘zga tashlanib qolmoqda.

Bular:

- ota-onalarning ta’limga bo‘lgan ehtiyojlari va ularni qondirishning imkoniyatini mavjud emasligi;
- ota-onalarda pedagogik madaniyat darajasining pastligi va bolani tarbiyalashda psixologiya asoslarini bilmasliklari hamda ba’zi bir maktabgacha ta’lim tashkilotilarida ta’lim tizimining talab darajasida emasligidir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi hamkolik faoliyatida bolalarning hayot tarzi va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi bir kamchiliklarni bartaraf etish, hamda ularni jamoada va jamiyat hayotida o‘z o‘rnini topishlari bevosita ota-onaga, oilaviy muhitga ham bog‘liqdir. Bu jarayonda esa oila bilan maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlari bolalarni tarbiyalash va o‘qitishdagi ham fikrlilik qilishlari, ular bilan doimiy aloqa o‘rnatishlari, tarbiyachilar bilan o‘заро muloqotda bo‘lishlari tavsiya etiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotini oila bilan bevosita bog‘lovchi vosita-bu bolalarimiz hisoblanadi. Bolajonlarimiz bilan ishlash, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijtimoiy faolliklarini ta’minlash orqali ota-onalarga ta’sir ko‘rsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Bola tarbiyasida oilaning o‘rni beqiyos. Oila bolaga qattiq ta’sir ko‘rsatadi, uni atrofdagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo‘lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ota-onalarni tashkiliy ishlarga jalb etish masalan, yumshoq o‘yinchoq tayyorlash, suv va qum bilan o‘ynashi uchun o‘yinchoqlar yasash, maydonchalarni ko‘kalarnazorlashtirish uchun jihozlar tayyorlash muhim tadbirlardir. Bunday tanlovlardan tarbiyachining yillik ish

rejasida o‘z aksini topgan bo‘lishi kerak. Tanlov shartlarini umumiy ota-onalar yig‘ilishlarida muhokama qilish va ma’qullab olish kerak. Faol ishtirokchi ota-onalarga tashakkurnoma e’lon qilish, bu borada buvi-yu, bobolarning ham maslahatlariga qulq tutmoq lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo‘lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko‘rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish kerak. Ota-onalarni maktabgacha ta’limga jalb etish maqsadida turli xil to‘garaklar, tadbirlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, guruhiy va umumiy ota-onalar yig‘ilishlari, ochiq eshiklar kunini tashkil etish diqqatga sazovor holatlardir.

Sotsial tarbiya jarayonining mazmun mohiyati.Tarbiya qonuniyatları.

Tarbiya-shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan hissiyotlarga ega bo‘lishini ta’minalash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi hisoblanadi.

Tarbiya yordamida inson shaxsining ma’naviy jihatlarini qaror toptirish ko‘zda tutiladi. Dunyoqarash, e’tiqod ezgulik, go‘zallik, yaxshilik, odatlilik va ko‘nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamida amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirish g‘oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta’sirlarga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta’siri bolaning ularga munosabati, bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirish emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qanday anglashni baholashi, his qilishni anglashi e’tiborga molikdir. Ulardan o‘zi uchun nimalarni maqsad qilib

olayotganligini bilishi zarur. Bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar jarayonida murakkablashib boradi. Tarbiya jarayoni bolaning ongini emas, balki his-tuyg‘ularini ham o‘stirib borishi, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan huquqiy malaka va odatlarni hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun bolaning ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta’sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e’tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Tarbiya jarayoniga tarbiyachi rahbarlik qiladi, bolalar faoliyatini elgilaydi, ularni ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Tarbiyani samarali yo‘lga qo‘yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini-tarbiya jarayonining manbasini yaxshi bilish va hisobga olish muhim hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda tarbiya jarayoni-har bir insonning hayotda yashashi (umumiyl faoliyat, ta’lim, tarbiya) jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobjiy ko‘nikmasini o‘zida shakllantirish va o‘zgalarga berish jarayonidir. Tarbiya jarayonida ichki va tashqi qarama-qarshiliklar mavjud bo‘lib, u bevosita tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Tarbiyada o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo‘ladi. Bu jihat unutilsa, qarama-qarshiliklar kuchayadi.

Tarbiyalanganlik-milliy urf-odatlar, qadriyatlarga e’tiqod bilan rioya qiladigan, noqonuniy ishlardan o‘zini tiya oladigan, o‘z hatti-harakatlari bilan o‘zgalar nafratini qo‘zg‘amaydigan xulq-atvordir. Faoliyat jarayonida hosil bo‘lgan malaka va odatlar axloq me’yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi. Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri-o‘quvchilik yillarida uning ongiga turli-tuman faoliyat (o‘qish, mehnat, o‘yin sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta’sir etishi mumkin.

Tarbiya mazmuni deganda, qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan bog‘liqlikda ta’lim oluvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, e’tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, rivojlanishi, yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib

belgilanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Tarbiyaning umumiy vazifalari:

- jamiyat a’zolarining maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlash;
- ma’lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a’zolarining harakatini tartibga solish.

Tarbiya jarayoning o‘ziga xos xususiyatlari

Tarbiya jarayoni-o‘qituvchi va ta’lim oluvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilganha mkorlik jarayonidir.

Tarbiya jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- maqsadga yo‘naltirilganligi;
- ko‘p qirrali jarayon;
- uzoq muddat davom etishi;
- uzluksizligi;
- yaxlitligi;
- variativligi;
- natijalarning oldindan aniqlanmasligi;

ikki tomonlarnalilik.

Tarbiya jarayonining qonuniyatları va tamoyillari.

Tarbiya qonuniyatları-bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalar.

- | | |
|--|---|
| Tarbiya | jarayonining quyidagi qonuniyatları mavjud: |
| -ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga | bog‘liqligi; |

- tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o‘zaro bog‘liqligi;
- faoliyat va munosabatni e’tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli
- fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai;
- tarbiyalanuvchilarning o‘zaro tarbiyaviy ta’siri, o‘zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o‘rtasidagi bog‘lanish;
- tarbiya va o‘zini-o‘zi tarbiyalashning intensivligi;
- tarbiyalanuvchining “ichki olami”ga ta’sir etishning intensivligi (G.I. O‘kina);
- tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta’sirni hisobga olish (G.I. Shukina).

Tarbiya tamoyillari-bu tarbiyaviy ishning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo‘yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:

- maqsadga qaratilganligi va g‘oyaviy yo‘nalganligi;
- tarbiyaning insonparvarlashuvi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog‘liqligi;
- tarbiyaga yaxlit (kompleks) yondashuv;
- jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko‘rish;
- shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo‘shib olib borish;
- o‘qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta’sirlarining birligi;
- tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiya jarayonining tizimligi va uzluksizligi.

Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiyaning maqsadi - har bir shaxsni shakllantirish. Tarbiya mazmuni deganda, qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan bog‘iqlikda tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka,

e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi. Tarbiyaning umumiylariga quyidagilar kiradi: tarbiyalanuvchilarning maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish; jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash; madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash; ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining barakatini tartibga solish.

Tarbiya jarayoni-tarbiyaviy ishlar, tadbirlarning doimiy harakatdagi zanjiridan iborat. Tarbiyaviy tadbirlar-turli xil moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarni pg yagona majmuasiga bo'ysundirilgan, bir-biri bilan o'zaro hamkorlik qiluvchi, o'zida bir butun tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazmunini ta'limni ko'zda tutgan tarbiyaviy ta'sir majmuidir. Ta'lim jarayoni alohida mashg'ulotlardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi. Tadbirlar, tarbiyaviy ishlar tarbiya jarayonining bir bolagidir.

Tarbiyaviy ish-bu tarbiyaning tizimliligi, tozaligi, uzviyligi va uzlusizligidir. Tarbiyaviy ish tarbiyalanuvchilarning muayyan faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shaklidir. Tarbiyaviy ishning asosiy xususiyati - zaruriylik, foydalilik va tatbiq etish imkoniyatidan iborat.

Tarbiya jarayoni - bu natijasi jamiyat uchun foydali shaxsni shakllantirishga qaratilgan maxsus tashkil etiluvchi, boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati. Boshqacha aytganda, mazkur jarayon qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan tarbiyachi va tarbilanuvchilarning o'zaro hamkorligidir. Tarbiya jarayoni ko'plab obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Subyektiv omillar bolaning ichki ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lsa, obyektiv omillar tarbiyaviy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradigan bola yashaydigan

muhit sharoitlari bilan tavsiflanadi. Pedagogikada tarkib topgan qonuniyatga ko‘ra tarbiya jarayoni inson tug‘ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadi.

Tarbiya-tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar ning izchil, tizimli o‘zaro harakati jarayoni. Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun tarbiyaviy ishlar tizimli yo‘lga qo‘yilishi lozim. Ya’ni tarbiya jarayoni maqsad, vazifa, mazmuni, shakl, uslub va vositalarining birligidir. Bolani tarbiyalash jarayoni yaxlit tavsifga ega bo‘lganligi bois tarbiyaviy ta’sirning ham to‘laqonli bo‘lishiga erishish lozim.

Tarbiya jarayoni xilma-xil ko‘rinishda amalga oshirilib, mazkur holatda tarbiyalanuvchilar ning individual rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar, tarbiyaviy jarayonga munosabati, ijtimoiy tajribalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya jarayonining murakkabligi shundaki, mazkur jarayon o‘z mahsulini yillar davomida ko‘rsatadi. Kutilgan natijaga erishish ham tarbiyachining kasbiy mahoratiga, ham tarbiyalanuvchining shaxsiy faolligiga bevosita bog‘liqdir.

Tarbiya jarayonining borishi ikki yo‘nalishda amalga oshadi: tarbiyachi-tarbiyalanuvchi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa) va tarbiyalanuvchi-tarbiyachi (qayta aloqa). Tarbiya qonuniylari-bu bir tomondan, tarbiya qonuniylari ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalardir.

O‘z-o‘zini tarbiyalash yaxshi tarbiya natijasida yuzaga kelib, shaxsning o‘z-o‘zini kamolga yetkazishiga olib keladi. O‘z-o‘zini tarbiyalash bevosita tarbiyalanuvchilar hayot mazmuni, ularning qiziqishlari, u yoki bu yosh davridagi xarakterga bog‘liqdir. O‘z-o‘zini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tarbiyalanuvchiga o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olish, o‘zidagi ijobiy va salbiy jihatlarni aniqlay olish imkonini beradi; tarbiyalanuvchining “ichki olarni”ga ta’sir etishning intensivligi. “Tarbiyalanuvchining ichki olami” deganda motiv, ehtiyoj, emotsiya, intellekt kabilarning birligi tushuniladi. Tajriba, bolaning ehtiyojlari orqali sinaladigan tashqi muhit ta’siri uning yutug‘i sifatida yuzaga keladi.

Aynan tarbiyaviy jarayonda tashqi ta’sir bolaning ichki muvaffaqiyatini kuchaytiradi. Amaliyotda ko‘rishimiz mumkinki hamma vaqt ham bolaning aqliy

rivojlanishi uning verbal nutqi va harakatga doir sensomotor ko'rsatkichlariga mos kelavermaydi. Nazariy bilimlarga oson va erkin tayanuvchi bolalar uchun ba'zan elementar amaliy harakatlar, sohada mehnat faoliyatiga doir operatsiyalarni, jismoniy mashqlarni bajarish qiyin va murakkablik qiladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish dinamikasi bilan pedagogik ta'sirning uyg'unligiga erishish lozim.

Tarbiya tamoyillari-bu tarbiyaviy ish jarayonidir. Tarbiya tamoyillarining yo'nalishiga, mazmuniga, uslublari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:

Maqsadga qaratilganligi va g'oyaviy yo'nalganligi. Tarbiya jarayonida maqsadning aniq belgilanishi kutiladigan natijaga erishishni kafolatlaydi. Shuningdek, tarbiya jarayoni jamiyatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, milliy g'oya va mafkura asosiga qurilishi lozim. Respublikamizda tarbiya jarayonining asosiy maqsadi sifatida yuksak m a'naviyatli shaxsni shakllantirish belgilab olingan.

Yuksak ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z vatanining sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. U har qanday zararli illatlarga qarshi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Tarbiyaning insonparvarlashuvi. "Insonparvarlik" tushunchasi mohiyatini, uning turlari va ilmiy pedagogika bilan munosabatlarini qanday talqin qilish kerak? "Falsafa: qomusiy lug'at"da insonparvarlik "Odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak m a'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amxoirlik qilish g'oyalari bilan sug'orilgan dunyoqarash" sifatida qaraladi. "Pedagogik ensiklopedik lug'at"da esa, insonparvarlik shaxs sifatida inson, uning erkin rivojlanishi va o'z qobiliyatlarini namyon eta olishini qadriyat sifatida qabul qilish ekanligi uqtiriladi. Keng ma'noda insonparvarlik - insonni shaxs sifatida qadriyat deb belgilaydigan, uning erkinlik, baxtga bo'lgan huquqi,

o‘zining qobiliyatlarini namoyon etishi va rivojlantirishi, ijtimoiy institutlarning baholash mezonlarida inson ravnaqini hisobga oladigan qarashlarning tarixiy o‘zgaruvchan tizimi, insoniylik-odamlar orasida kutiladigan me’yoriy munosabat. Insonparvarlik asosida yana insonning cheksiz imkoniyatlari va uning komillikka doir intilishlari, o‘z qobiliyatları, qarashlarini erkin namoyon etishga doir shaxs huquqini e’tirof etib turadigan, inson ravnaqini ijtimoiy munosabatlar darajasini baholash mezoni sifatida tasdiqlaydigan dunyoqarash tamoyili tarzida ham qaraladi. Hozirgi vaqtda mazkur tamoyil pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida shakllantirildi. Tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish eng umumiy ma’noda, tarbiya jarayoni ishtirokchilarining munosabatlarini avtoritar pedagogik muloqot uslubidan demokratik muloqot uslubiga almashtirish asosiga tashkil etilishi bilan tavsiflanadi. Bunda asosiysi - tarbiyalanuvchi shaxsiga hurmat va ta’lim mazmunida ijtimoiy tajriba tarzida olingan insoniyat madaniyati bilan tanishtirish yo‘lida uning ma’naviy imkoniyatini hisobga olish. Tarbiya jarayonining mohiyati ijtimoiy tajribani maqsadga yo‘naltirilgan tarzda shaxsiy tajribaga almashtirish yoki shaxsiy va ijtimoiy tajribaning qo‘shilishida namoyon bo‘ladi. Tarbiyani insonparvarlashtirish uning yetakchi tendensiyasi sifatida tarbiyani insongaqratish, uning individualligining namoyon bo‘lishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratishni ifodalaydi. U insonni yuqori ehtiyoj lari: o‘zo ‘zini namoyon etish, o‘z-o‘zini realizatsiyalash, ma’naviy, ijtimoiy va kasbiy shakllanishida maksimal darajada qoniqishga yo‘naltirilgan noyobligini yo‘qotish, hayot, tabiat dunyosi va madaniyatdan begonalashib ketish xavfidan himoyalanishga chaqiradi. Tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog‘liqligi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti bola uchun boshlang‘ich va asosiy tarbiya maskani hisoblanib, aynan tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog‘liqligi tarbiya tizimida katta o‘rin tutadi. U tarbiyachidan ikkita asosiy yo‘nalishda faoliyatni amalga oshirishni talab etadi:

- 1) tarbiyalanuvchilarni kishilarning mehnat faoliyati bilan keng tanishtirish;
- 2) tarbiyalanuvchilarni real hayotiy munosabatlarga, ijtimoiy foydali faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish. Tarbiyaning mehnat bilan bog‘liqligini oqilona amalga

oshirish tarbiyachidan tarbiyalanuvchilarning quyidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlariga erishishni talab etadi:

- 1) tarbiyalanuvchilarning mehnatning jamiyat va uning har bir a’zosi uchun ahamiyatini tushunib yetishlari;
- 2) moddiy va m a’naviy boyliklarni yaratuvchilar mehnatini hurmat qilish;
- 3) tarbiyalanuvchilarning o‘z ustida ishlashlari, muntazam ravishda mehnat qilishga odatlanish;
- 4) tarbiyalanuvchilarning kasb-hunarga oid tushunchalarni o ‘zlashtirib borishlari va ular haqida ma’lumotga ega bolishlari;
- 5) moddiy va m a’naviy boyliklarga m as’uliyatli munosabatda bo‘lish.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. Mazkur yondashuvning mohiyati-yo‘nalganlik, tarbiyani shaxsning xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy pedagogik ta’sir sifatida qarash; har bir pedagogik ta’sir tarbiyalanuvchida uning so‘zлari, hatti-harakati yoki amallarida namoyon bo‘ladigan ma’lum javobni yuzaga keltiradi. Madaniyatshunoslik yondashuvi. Maxsus tashkil qilingan pedagogik jarayon sifatida tarbiyadan voz kechish. Madaniyatni dunyo manzarasini egallash jarayonida atrofdagilarning hatti-harakatlari va xulqiga tabiiy tarzda moslashish.

Aksiologik yondashuv. Mohiyati-insonning jamiyatdagi hayotining o‘zini qadriyat sifatida qaraydigan asosiy falsafiy qadriyatlar nazariyasi; tarbiya hayotga tayyorlashga, shaxsiy qadriyatli yo‘nalganlik va shaxsning munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Tarbiya qadriyatlarni o‘zlashtirish va interiorizatsiyalash jarayoni sifatida tashkil etiladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

- 1.Bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsadi va vazifasi qanday?
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan hamkorlikda qilinadigan ish mazmuni nimalardan iborat?
- 3.Sotsial tarbiya jarayonining mazmuni nimalardan iborat?
- 4.Tarbiya qonuniyatlarini tavsiflab bering.

5.Tarbiya jarayonida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning bir maqsadga yo‘naltirilganlik qoidasini tushuntiring.

20-Mavzu.Kasbiy ijodiy tafakkurni, bilimlarni to‘ldirish va yangilashga bo‘lgan ehtiyojlarini rivojlantirish.

Reja:

- 1.Kasb haqida tushuncha va uning turlari.
- 2.Kasbiy mahorat turlari.
- 3.Tarbiyaning maqsadi-har tomonlarna barkamol shaxsni shakllantirish.

Kasb haqida tushuncha va uning turlari

Kasb kishining mehnat faoliyati doimiy mashg‘uloti turi muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasb-lotincha: profession-rasmiy ko‘rsatilgan mashg‘ulot ixtisoslik]-maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisoslar bor. Kasblar turli xil bo‘ladi.

Masalan: o‘qituvchilik, tarbiyachilik, doktorlik, mexanik, texnolog, uchuvchi,kasmonaft va boshqalar bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Dunyoda 1000 dan ortiq kasb va mutaxasisliklar mavjud. Ushbu kasblarning birini qobiliyatlarimizga, dunyoqarashimizga eng asosiysi qiziqish va moyilliklarimizga qarab tanlashimiz kerak

Kasb tanlash oddiygina ishdek tuyulsa-da, uning keyinchalik inson taqdiriga ta’siri haqida nuqtai nazardan yondashsak, bu har bir insonning hayot debochasi yoki umri mazmunini tashkil etuvchi omil ekanligini tushunib yetamiz. Kasb-hunarga yo‘naltirish, ta’lim-tarbiya jarayoni bilan uyg‘un olib borilishi buni bolalar bilan maktabgacha ta’lim yoshidan boshlash maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni dastlabki kasb-hunarga yo‘naltirish o‘yin va mashg‘ulotlar davomida ularning tug‘ma layoqati, moyilligi va

qobiliyatlarining ilk nishonlarini o'rganib borishi bilan mehnatga ijodiy munosabatini, tengdoshlari va kattalarga yordamga tayyorgarlik xususiyatlarini takomillashtirish turli kasb-hunar to'g'risida yoshiga mos qilib ma'lumotlar berish yo'naliishlarida olib boriladi. Bunda albatta maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning fiziologik, individual-psixologik xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Ma'lumki, bu yoshda idrok, diqqat, xotira va tafakkur, nutq ba tasavvur sezilarli darajada shakllangan va shakllanishi faol ketayotgan davr hisoblanadi. Bu maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchisini maqsadli va ongli hatti-harakati hamda berilayotgan ma'lumotlarni tushunishi, o'qish imkonini beradi. Shuningdek, bu yoshda o'z hatti-harakatini nazorat qilish, o'zligini baholashning soddaroq bo'lsada ko'rinishlarini bolalarda kuzatish mumkin.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ortiqcha va o'ta mavhum ma'lumot tushunchalarini qabul qilishda qiynaladilar, tez charchashlari, bir xil ma'lumotlardan zerikishlari ham mumkin. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasb-hunarga yo'naltirish asosan o'yin shaklida amalga oshiriladi. "Shifokor-shifokor", "Maktab-maktab", "Sartaroshxonada" va shu kabi o'yinlar davomida bolalar dastlabki kasbiy tasavvurga ega bo'lishadi. Bundan tashqari o'yin bolalarni kattalar mehnati mohiyatini anglashga, odamlar o'rtasidagi ilk kasbiy munosabatlarini tushunishga yordam beradi. Bunday o'yinlar "Ilk qadam o'quv dasturi"da juda ko'plab berilgan. Ayniqsa, tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg'ulotlarida kattalar mehnati bilan tanishtirish bo'yicha qator mavzular kiritilgan. Kattalar mehnati va kasb-hunarlar bilan tanishtirish bo'yicha mavzularning borligi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ilk kasbiy tasavvurlarini shakllantirish uchun foydalidir. Boshqa mashg'ulotlar davomida ham bolalarga kasb-hunar, kasbiy munosabatlarga doir dastlabki mashg'ulotlarni berish qiyin emas. Buning uchun tarbiyachi va ota-onadan bolaga biroz ijodiy yondashuv talab etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni hayoti uchun zarur bo'lgan har kungi ishlarga jalb etishga ham e'tibor berish kerak. Bunda mehnat qilishning asta-sekin ma'naviy ehtiyojga aylanib borishiga erishish hamda burch va ma'suliyat tuyg'ularini

shakllantirishga e'tibor qaratish lozim. Nafaqat o'yin jarayonida balki rasm chizish, atrof-muhit bilan tanishtiruv, konstruksiyalar yasash, sanoq mashg'ulotlarida ham ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish kasb-hunarga yo'naltirish bilan bog'lash mumkin.

Bundan tashqari bolalarni mustaqil faoliyat bilan shug'ullanishi o'ziga xos yo'llarini izlash, harakatini doim qo'llab, rag'batlantirib borish zarur. Maktabgacha ta'lim kasblar haqidagi asosiy bilimlarni shakllantirishning birinchi bosqichidir. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasblarning xilma-xilligini va keng tanlovi bilan tanishadilar. Bolalar qanchalik ko'p ma'lumotni o'zlashtirsa va qanchalik xilma-xil va boy bo'lsa, kelajakda uning hayotini belgi-laydigan hal qiluvchi tanlovni amalga oshirish osonroq bo'ladi. Insonda hamma narsa bolalikdan boshlanadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga o'yin va mashg'ulotlar davomida hosil qilingan ilk kasbiy tasavvurlar ularning mакtabda o'qishi davomida mustahkamlanib rivojlantiriladi.

Kasbiy mahorat turlari.

"Kasbiy kompetentsiya" tushunchasining mohiyatini tahlil qilish, uni tarbiyachining (o'qituvchining) kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish va maktabgacha ta'lim tizimida shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq maqsadlarga erishish qobiliyatini aks ettiradigan bilim, tajriba va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar integratsiyasi sifatida taqdim etishga imkon beradi. Va bu kasbiy faoliyat subyekti ma'lum darajadagi professionallikka erishgan taqdirda mumkin. Psixologiya va akmeologiyadagi kasbiylik – bu kasbiy faoliyat vazifalarini bajarishga tayyorlikning yuqori darajasi, mehnat predmetining sifat xarakteristikasi, yuqori kasbiy malakalar va malakalarni, turli xil samarali kasbiy mahorat va ko'nikmalarni aks ettiruvchi, shu jumladan ijodiy yechimlar, zamonaviy algoritm va yechimlarga egalik qobiliyatlarini aks ettiradi. Yuqori va barqaror mahsuldarlikka ega faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan professional vazifalardir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kompetentsiyalar "bu shaxsning kutilgan va o'lchovli yutuqlari bo'lib, u o'quv jarayoni tugagandan so'ng shaxs nima qila olishini belgilaydi; mutaxassisning

ma'lum bir professional sohadagi muvaffaqiyatli faoliyati uchun uning barcha salohiyatidan (bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy fazilatlar) foydalanishga tayyorligini belgilaydigan umumlashtirilgan xususiyat ».

Shu bilan birga, shaxsning kasbiy mahorati ham ajralib turadi, bu shuningdek mehnat predmetining yuqori darajadagi kasbiy muhim yoki shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlarini, kasbiy mahoratini, ijodkorligini, intilishning yetarli darajasini, shaxsning progressiv rivojlanishiga qaratilgan motivatsion sohasini va qiymat yo'naliшlarini aks ettiruvchi sifat ko'rsatkichi sifatida tushuniladi. Jahon miqyosida pedagogik tajriba va ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida inson hayoti davomida egallaydigan barcha ma'lumotining 70%ini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi o'z isbotini topgan. Darhaqiqat, bu davr mobaynida bola dunyoni idrok qilishni boshlaydi, fikrlaydi, atrof- olam bilan tanishadi, umri davomida oladigan bilimlarga zamin tayyorlaydi. Yurtimiz kelajagi hisoblangan yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining o'rni beqiyosdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi bo'lajak mutaxassislarda kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish bo'lajak mutaxassislarning har qanaqa jarayonda o'zining ijodiy va kreativ qobilyatlarini namoyon qilishida foydali va kerakli jihatlarini ko'rsatadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni yangi zamon talablariga to'laqonli javob bera oladigan, har qanaqa vaziyatga kreativ yondasha oladigan, dunyoni yangicha qarashlar bilan anglaydigan kreativ qobilyatlarini rivojlantirish, ularda kreativ fiklash va tafakkurni shakllantirish eng avvalo maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi pedagog, mutaxassislardan kasbiy faoliyatlarida kreativ kompetentlikni talab etmoqda. Barkamol shaxsni voyaga yetkazishda roli beqiyos sanaladigan maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilari hamda mutaxassislarini kreativ kompetentligini rivojlantirish eng avvalo oliy ta'lim muassasasi pedagoglarining zimmasidadir. Ma'lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko'ra) olti yoshgacha bo'lgan bolalar 40% iste'dod potentsialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichik yoshdanoq

ijodkorlik, yaratuvchanlikkajuda moyil bo‘lar ekanlar. Shunday ekan, ayni shu davr bolalarda kreativ qobilyatlarini shakllantirishning ayni vaqtidir. Buning uchun albatta maktabgacha ta’lim tashkilotidagi mutaxassislarining o‘zida kreativ sifat va kreativ kompetentlik shakllangan bo‘lishi kerak. Hozirgi zamon ta’lim jarayoniga Oliy ta’lim muassasasida tahsil oluvchi bo‘lajak tarbiyachilarni o‘qitishda “Kreativ Pedagogika asoslari” fanining qo‘shilgani talabalarning keljakdagi kasbiy faoliyatlarida zarur bo‘lguvchi kreativ kompetentligini rivojlantirilishi ta’lim jarayonini samarali va sifatli tashkil etishda xizmat qiluvchi omil bo‘ladi desak, adashmaymiz.⁵ Maktabgacha ta’lim konsepsiyasiga binoan maktabgacha ta’limning ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat: bolaning shaxsiy rivojlanishi, uning hissiy farovonligi haqida g‘amxo‘rlik qilish, tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirish, bolalarning boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish qobiliyatini shakllantirish. Ushbu vazifalar shaxsni rivojlantirishning o‘ziga xos qimmatli davri sifatida maktabgacha yoshg bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi. Maktabgacha taraqqiyot davrining qiymati va uning keyingi barcha inson hayoti uchun doimiy ahamiyati maktabgacha tarbiyachilarga alohida mas’uliyat yuklaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldida turgan asosiy vazifalarni hal qilish, maktabgacha ta’limning muqobil dasturlarining yangi maqsadlari va mazmuni bolaga nisbatan manipulyativ yondashuvni, u bilan o‘zaro munosabatlarning tarbiyaviy va intizomiy modelini inkor etib, kattalar va bolalar o‘rtasidagi yangi munosabatlarni kutmoqda. Biroq, keljakdagi tarbiyachilarni o‘qitish jarayonida hozirgi paytda ko‘plab ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar faqat maxsus bilimlarga ega bo‘lishadi; ular ko‘nikmalarni egallaydilar.

Tarbiyaning maqsadi-har tomonlarna barkamol shaxsni shakllantirish.

Insonning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun nasl-irsiyat (inson-biologik mavjudod sifatida), ijtimoiy muhit (ijtimoiy-iqtisodiy hayot) hamda maqsadga muvofiq tashkil etilgan tarbiya va uning faoliyati kabi va yana bir qancha

omillar ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagogik ta'lim jarayonida talaba-yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga yetishi qonuniyatlari, shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi.

Oliy pedagogik ta'limning asosiy maqsadi ham shaxsni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishi, talabalar yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ijodiy imkoniyatlarini har tomonlama ro'yobga chiqarish, insonparvarlik munosabatlarini shakllantirishdan iboratdir. Tarbiya qonuniyatiga ko'ra shaxsning kamolga yetishi jamiyat rivojlanishidan orqada qolsa, ijtimoiy maqsadni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilmagan bo'lsa, uni amalga oshirish qiyin. Pedagog kadrlar tayyorlashda bir butun, yaxlit shaxsni rivojlantirish muammosini tadqiq etar ekan, shaxsni ijtimoiy munosabatlar va ongli faoliyat subyekti sifatida talqin etadi.

Shuningdek, shaxsning yaxlitligi atrof-olamni anglash hamda ijtimoiy muhit sharoitida aniqlanadi. Pedagogning shaxs sifatida o'z-o'zini anglashi hamda faolligi, maqsadga intilishi tarbiyalanuvchining ijtimoiy-pedagogik muhitga moslashishi va o'z-o'zini baholashiga yordam beradi degan g'oyani ilgari suradi. Mualliflar: B.G.Ananev, A.N.Leontev, L.S.Vigotskiylarning fikrlariga tayangan holda o'qituvchi shaxsi tarbiya va ijtimoiylashuv sharoitida shakllanadi, degan xulosaga keladi.

Ko'pgina tadqiqotda bo'lajak o'qituvchini yaxlit shaxs sifatida rivojlantirishning pedagogik asoslari ishlab chiqilib, ular quyidagilardan iborat deb ko'rsatiladi:

- rag'batlantirish (motivatsiya);
- yaxlit shaxsni shakllantirish mezonlarini aniqlash;
- pedagogik tizim ga ega bo'lish;
- shaxsni shakllantirish mazmuni, bosqichlari, jihatlari, unga qo' yiladigan talablar;
- pedagogik jarayon;
- talabalarning shaxslik-kasbiy yo'nalishi;
- talabalarga qo'yiladigan talablar;

-kommunikativ vositalar va ularga qo‘ yiladigan talablar .

Tadqiqotchilaring fikrlariga tayanib shuni ta’kidlash lozimki, bolalarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda quyidagi talablarga rioya etish muhim hisoblanadi:

- bolalarning bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ta’lim jarayonida bolalar faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish;
- bolalarning har biriga individual yoshdashish;
- pedagogik nazokatni shakllantirish;
- kasb-hunarga tayyorlash;
- noqulay vaziyatlardan to‘g‘ri yo‘l topib chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo‘lishlariga erishish;
- ijtimoiy faollik, fuqarolik rolini shakllantirish va hokazolar.

Yuqoridagi talablarni amalga oshirishda barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi mezonlar asos bo‘lib xizmat qiladi.

- shaxsni aqliy, ma’naviy axloqiy, hissiy, estetik, jismoniy rivojlantirish;
- ijodiy imkoniyatlarini namoyon etishga yo‘llash;
- insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish;
- yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsnинг individual o‘ziga xosligini namoyon etishga sharoit yaratish;
- fuqarolik nuqtai nazarining tarkib topishiga erishish;
- hayotga, mehnatga, ijtimoiy ijodkorlikka tayyorlash;
- o‘z-o‘zini boshqarish, demokratik tamoyillarni anglash, vatani va xalq oldida o‘z mas’uliyati va burchini his etish.

Barkamol shaxsni axloqiy tarbiyalashda, avvalo, jamiyat talabiga mos holda axloqiy tushunchalar, qoidalar, his-tuyg‘ular, e’tiqod va xulqiga doir ko‘nikmalar va malakalarni shakllantirish muhim vazifa sanaladi. Ma’naviyatli inson bilimli, kasb-hunar egasi, vatanning sodiq fuqarosidir. U o‘z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, o‘z yurtidan g‘ururlana oladigan,

o‘z vatani boyliklarini saqlash bilan birga uni yanada boyitadigan, go‘ zalliklaridan bahramand bo‘ladigan shaxsdir. U har qanday zararli illatlarga qarshi kurashadi, xalq boyligini avaylab asraydi. Axloq esa shaxsning hatti-harakatlari, yurish turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma’naviy-ruhiy hayotida o‘ziga xos o‘rin tutadi. U jamiyat tomonidan tan olingan tartib-qoidalar bo‘lib, kishilarning hatti-harakatlarini tartibga soladigan tamoyil sanaladi. Axloq-ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs rivojlanishining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloqsiz, axloqiy me’yorlarsiz shaxsning ruhiy, jismoniy va ma’naviy yetukligi shakllanmaydi. Shuning uchun ham ma’naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo‘lib, shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari:

- 1) ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish;
- 2) ma’naviy-axloqiy xulq-atvor, ko‘nikma va odatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko‘ra insonning jamiyat oldida burchliligi, o‘z xulq-atvorining jamiyat taraqqiyoti darajasi bilan uyg‘unligi, shuningdek, ma’naviy-axloqiy xulq-atvorning insonning kishilarga bo‘lgan hurmat-e’tiborini namoyon etuvchi mezonlardan ekanligini tushunishi, axloqiy ideallarining to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarining e’tiqodga aylanishi va e’tiqodning tizimli bo‘lishini ta’minlash va ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Estetik(nafosat) tarbiya talabalar tomonidan estetik bilimlarning egallanishi, ularda estetik madaniyatni tarkib toptirish, voqelikka estetik munosabatlarni shakllantirish, estetik his-tuyg‘uni rivojlantirish, hayot go‘zalliklari, tabiat va mehnatga muhabbatni tarbiyalash; estetik idealni shakllantirish hamda hayotiy faoliyatni tashkil etishda estetik qonuniyatlariga rioya etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shaxsda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda uning jismonan to‘g‘ri rivojlanishi:

- o‘z salomatligini mustahkamlashi;
- aqliy va jismoniy faoliyatning yuqori darajada bo‘lishiga erishish;
- gigienik malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishi;
- turmush tarzini mavjud axloqiy talablarga muvofiq tashkil etish;
- jismonan sog‘lom bo‘lib, o‘ziga va o‘zgalarga quvonch baxsh etish;
- zararli odatlardan saqlanish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar o‘rtasida mehnat tarbiyasini tashkil etishda milliy va umumbashariy an’analariga tayanish, oilaviy mehnat va hunarmandchilikning eng samarali metod va usullaridan foydalanish, zamonaviy kasb-hunarlar asoslarini o‘zlashtirish, ular tomonidan mehnatning shaxs rivojlanishida asosiy omillaridan ekanligini anglanishiga erishish muhimdir. Shuningdek, barkamol shaxsning shakllanishida ekologik, iqtisodiy, huquqiy tarbiyalar ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Barkamol shaxs individ-shaxs-inson tizimida o‘z dunyoqarashi, nuqtai nazariga ega bo‘lish, o‘z haq-huquqini hurmat qilishga o‘rganish, shaxslik xislatlarini tushunish, shuningdek, o‘z bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarini namoyon etib, o‘z “Men”ini qaror toptirish asosida shakllanadi.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishi uning qiziqishlari, xarakteri, qobiliyati, aqliy rivojlanganligi, ehtiyojlari, mehnat faoliyatiga munosabati bilan belgilanadi. Insonda yuqorida ko‘rsatilgan xususiyatlar rivojlanib, uning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo‘lgan munosabati muayyan bosqichga yetgandagina u barkamol shaxs darajasiga ko‘tariladi. Jamiyat rivojlanishi uchun har bir shaxs mukammal, barkamol bo‘lishga intilmog’i lozim.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

- 1.Kasb deganda nimani tushunasiz?**
- 2.Kasb tushunchasi qaysi tildan olingan?**
- 3.Dunyoda qancha kasb va mutaxasisliklar mavjud?**

- 4.**Mehnat predmetiga qarab barcha kasblar nechta tipga bo‘linadi?
- 5.**Kasb formulasi deganda nimani tushunasiz?
- 6.**Nimaga ko‘ra kasblar bo‘limlarga bo‘linadi?
- 7.**Mehnatning maqsadiga qarab kasblarni necha turkumga ajratib ko‘rsatish mumkin?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Yusupova P. Maktabgachatarbiyapedagogikasi. T.: O‘qituvchi. 1993.
- 2.Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgachata’limpedagogikasi. T.:Ilmziyo. 2006.
- 3.Sh.A.Sodiqova “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur sarchashmalari”T:. 2013
- 4.N.M.Qayumova “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashriyoti T:. 2013 y
5. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdag'i ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
6. Sh.M Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.
- 7.Sh.M Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.:“O‘zbekiston”, 2017.
8. Sh. M. Mirziyoyev 7 fevral 2017 yil kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmonni
- 9.Sh.M Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr
- 10.“Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. T:, 2001.
- 11.F.Qodirova, Sh Toshpo‘latova, M A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma’naviyat”. 2013
- 12.Sh.Shodmonova. maktabgacha ta’lim pedagogikasi. fan va texnologiya. -T:, 2008.
- 13.Abdullaeva Sh A. va boshq.Pedagogika Toshkent., Fan nashriyoti.2004 y. 14. Zunnunov A., va boshqalar - «Pedagogika tarihi» oliv o‘quv yurtlari uchun O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, «SHarq» matbaa kontserni, 2000 yil.
15. Munavvarov A.K. «Pedagogika» tahriri ostida. Toshkent.
«O‘qituvchi».1996 y.
14. Tursunov I.Y. Nishonaliev U.N. «Pedagogika kursi» - Toshkent.
O‘qituvchi. 1997 y.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-Mavzu. Maktabgacha pedagogikaning predmeti va vazifalari.....	5
2-Mavzu. Maktabgacha ta’limga kirish.....	10
3-Mavzu.Maktabgacha ta’lim-uzluksiz ta’limning alohida turi sifa-tida.....	15
5-Mavzu. Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning tarbiyasi	26
6-Mavzu. O‘zbekistonda maktabgacha ta’limning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari.....	33
7-Mavzu. Maktabgacha pedagogikaning ob’yekti, predmeti, maqsad va vazifalari.....	39
8-Mavzu. Maktabgacha pedagogikada ilmiy-tadqiqot metodlari.....	44
9-Mavzu. Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalari.....	52
10-Mavzu. Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.....	58
11-Mavzu. Jahon mamlakatlari ta’lim tizimida maktabgacha ta’limning tutgan o’rni.....	67
12-Mavzu.Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi.....	88
13-Mavzu. Hozirgi jamiyatda murabbiy tarbiyachilarga qo’yilgan talab va vazifalari.....	97
14-Mavzu. Davlatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga qo’yilgan talablar.....	106
15-Mavzu. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yosh guruhlari.....	114
16-Mavzu. Zamonaviy tarbiyachilar kasbiy kompetentligining uch aspekti...117	
17-Mavzu. Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir yondashuvlar.....	128
18-Mavzu. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar qobiliyatlarini rivojlantirish.....	137
19-Mavzu-Bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta’lim	

tashkiloti, maktab va oilaning hamkorligi.....	149
20-Mavzu.Kasbiy ijodiy tafakkurni, bilimlarni to‘ldirish va yangilashga bo‘lgan ehtiyojlarini rivojlantirish.....	161